

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“QISHLOQ XO'JALIK MAXSULOTLARINI SAQLASH VA DASTLABKI  
ISHLASH TEKNOLOGIYASI” KAFEDRASI**

**O'SIMLIKSHUNOSLIK VA MEVA-  
SABZAVOTCHILIKDA ILMIY-TADQIQOT USLUBI  
VA TADQIQOT NATIJALARINI STATISTIK  
TAXLILI**

fanidan ma`ruza matnlari

QARSHI - 2012 y.

Ushbu ma`ruza matnlari to`plami QMII "QXMSvaDIT" kafedrasi yig`ilishida (Bayon №\_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. 2012 y.), "MT" fakulteti uslubiy komissiyasida (Bayon №\_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. 2012 y.), magistatura kengashida (Bayon №\_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. 2012 y.) muhokama etilgan hamda 5A410501 - Qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (ekin turlari bo'yicha) mutaxassisligi uchun o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: Z. Ibragimov

Taqrizchilar: QMII "FvaQXT"  
kafedrasi dotsenti R.Aliqulov.

Qashqadaryo BDESvaUITI  
direktori Z.Ziyadullaev.

## **Mavzular bo'yicha soat yuklamalarini taqsimlanishi**

<b>Nº</b>	<b>Mashg`ulotlar mavzulari</b>	<b>Soatlar</b>
1	O'simlikshunoslik va meva-sabzavotchilikda ilmiy-tadqiqot uslublari fanining vazifasi va tarixi	2
2	O'simlikshunoslikda ilmiy tadqiqotlarning asosiy usullari va elementlari	2
3	Dala tajribasini rejalashtirish va tashkil qilish	2
4	Dala tajribasini joylashtirish va uni amalgalash oshirish	2
5	Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar va turli hisob-kitoblar	2
6	Sho'rlangan erlarda dala tajribalari va tadqiqotlar o'tkazish xususiyatlari	2
7	O'g'itlar bilan bajariladigan tajribalar	2
8	Sug'orish bo'yicha tajribalar qo'yish va o'tkazish xususiyatlari	2
9	Gerbisidlar bilan tajribalar qo'yish uslublari	2
10	Hosilini yig'ib-terib olish va hisoblash usullari	2
11	Dala tajribasi bo'yicha hisob-kitob jurnali	2
12	Tadqiqot natijalariga ishlov berish va ularni statistik tahlili	2
13	Empirik va nazariy taqsimlanish	2
14	Belgilarni miqdor o'zgaruvchanligida tanlashlar statistik tavsifini hisoblash	2
15	Belgilarni sifat o'zgaruvchanligida tanlashlar statistik tavsifini hisoblash	2
16	Gipotezalarni statistik usulda tekshirish	2
17	Dispersion tahlil	2
18	Vegetasion tajribalar ma'lumotlarini dispersion tahlil qilish	2
19	Bir yillik va ko'p yillik o'simliklarda bir omilli dala tajribalari natijalarini dispersion tahlil qilish	2
20	Bir yillik va ko'p yillik o'simliklarda ko'p omilli dala tajribalari natijalarini dispersion tahlil qilish	2
21	Dala tajribalarida kuzatuv va hisoblar natijalarini dispersion tahlili	2
22	Korrelyasiya, regressiya va kovarasiya	2
	Jami	44

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.06 dagi №PF-3709 "Meva-sabzavotchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2008 yil 20 oktyabrdagi "Ekin maydonlarini optimallashtirish va oziq-ovqat ekinlari ishlab chiqarish hajmini oshirish to'g'risida"gi farmoni, 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va ichki bozorni to'yintirish bo'yicha qo'shimcha choralar to'g'risida"gi qarori, shuningdek "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uni O'zbekiston sharoitida bartaraf etishning yo'llari va choralar" asarida chop etilgan tavsiyalarga muvofiq respublikamizda 2011 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyati doiralarini takomillashtirish, ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish va qishloq xo'jaligi ekinlari assortimentini kengaytirish, buning asosida aholining oziq-ovqat tovarlariga bo'lган talabini to'liq qondirish va qishloq aholisining daromadini oshirishga erishish dasturi belgilab olindi.

Tabiiyki, mazkur dasturni amalda joriy etish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tub islohotlarni yuritish uchun ushbu sohani mukammal egallagan malakali mutaxassislarga bo'lган talab ortib boradi. Hozirgi kunda don, meva-sabzavot, texnik va boshqa ekinlarni etishtirish, tashish, saqlash va qayta ishlash masalalari etarlicha o'rganilgan deb bo'lmaydi. Bundan tashqari sohadagi ilg`or fan-texnika yutuqlari ishlab chiqarishga keng joriy etilmayapti. Mazkur ma`ruza matnlari tuplami bo'lg`usi mutaxassislarning nazariy bilimlarini mustahkamlashi bilan bir qatorda, don, meva-sabzavot, texnik ekinlarni saqlash, ularga birlamchi ishlov berish va qayta ishlash, shuningdek ularning standartlari va sertifikatlashtirish asoslari bilan bog`liq zarur malakalarni egallahsga imkon beradi.

Tadqiqiy va ijodiy mulohaza ko'nikmalsiz mumkin bo'lmaydigan zamonaviy ishlab chiqarish, mutaxassisdan fan yutuqlarini ijodiy qo'llash orqali printsipial jihatdan yangi vazifalarni mustaqil qo'yish, uni echishni bilish va o'zining amaliy faoliyatida turli shakllardagi tadqiqotlar va sinovlarni o'tkazishni talab qiladi.

YUqoridagilarni hisobga olgan holda "O'simlikshunoslik va meva-sabzavotchilikda ilmiytadqiqot uslubi va tadqiqot natijalarini statistik taxlili" fanini o'rganishda quyidagi vazifalar qo'yiladi: talabalarni ilm fanning mohiyati, uni tashkil qilish va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati bilan tanishtirish; kelajakdagi mutaxassis, ilmiy xodimni ilmiy tadqiqotlarning tuzilishi, unga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishdagi asosiy usullar tug'risida bilim berish; eksperiment tadqiqotlarini rejalashtirish va natijalarini tahlil qilishga o'rgatish.

## 1-MA`RUZA

### MAVZU: O`SIMLIKSHUNOSLIKDA ILMIY-TADQIQOT ISHLARI FANINING VAZIFASI VA TARIXI

**Reja:**

- 1. Qishloq xo`jaligida ilmiy izlanishlarning ahamiyati va o`quv jarayonida tutgan o`rni.**
- 2. Qishloq xo`jaligida tajriba ishlariniig kelib chiqish tarixi.**
- 3. O`zbekistonda ilmiy muassasalar turlari va ularning asosiy vazifalari.**

**Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,8,9**

**Tayanch iboralar:** kuzatish, eksperiment (tajriba), variant, dala tajribasi, tajriba sxemasi, nav sinash, bir omilli tajriba, ko`p omilli tajriba, statsionar tajriba, ishlab chiqarish tajribasi, dala tajribasining tipikligi.

#### **1.1. Qishloq xo`jaligida ilmiy izlanishlarning ahamiyati va o`quv jarayonida tutgan o`rni.**

Xalq xo`jaligini rivojlantirish va mamlakatning qishloq xo`jalik mahsulotlariga bo`lgan va o`sib borayotgan talablarini qondirishning asosiy yo`li qishloq xujalik ishlab chiqarishini har tomonlama mexanizatsiyalash, fan yutuqlari va ilg`or tajribalar asosida kishloq xo`jaligini barcha sohalarini yuksaltirish, hosildorlikni oshirish va mehnat hamda mablag` sarflashni har tomonlama tejash orqali mahsulot ishlab chiqarashni ko`paytirishdan iborat bo`lmog`i lozim.

Agronomiya - kompleks fan bo`lib, u qishloq xo`jalik ekinlaridan yuqori va mo`l hosil olish, hosil sifatini yaxshilashning nazariy asoslarini yaratish va ishlab chiqarish bilan shug`ullanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun esa doimiy ravishda ilmiy bilimlarni oshirib borish zarur. Ilmiy bilimlar, bu o`simlikni qanday maqsadga, mahsulotning sifatini ijobjiy o`zgarish uchun o`stirishni qanday o`zgartirish lozimligini bilish kerak. O`simlikni talabiga qarab o`g`it, suv, va boshqa zarur elementlarni berish, atrof muhit omillarining ta`sirini to`g`ri belgilash va baholash lozim. Bularning hammasi ilmiy tadqiqot ishlari natijasida erishiladi. Madaniy ekinlar biologiyasi, o`stirish usullari, hosildorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish bularning hammasini ilmiy tekshirish asoslari fani o`rganadi.

SHunday katta hajmdagi izlanishlarni olib borish uchun ilmiy tekshirish asoslari fani aniq fanlarga tayanib ish ko`radi, jumladan *kimyo*-tuproqning agrokimyoiy tarkibi, har xil kimyoviy analizlar, o`g`itlar, o`stirish regulyatorlari, pestitsidlar va h.k; *matematika* - har xil matematik ishlanmalar, statistik tahlillar, o`rtacha qiymat va h.k; *fizika* - tajriba qo`yish texnikasi, o`lchamlari, maydonning shakli, paykalni getktarning qancha qismida joylashganligi va h.k; *o`simliklar fiziologiyasi* - o`simliklar kuzatilgandagi o`zgarishlar, transpiratsiya, fotosintez, gullah, gulning ochilishi, hosil elementlarining shakllanishi va to`qilishi, umuman o`simlikni o`sishi, rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan barcha qonuniyatlar.

YUqoridagilarning hammasi ma`lum usullar yordamida amalga oshiriladi. Bular: laboratoriya analizlari usullari, vegetatsion tajribalar, lizimetrik tajribalar, dala tajribalari. Bulardan ilmiy agronomiya uchun eng muhimida dala sharoitidagi tajribalar hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligidagi har bir tajriba o`zining sohasi ichki spetsifikasiga binoan ma`lum bir tajriba olib borish uslubiyatlari bilan ham farqlanadi. Masalan, qishloq xo`jaligi ekinlarining ma`lum bir turi xosildorligini oshirish bilan bog`liq bo`lgan tajriba bo`lsa, albatta u qishloq xo`jaligi amaliyotiga yaqin bo`lgan dala sharoitida, ma`lum bir ilmiy muassasaning dala tajriba uchastkasida o`tkaziladi. Agar rejalashtirilayotgan tajriba butunlay ishlab chiqarish amaliyotiga tegishli bo`lsa, u boshqa bir shu sohaga yaqinroq ilmiy tadqiqot muassasanining eksperimental xo`jaligida o`sha xo`jalik ekin almashinuvni, oraliq ekinlari tizimi va agrotexnikasi asosida amalga oshiriladi, chunki bu xildagi ilmiy institutlar tajriba natijalarini ishlab chiqarishga, tuproq sharoitiga mos holda joriy qilish bilan shug`ullanadilar, qishloq xo`jaligi fanlari ichida o`simliklar yangi navlarini yaratish ya`ni, selektsiya bilan boshqa bir ilmiy institutlar shug`ullanadilar. Ularning tasarrufiga: o`simlik turlari, xillari, urug`lar arxivi, noyob turlarini tiklash, gibridizatsiya (duragaylash), geterozisni boshqarish (poliploidiya) va sun`iy mutagenez kabi ichki soha muammolarini o`rganish bo`limlariga ajralib ketadilar. O`z navbatida har bir bu sohalar o`zlarini oldida to`rgan muammolarni echish uchun izlanishlarni dala-laboratoriya-sun`iy iqlim xonalari va stendlar sharoitida olib

boradilar. Olingan tajriba miqdoriy ashyolarni har xil o'z uslubiyatlarida ishlov beradilar. Bular ichida dala sharoitiga yaqin tajribalar natijasi statistik ishlov berish uchun dispersion tahlil qilinadi. Bu tahlil natijasida tajribaning ishonchilik darajasi o'rnatalidi.

### **1.2. Qishloq xo'jaligida tajriba ishlariniig kelib chiqish tarixi.**

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarigacha O'rta Osiyoda ilmiy tekshirish muassasalarining soni juda kam edi. Taniqli agronom xodimlardan R.R.SHreder, M.M.Bushuev, V.S.Malig'in va boshqalarning zo'r berib harakat qilishlariga qaramay o'sha vaqtida mavjud siyosiy va iqqisodiy sharoitga ko'ra fan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tubdan o'zgartirish kiritolmagan edi. Imperialistik urushlar natijasida sobiq Turkiston o'lkasi hududida bo'lган tajriba stantsiyalar va tajriba dalalarining ko'pchiliga o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatgan yoki to'xtatmaganlari ham juda og`ir sharoitga tushib qolgan edi. 1917 yildan keyin qishloq ho'jaligi sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarining hammasi qayta qurila boshlandi. Turkiston va Ozarbayjonda paxtachilikni tiklash tug`risida 1920 yilda chiqqan qaror yangi tajriba dalalarini va selektsiya stantsiyalarini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. SHu qaror bilan O'rta Osiyoda paxtachilik bo'yicha fanni rivojlantirishga asos solindi. **1921-1926** yillarda Turkiston selektsiya stantsiyasi, Oqqovoq tajriba sug`orish stantsiyasi, o'g'it stantsiyasi, tuproqshunoslik instituti va boshqalar tashkil etildi. **1929** yilda paxtachilik bo'yicha ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi. **1954** yilda SoyuzNIXI mexanizatsiya va agrotexnika markaziy stantsiyasi bazasida O'rta Osiyo sug`oriladigan dehkonchilikni mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy tekshirish instituti (SAIME) tashkil etildi. Bularidan tashqari **1937** yilda sobiq Milyutinsk Davlat selektsiya stantsiyasi bazasida Bahorikor dehqonchilik instituti barpo etildi. **1926** yilda sholichilik tajriba stantsiyasi CHirchiq daryosining o'ng qirg`og`ida tashkil etildi. **1933** yilda sabzavot tajriba stantsiyasi, **1930** yilda O'zbekiston bog`dorchilik va uzumchilik stantsiyasi, **1940** yilda chorvachilik ilmiy tekshirish institutlari tashkil etildi. **1948** yilda Qishlok xo'jalik ilmiy tekshirish instituti, yaqinda 1998 yilda Andijon g`allachilik ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi.

Hozirgi vaqtida tajriba muassasalari soni juda ko'p bo'lib, ular **uch zvenoli** xarakterga ega.

1. Asosiy institutlar va ayrim sohaga tegishli institutlar
2. Viloyatlardagi tayanch stantsiyalar.
3. Xo'jaliklarda laboratoriyalari bo'lган tuman  
stantsiyalarining quyi tarmogi.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olishda eng avvalo ularning parvarishiga, agrotexnikasiga alohida ahamiyat berish lozimligi fan yutuqlari va ilg`orlar tajribasidan yaqqol yangi agrotexnik usullar o'z tavsiyalarini ishlab hozirgi vaqtida ham keng bilish mumkin. Ilm-fan zahmatkashlari bu borada ko'p izlanishlar olib bordilar va olib bormoqdalar. Respublikada tanilgan olimlardan M.V.Muhammadjonov, N.Nazirov, S.N.Rijov va boshqa ko'pgina olimlar ekinlarni yordamida parvarish qilish bo'yicha uz tavsiyalarini ishlab chiqarishga berdilar. Bu tavsiyalar hozirgi vaktda xam keng foydalanimoqda.

Ekinlar hosildorligi, hosil sifati ko'p jihatdan uning biologik xususiyatlariga bog`liq. Bu borada ham Respublikamiz olimlarining tutgan o'rni yaqqol ko'zga tashlanmoqda. S.Mirahmedov, V.Avtonomov, O.Jalilov kabi olimlar tomonidan yaratilgan go'zaning yangi navlari zkilib, mo'l hosil bermoqda.

### **1.3. O'zbekistonda ilmiy muassasalar turlari va ularning asosiy vazifalari.**

O'zbekistonda bir qancha ilmiy tadqiqot institutlari mavjud bo'lib, bu institutlarning har biri o'zining ilmiy yo'naliishlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borishadi.

1. G.S.Zaytsev nomidagi g`o'za selektsiyasi va urug`chiligi ilmiy tadqiqot instituti.
2. O'zbekiston «Paxtachilik» ilmiy tadqiqot instituti.
3. Respublika Fanlar Akademiyasi O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti
4. «SHolichilik» ilmiy tadqiqot instituti.
5. SHreder nomidagi «Bog`dorchilik va uzumchilik» ilmiy tadqiqot instituti.
6. Qoraqalpog`iston «Dexqonchilik» ilmiy tadqiqot instituti.
7. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi «Genetika» instituti
8. O'zbekiston respublikasi «Botanika» instituti.

9. «CHorvachilik» ilmiy tadqiqot instituti.
10. O'zbekiston respublikasi «Mikrobiologiya» ilmiy tadqiqot intstituti.
11. Buxoro «Qorako'lchilik» ilmiy tadqiqot instituti.
12. O'zbekiston «O'simlikshunoslik» ilmiy tadqiqot instituti.

Bu ilmiy tadqiqot institutlarining deyarli har bir viloyatlarda bo'limlari (filiallari) ishlab turibdi. YUqorida nomlari keltirib o'tilgan institut va ularni filiallarining asosiy vazifasi qishloq xo'jaligiga xizmat qilish, ya`ni o'simliklar hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash xalq xo'jaligi va to'qimachilik sanoatining talabini qondira oladigan yangi g'o'za va boshqa o'simlik navlarini yaratishdan iborat. CHunki, g'o'zaning istiqbolli, serhosil, tezpishar, turli kasalliklarga, hashoratlarga chidamli navlarini yaratish asosan G.S.Zaytsev nomidagi g'o'za selektsiyasi va urug`chiligi ilmiy tadqiqot instituti zimmasiga yuklatilgan.

Institutda tsitogenetika, immunitet genetikasi, instruktsiya va kolleksiya, biokimyo va fiziologiya, yangi navlari oldindan ko'paytirish va sinab ko'rish, mutagenez, tola texnologiyasi, fitopotologik jihatdan baholash, biotexnologiya laboratoriyalari dastlabki material va selektsiya tizimlariga baho berish, eng muhim belgilari bo'yicha yangi donor formalarini yaratish, yangi navlarni ko'paytirishda selektsionerlar yordam berishdan iborat vazifalarni tajriba asosida izlanishlar qilmoqda.

«Paxtachilik» ilmiy tadqiqot instituti ham o'z dasturi asosida qishloq xo'jalik ekinlari agrotexnikasi, ekologik va tuproq tarkibining o'simliklarga ta`sirini o'rganish bilan birga g'o'za va boshqa ekinlar selektsiyasi hamda urug`chilagini yaxshi yo'lga qo'yish bilan shug`ullanib kelmoqda.

SHuningdek, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini elektrorashtirish va mexanizatsiyalashtirish ilmiy tadqiqot institututi esa qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnika va mexanizmlarning yangi takomillashgan turlarini yaratish va ularni sinab ko'rish borasida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Xuddi shunga o'xshash har bir ilmiy tadqiqot institutlarining ma'lum yo'nalishi va maqsadi bo'lib, ularning barchasi xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy ahvolini yuksaltirishga qaratilgan. Masalan, O'rta Osipyoda yagona hisoblangan o'simliklarni himoya qilish ilmiy tadqiqot institutini oladigan bo'lsak, bu institut ham qishloq xo'jaligida uchraydigan o'simlik kasalliklari va hashoratlarning yashash sharoiti va ko'payishini o'rganib, o'simlikka etkaziladigan zararlari aniqlanadi va ularni yo'q qilishga qarshi turli usullarni ishlab chiqiladi, turli kimyoviy preparatlar yaratiladi. Bu preparatlarni qo'llash usullarini tajriba asosida har bir ekinda sinab ko'rib, tegishli ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqib qo'llanishini tavsiya qiladi. SHuningdek, o'simlik hashoratlariga qarshi biologik ko'rash bo'yicha ham tajriba ishlarini olib boradi.

YUqorida tafsiloti bayon qilingan ilmiy tadqiqot institutlari dala tajribasi yoki laboratoriya sharoitida ish bajarilishidan qat'iy nazar qabul qilingan bitta metodik uslubiyatiga amal qiladilar.

Agar bu amaldagi uslubiyatdan boshqacha ko'rinishda tajriba o'tkazilsa, bunday tajribalar uslubiy jihatdan haqqoniy deb hisoblanmaydi va yaroqsiz deb topiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Qishloq xo'jaligida ilmiy izlanishning vazifasi nimadan iborat?
2. Qishloq xo'jaligida ilmiy izlanishlarning asoslarini ayting?
3. Qishloq xo'jaligida tajribalarning tarixini ayting?
4. O'zbekistondagi ilmiy muassasalar turlari va vazifalari qanday?
5. Tajriba nima uchun o'tkaziladi?
6. Ilmiy izlanish asoslari fanining iqtisodiyotni ko'tarishdagi ahamiyati?
7. Ilmiy agronomiya nimaga asoslanib ish yuritadi?
8. Ilmiy tadqiqot institutlarda olib borilayotgan tajriba uslubiyatlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

**2-MA`RUZA**  
**MAVZU: O`SIMLIKSHUNOSLIKDA ILMIY TADQIQOTLARNING ASOSIY USULLARI**  
**VA ELEMENTLARI.**

**Reja:**

- 2.1. Tajribalarning asosiy uslubi va xususiyatlari.**
- 2.2. Tajriba variantlari**
- 2.3. Takror va takrorlash**
- 2.4. Paykallar maydoni va shakllari**
- 2.5. Tajriba uchastkasida variantlarni joylashtirish tartiblari.**

**Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,8,9**

**Tayanch iboralar:** variant, takrorlanish, takrorlanish muddati, maydon, paykal, paykalning shakli, paykalning yo`nalishi, yarus, ximoya yo`lklari.

**2.1. Tajribalarning asosiy uslubi va xususiyatlari.**

Ilmiy agronomiyada qo`llaniladigan tajriba usullari laboratoriya, vegetatsion, lizimetrik va dala tajribalarga bulinadi. Bulardan asosiysi *dala tajribasi* hisoblanadi. Hamma tajribalar singari dala tajribasida ham kuzatish olib boriladi. **Kuzatish** - bu tadqiqotchi tomonidan qiziqtirgan, rejalashtirilgan hodisalarni sifat va miqdor jihatidai qayd etish demakdir. Bularga misol qilib: begona o`tlarni hisobga olish, ozuqa elementlarini kuzatish, tuproq namligini kuzatish, o`simliklarni har xil noqulay omillarga chidamlilagini kuzatish, gullahini kuzatish va hokazo. Bularni oddiy hollarda ham kuzatish mumkin. Lekin tadqiqotchi tomonidan maxsus tajriba (eksperiment) qo`yib, unda olib boriladigan kuzatishlar o`ziga xos xarakterga ega bo`lib, bu *aktiv kuzatish* deyiladi.

*Eksperiment (tajriba)* - tadqiqotchi tomonidan h-odisalarni sun`iy hosil qilish yo`li bilan, sharoitlarni sun`iy yaratish usullari bilan ob`ektlar (navlar yoki boshqalar)ni sinab ko`rish demakdir. Tajriba - bu tadqiqotching etakchi uslubidir. Tajriba - nazorat va tajriba variantlarida iborat bo`ladi.

*Variant* - bu o`rganiladigan o`simlikning turi, navi, etishtirish sharoiti, agrotexnikaviy usul yoki ularni birga qo'shib olib borishdir. Tajriba variantlari solishtiriladigan variant *nazorat* yoki *standart* deyiladi. Tajriba va nazorat variantlari birqalikda *tajriba sxemasini* tashkil etadi.

*Dala tajribasi* - o`simliklar hayotini dalada, ishlab chiqarishga yaqin sharoitda o`rganish usulidir. O`simliklar ustida tajriba qo`yilganda ularga ta`sir etuvchi har xil omillar hisobga olinganda, albatta ularning o`simliklarga ta`siri o`rganiladi. Qishloq xo`jaligi ekinlarini etishtirish, dehqonchilikni boshqa sohalarida barcha amaliy tavsiyalar tuzishda va agrotexnikaviy usullarning ilmiy asoslashda ana shu tajriba natijalariga tayaniladi.

Dala tajribalari maxsus ajratilgan maydonlarda o`tkaziladi. Bunday tajriba o`tkazishdagi asosiy vazifa - ularning variantlari o`rtasida farqning aniqlashdan, hayot omillarining, parvarish qilish sharoiti va usullarining o`simliklar hosili va uning sifatiga ta`sirini miqdor jihatidan baholashdan iborat. Barcha dala tajribalari *agrotexnikaviy* va *nav sinash* tajribalariga bo`linadi.

Agrotexnikaviy tajribalardan asosiy maqsad - har xil hayotiy omillarning, ekinlarni parvarish qilish sharoiti va ularning hosilga hamda uning sifatiga ta`sirini qiyosiy baholashdan iborat. Bu tajribalarda ekin ekish normasi, muddatlari, usullari, erni ishslash, o`simliklarni parvarish qilish, o`g`itlash usullari va normalari, o`tmishdosh ekinlar, begona o`tlar, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi ko`rash, har xil o`stirish regulyatorlarini ta`siri va boshqalar o`rganiladi.

Nav sinash tajribalarida esa bir xil sharoitda genetik jihatdan har xil bo`lgan o`simliklar taqqoslanadi. O`simliklar navlari va duragaylariga ob`ektiv baho beriladi. Nav va duragaylar hosildorligiga va hosilning sifatiga qarab baho beriladi.

O`rganiladigan omil (omil) larning soniga, tajriba qancha davom etishiga va tuproq iqlim sharoitiga ko`ra dala tajribalari *bir omilli* va *ko`p omilli*, qisqa muddatli va ko`p yillik, geografik yoppasiga olib boriladigan va boshqaga tajribalarga bo`linadi.

Dala tajribasi yaqin maydondagi (xo`jaliklardagi) ishlab chiqarish dalasida o`tkaziladi. Dala tajribasidan asosiy maqsad agrotexnikaviy zonalar bo`yicha o`rganish yo`li bilan qishloq xo`jaligidagi hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashdan iborat.

Tajribalar o'tkazish joyiga qarab *statsionar* va *ishlab chiqarish* tajribalariga bo'linadi.

Statsionar tajribalar ilmiy tekshirish muassasalarining maxsus ajratilgan maydonlarida o'tkaziladi. Ishlab chiqarish tajribalari esa xo'jaliklar, fermerlar, boshqa turdag'i dexqon xo'jaliklari erlarida o'tkaziladi. Ularning ko'pgina mavzulari ishlab chiqarish sharoitida hal etiladi.

Tajriba natijalari ko'p hollarda o'zgarib turadigan meteorologik sharoitga bog`liq. SHuning uchun aniq ma'lumot olish maqsadida tajribalarni bir necha yil o'tkazishga tug`ri keladi. Bazi agrotexnix usullarning natijasi uzoq vaqt talab qiladi. Masalan, katta me'yorda gung solish, monokulturaning erga ta'siri va h.k.

Tajribalar *yagona* va *yalpi* tajribalarga bo'linadi.

**YAgona tyajribalar** ilmiy tekshirish muassasalari va qishloq xo'jalik o'quv yurtlarida bir-biriga bog`liq bo'lмаган holda ayrim punklarda o'tkaziladigan tajribalar tushuniladi.

**YAlpi** tajribalar, masalan, o'g'itlar ustida olib boriladigan yoki boshqa tajribalar bir necha joyda bir vaqtida o'tkaziladi. Bunga davlat nav sinash tajribalari ham misol bo'lishi mumkin.

Agronomik tekshirishlarda dala tajribalarining barcha turlari 2 modifikatsiyada: *laborotoriya - dala* tajribalarida va *ishlab chiqarish* sharoitidagi dala tajribalarida olib boriladi.

Laborotoriya dala tajribasida tajriba o'tkaziladigan sharoit shu zonaning tuproq iqlimiga mos keladi. Biroq ishlab chiqarish sharoitidan biroz boshqacharoq bo'ladi: ya`ni parvarish qilish usuli yoki navga agrotexnik baho beriladi xolos.

Ishlab chiqarish sharoitidagi tajribalarda tuproq-iqlim va agrotexnikaviy bir xillik talablariga rioya qilinadi, agrotexnik hamda iqtisodiy jihatdan baholash imkonini beradi.

Dala tajribasi natijalarining qimmati muayyan metodik talablarga qatiy ryoq qilishga bog`liq: 1). tajriba tipikligiga; 2). bir xil farqlar bo'lish printsipiga ryoq qilish; 3). Tajribani maxsus ajratilgan va hosildorligi bir xil bo'lgan maydonlarda o'tkazish; 4). Hosilni hisobga olish va dala tajribasini aniqlash kabilar metodik talablarning asosiysi hisoblanadi. Bu talablarning birortasiga amal qilinmasa ham tajriba to'liq qimmatga ega bo'lmaydi.

**Dala tajribasining tipikligi** deganda, tajriba o'tkazish sharoitining rayon yoki zonaning tuproq-iqlim (tabiiy) yoki agrotexnikaviy sharoitiga mosligi tushuniladi. Dala tajribasida tuproq-iqlim tipikligi talablariga ryoq qilish kerak. Tajriba o'tkazish sharoitining agrotexnikaviy va ishlab chiqarish sharoitiga moslashishi har xil tajribalarda bir xilda amalga oshmaydi. Bu talablar dala ishlab chiqarish tajribalarida to'liq bajariladi. Tekshirishning dastlabki bosqichlarida (yangi nav urug`idan yoki yangi o'g'itdan cheklangan miqdorda olish va boshqalarda) bu talablar ham to'liq bajarilmaydi va dala tajribasi ishlab chiqarish sharoitidan birmuncha boshqacharoq sharoitda o'tkaziladi. Tajribani umuman yuqori agrotexnikaviy darajada o'tkazish talablari ham tipiklikka xos talablarga kiradi. Bunday tajribalar natijasining aniqligi ancha yuqori bo'ladi.

Barcha dala tajribalari bir xil farqlar printsipiga amal qilingan holda o'tkazilishi, ya`ni tajribada o'rganilayotgandan boshqa barcha sharoit bir xil bo'lishi kerak. Masalan, ekish normasi aniqlanadigan dala tajribalarida faqat normada farq bo'ladi. Qolgan barcha sharoit (nav, o'tmishdosh ekin, o'g'itlar, erni ishslash usullari, ekin ekish, parvarish qilish va boshqalar) barcha variantlarda bir xil bo'lishi kerak. Lekin bir xillik printsipini to'g'ri tushunish kerak. Masalan, ekish muddatlarini o'rganishda o'simliklar hosilining pishib etilish muddatlari variantlar bo'yicha har xil bo'lishi mumkin, bunda hosilni bir kalendar muddatda hisobga olish noto'g'ri bo'lar edi. Bunday hollarda bir xillik printsipini optimal va maqsadga muvofiq printsip deb tushunish kerak.

Maxsus ajratilgan (tarixi yaxshi tanish bo'lgan) maydonda tajriba o'tkazishga bo'lgan talablar bir xillik printsipi talablaridan va albatta har qanday dala tajribasidan kelib chiqadi. Tajriba o'tkazish praktikasidan ma'lumki, ba`zi tajribalar ko'pincha tarixi ma'lum bo'lмаган almaslab ekish dalalarida o'tkaziladi. Bunday tajribalar natijasini tushunish, tushuntirish va ayniqlasa ulardan foydalanish mumkin emas.

Hosilni hisobga olishga va tajriba aniqligiga bo'lgan talablar. Ekinlar hosili va uning sifati o'rganilayotgan tajriba variantlarini ta'riflashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Agar tajriba mohiyatiga ko'ra aniq bo'lsa, hosilini hisobga olish natijalari o'rganilayotgan variantlarning samaradorligini real ifodalaydi. Tajribaning mohiyatiga ko'ra aniqligi bu tajribaning sxemasi,

metodikasi va texnikasi to'g'riliqidir. Mohiyatiga ko'ra aniq bo'lgan tajriba natijalari matematik ishlanadi, variantlar hosili o'rtasidagi farqlar mohiyatining statistik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

SHunday qilib, dala tajribalaridan to'g'ri va aniq natija olinishi kerak. Bu avvalo tajriba uchun ajratilgan maydon to'g'ri tanlangan va yaxshi tayyorlangan bo'lismiga, paykallarning shakli, katta - kichikligi va yo'nalishi tegishlicha bo'lismiga, shuningdek, tajriba variantlarining takroriyligiga, ularning takrorlanishlar orasida to'g'ri joylashtirilishiga va hosilni hisobga olishning aniq metodlarini qo'llashga bog'liq.

## 2.2. Tajriba variantlari.

Har qanday dala tajribasida tajribaning maqsadi va mohiyatiga bog'liq holda tajriba qo'yishdan oldin variantlar va ularning soni belgilanadi.

Variantlar soni tajribaning hosilga salbiy ta'siri bo'lmaydi, lekin tajriba variantlarining sonini haddan tashqari oshirish katta maydonga yoyilib ketish natijasida tajribaning xatosiga salbiy ta'sir etadi.

Tajribaning variantlar soni 12-16 tadan ortgan sari tajriba dalasi tuprog`ining har-xil yoki bir xilligiga qarab tajriba xatosi ortib boradi. Tuproq unumдорligi sezilmash darajada, kutilmagan xolatdagi o'zgarishida ham yuqoridagidan mustasno holatda variatsiya koeffitsientining kattaligiga bog'liq bo'limgan xolda variantlar soni 6 dan 50 tagacha oshganda, tajriba xatosi ham oshib boradi. CHunki, variantlar soni oshib borishi bilan nafaqat tuproq tarkibi farqlanadi (dala kengayishi bilan) balki taqqoslanadigan variantlar bir-biridan uzoqlashib ham boradi. Variantlar sonining oshib borishi ularni yoki ularning takrorlarini bir xil tuproq sharoitiga joylashtirish imkoniyatidan kamaytiradi. Bunday holat tajriba xatosining asosiy sababidir.

SHuning uchun ham tajriba o'tkazish uslubiyatini yaratishda variantlar sonini 12 yoki ko'pi bilan 16 variantdan oshirmslik kerak.

Umumiy bo'laklar soni bo'lsa bu xolatlarda 60-64 ta bo'ladi. Ba'zi bir maxsus tajribalarda (tajriba variantlari bundan ko'p), masalan ko'p omilli tajribalarda-sochma paykallar usulidan foydalanish, seleksion tashkilotlardagi nav chiqarish dastlabki davri ashyolarini o'rganish tajribalari, ko'p omilli tajribalarning aralash variantli sinovlarida bir takror ichiga 2-3 ta kontrol variantlarini kirkizish usuli bilan tajriba xatosini kamaytirish ko'zda tutildi.

Ishlab chiqarish sharoitidagi tajribalarda tajribaning xatosini oshishiga yo'l qo'ymaslik uchun variantlar sonini 3-4 tadan oshirilmaydi.


Xar bir variant maydoni ham tajriba maqsadi va tuproq tarkibining bir xil xususiyatga xosligidan kelib chiqib belgilanadi. Bu sharoitda, ko'pincha dala texnika xizmat ko'rsatish imkoniyati doirasidan kelib chiqqan xolda belgilanadi. SHuning uchun xam ko'pincha paykallar uzunasiga bitta chiziqdagi qatorli xamda yaruslar bo'yicha joylashtiriladi.

## 2.3. Takror va takrorlanishlar.

Dala tajribasining natijasida tajriba aniqligini va uning ishonchliligin joy, muddati bilan bog'liq bo'lgan tajriba variantlarining takrorlanishi belgilaydi. Bu erda: joydagи takrorlanish deb bir variantning bir necha bor ketma-ket qayta (takror) egilishi hisoblanadi.

Takrorlanish muddati deb esa, tajribaning bir necha yil mobaynida davom etishi tushuniladi, Joydagи takrorlanish tajriba o'tkazilayotgan joy tuproq`ining har xillik xolati uchrasa uni butunlay qamrab olib variantlar ko'rsatilgan o'rtacha olingan ma'lumotlar aniqligini kafolatlaydi. Variant bilan bog'liqligi bo'lsa, o'rganilayotgan muhitlarning variantlarga bo'lgan ta'sirlari va munosabat-bog'liqliagini har xil meteorologik sharoitlarda, bir necha yil mobaynida o'rganiladi.

Tajribadagi takrorlanish soning oshishi bilan tajriba xatosi kamayib boradi. Izlanishlarning ko'rsatishicha, tajriba xatosi ayniqsa 4-6 takrorlashda bo'lganda kamayadi. Unda takrorlanishning soni oshirish tajriba xatosining sekin kamayishi bilan kechadi.



--	--	--	--	--	--	--

Jadvaldagi uzlusiz chiziq tajriba xatosining paykal maydoni kengayishi bilan kamayishini ko'rsatadi. Uzilgan chiziqlar esa tajriba xatosining takrorlanish soni oshishi bilan o'zgarishi kuzatiladi. Ko'rinish turibdiki, tajriba xatosining takrorlari ko'payishi bilan takror maydoni ko'payishiga nisbatan ko'proq kamayib borar ekan. Takrorlash samarasи butun tajriba variantlari joylashgan tuproq o'zaro farqi tajriba o'tkazilayotgan tuman tuproq farqidan sezilarli farq qilmasa o'ta yuqori bo'ladi. SHuning uchun ham bir omilli va ba`zi hollarda ko'p omilli sinovlar ham tuproqqa ishlov berish, takroriy ekish tajribalari 4-6 takrorlanishda o'tkaziladi. Dala tajribalari amaliyotda 6-8 takrorlanish 2-10 m<sup>2</sup> li paykallar yoki taqsimlanmagan er uchastkalarida amalga oshiriladi. Takrorlash 8 ta dan ko'p tajribalar esa, ba`zi bir hollardagina masalan, variantlarga ahamiyatsiz ta'sirlarni taqsimlash uchun (mikroog'it, o'suv stimulyatori va boshqalar misolida) tashkil etiladi.

Umuman olganda takrorlar tajriba dalasida tartibli ketma-ketlik usulida joylashtiriladi (tashkiliy qaytarilish usuli). Uning ma`nosi shundaki, hamma variantlar majmuasi bir joyda bir guruuhga birikadi. Undagi bir takrori bo'lsa, tajribaning qisqartirilgan, yaxlit holatini ko'rsatadi.

Bundan tashqari variant takrorlari tajriba uchastkasida bir-biri bilan bir joyda birikmasdan alohida-alohida kichik uchastkalarda alohida uchrashi mumkin. Bunday tajriba tartibsiz usulda joylashgan takrorlanishlar ham deb ataladi.

1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
I					II					III				

va xokazo. Takrorlar bu tajribada butunlay rendomizatsiya (tasodifiy) holatida xam kelishi mumkin.

III	I	II									
1	3	4	2	2	4	1	3	4	1	3	2

#### 2.4. Paykallar maydoni va shakllari.

Dala tajribalari ma'lum bir shakl va kenglikka ega bo'lган paykallarda olib boriladi. Bunda paykal (bo'lakcha) o'rganilayotgan tajriba va nazorat kabi variantlar uchun ekilish joyi bo'lib xizmat qiladi.

Ba`zida, paykal maydonini belgilashda uning xaqqiy vazifasiga ortiqcha baho berib haddan tashkari ko'proq va kengroq tajriba paykali tanlab yuboriladi. Bunday holat ilmiy agronomiya amaliyotida 1930 yillarda sodir bo'lib er taqsimlashda paykallar maydonini sekin-asta bir getktargacha olib chiqilgan. Lekin bunday paykallardan olingan natijalarda tajriba aniqligi kamayib, ko'p mexnat kuchi sarflanishni taqozo etgan. Hozirgi vaqtida rivojlangan barcha davlatlar dala tajribalarida dastlabki o'simlik ko'paytirish davrida talab qilingan keng paykal o'rniga ko'proq, ixcham va qulay bo'lган paykallardan foydalanilmoqda. Har xil paykal maydonlarning ko'pgina mamlakatlar tajribalarida drobli o'rganish natijalarining ko'rsatishicha tajriba aniqligi paykallar maydoni 100 m<sup>3</sup> gacha kengayib borishi bilan oshib borar ekan. Bundan kengayish bo'lsa, tajriba natijasi aniqligini kamaytiradi. Buning sababi paykal maydoni kengayishi bilan variant uchun umumiy er maydoni ham ortib borib, natijada tajriba uchun tanlangan tuproq tipikligi chegarasidan chiqib, yaroqsiz er hisobiga ham ekin ekilib o'rtacha ko'rsatkichlar xatosini oshirib yuboradi.

Tajriba paykallarining maydonini tajribada o'simlik turi, tajriba maqsadi, tuproq tarkibi va tekisligi, agrotexnik tadbirlar turi, mexanizatsiyadan foydalanishi holatiga qarab optimal darajasi tajriba uslubiyatida belgilanadi. Optimal er maydonini belgilash uchun tajriba o'tkazish uslubiyatidagi talabida ko'rsatilgan o'simliklar sonidan kelib chiqib adabiyotlar tahliliga murojat qilinsa, har bir variantdagi o'simliklar soni tajribada minimum 80-100 ta dan bo'lishi kerak. (G.F.Lekin-1980-Boshqa bir adabiyotlarda kartoshka o'simligiga minimum 40-50, makkajo'xori o'simligi uchun 60 ta xar bir takror paykali uchun talab etiladi (G.V.Vedenyapin-1972, G.N.Zaytsev-1973). Bu o'rinda bizdagи g'o'za dalasida ham bu har bir paykal uchun 25-30 tadan to 50 tagacha umumiy qabul qilingan uslubiyat asosida uya soni bo'lishi kerak.

P.A.Dospexov (1985) qo'llanmasida har bir paykal maydonining o'simliklar soni va tajriba yuqori aniqligidan kelib chiqib qonuniyat asosida  $20-25 \text{ m}^2$ , bug'doy 40-60 va boshqa texnik ekinlar uchun  $50-100 \text{ m}^2$  qilib belgilangan.

## 2.5. Tajriba uchastkasida variantlarni joylashtirish tartiblari.

Tajriba uchastkasida variantlarni paykallarda joylashtirishda 3 ta asosiy uslubiy guruhlardan foydalaniladi: standartli, statistik va rendamizatsiya (tasodifiy).

Bu erda, variantlarni tajriba paykallarida standart usulida joylashtirish tartibi, tajribaning kontrol yoki standartlari tez-tez 1 yoki 2 tajriba variantidan so'ng kelishi bilan farq qiladi.

Standart usuldagagi tajriba variantining har bir takrorida bir xil tizimda (ketma-ketlikda) kelishi mo'ljallangan. Bu usuldagagi joylashtirishda tajriba er uchatskasidagi tuproq tarkibi takrorlanishda bir xil holatda o'zgaradi deb qaralib, paykallardagi xosil o'zgarishi bir-biri bilan korrelyatsion boglanib turishi ham ko'zda tutiladi. CHunki, standartli tartibdagi uslubiyatda har bir tajriba varianti o'zining standarti (kontrol bilan taqqoslanib) xosildorligi bo'lsa har bir takror bo'yicha alohida hisoblash amalida takrorlanishdagi tuproq tarkibi sekinlik bilan o'zgarishi e'tiborga olinib amalga oshiriladi.

Standart usulida variantlar joylashuvining yaxshi tomoni ko'pincha tajribada uchraydigan tuproq unumidorligini har xilligi natijasida tajriba xatosini tezda bartaraf qilish imkonini beradi deb hisoblandai. YA`ni tajriba varianti yonida joylashgan standart o'rganilayotgan nav yoki duragayning agrotexnik tadbirlarning samaradorligi ko'rsatadi. Ammo, amaliyotda qo'llanishning ko'rsatishicha, standart uslubidagi variantlarning joylashtirish uslubiyati ham o'zining ma'lum kamchiliklariga ega va takomillashtirishga muhtoj (4 -chizma).

I	II	III													
1	2	3	1	4	5	1	2	3	1	4	5	1	2	3	1

Tajriba uchastkasida variantlarni sistematik joylashtirish tartibi-variantlarning har bir takrordagi joylashuvi ma'lum bir sistema asosida amalga oshiriladi. Bunda qo'llanilayotgan dala tajribalarimiz amaliyotida uning ikki xolati: variantlar navbatli bir yarusda va shaxmatli, takrorlar bir necha yarusda joylashadi. Eng ko'p va oddiy holda ishlatilishi navbatli va bir yarus holatidir.

I	II	III													
1	2	3	1	4	5	1	2	3	1	4	5	1	2	3	1

Bu usulning yaxshiligi uning oddiyligi, noqulaylik tomoni esa uchrab turadigan va kutilmagan variantlar o'zgarishi-ning o'q olishi. Bundan tashqari tajriba xatosiga statistik baho berishda (V.A.Dospexov-1985y) ishonchszligidadir.

SHuning uchun ham u chet el amaliyotida faqatgina dastlabki tajriba jarayonida, hali tajriba natijasiga statistik bahoning axamiyati talab etiladigan vaqtida ko'rgazmali tajribalarda qulayligi uchun ishlatiladi. Eng muhim statistik baho talab etiladigan tajribalarda variantlarni paykallarda joylashtirishda rendomizatsiya tartibi kengroq ishlatilmoqda.

Rendomizatsiya (tasodifiy) usulida variantlar har bir takrorlanishda tasodifan, ya`ni kur`a tashlash asosida joylashtiriladi. Bu usul kuyidagicha amalga oshiriladi. Tajriba variantlari raqami bir xil xajmdagi qog`ozchalarga yozilib bir idishga solinadida, yaxshilab aralashtirilgach, birma-bir tortib olinadi SHunday tarzda tegishli variant olingan qog`ozda ko'rsatilgan raqam bilan belgilanadi, birinchi takrorlanish, so'ng boshka takrorlanish variantlari shu tartibda joylashtiriladi.

Bunday variantlarni joylashtirish R.A.Fisher tomonidan dispersion tahlil yaratilishi asosida taklif etilgan. Uning fikricha, variantlarni takrorlarda rendomizatsiya asosida joylashtirish takror tuproq farqini variantlar tomonidan to'liq qamrab oladi. Natijada tuproq farqi ta'sirini yo'q qilib tajriba varinatlari xatosining o'sishiga yo'l qo'ymaydi.

I	II	III													
1	2	3	1	4	5	1	2	3	1	4	5	1	2	3	1

### 3-MA`RUZA

#### MAVZU: DALA TAJRIBASINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH.

**Reja:**

- 3.1. Mavzuni tanlash va maqsadni aniqlash.**
- 3.2. Ishchi gipotezani yaratish va tadqiqot dasturini tuzish.**
- 3.3. Uchastka tarixi, relefi, tuproq holati.**
- 3.4. Tajriba uchun ajratilgan er uchastkasini bo'lish.**

**Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,8,9**

**Tayanch iboralar:** variant, takrorlanish, takrorlanish muddati, maydon, paykal, paykalning shakli, paykalning yo'nalishi, yarus, ximoya yo'laklari.

#### **3.1. Mavzuni tanlash va maqsadni aniqlash.**

Dala tajribasi yordamida olib boriladigan ilmiy izlanishlar va tekshiruvlar uchta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: Rejalahshtirish, dala tajribasini tashkil etish, kuzatuv, hisob-kitoblar va ma'lumotlarni taxlil qilib izohlash.

Mavzuni tanlash va maqsadini aniqlash. Masalaning zamonaviy holatini o'rganish. Dala tajribasi mavzusi qisqa qilib tanlanishi zarur. O'rganilayotgan omillar, variantlarning yahlit turi va tajriba ma'lum bir alohida tuproq geografik kenglik doirasida o'tkazilayotgan bo'lsa, tajriba joyi nomi ham ko'rsatilishi shart. Tajriba o'tkazuvchi eksperimentator tajribanining mohiyatini oldindan aniq fikr eta olishi va o'rganilayotgan omillar ta'sirini aniq logik modelida chizib bera olishi kerak. Izlanuvi bo'lardan tashqari tajriba strategiyasini fikr eta bilib, eng samarali uslubiyati va izlanish tadbirlarini tuza bilishi kerak. Tajribani rejalahshtirishdagi bundan keyingi qadam oldinga qo'yilgan tajriba masalasini echish uchun adabiyotlarni o'rganib o'xshash tajriba masalalari echimlarini o'rganishdir. O'rganilgan adabiyotlar natijalari jamlanib, o'z tajribasi uchun uslubiy va ishchi gepotezalarni ko'rsatishi, bu uslubiy yoki ishchi gepotezalar keng darajada muhokama qilinib eng samaralilari ajratib olinib bo'lajak tajriba dasturi tuzilishi uchun xizmat qiladi. Bu dasturda uslubiyat sxemasi tuzilib unga eng zamonaviy variantlar, paykal maydoni, takrorlanish, paykallar relefining yo'nalishi va olib boriladigan kuzatuv hamda ma'lumotlar, statistik tahlil turi kabi tajriba o'tkazish amallari belgilanadi.

#### **3.2. Ishchi gipotezani yaratish va tadqiqot dasturini tuzish.**


Ishchi gepotezasini yaratish, tadqiqot dasturini tuzish Ishchi gepotezasini tuzish dala tajribasini rejalahshtirishdagi eng qiyin masalalardir. Chunki tajriba natijasining ishonchligi va oldiga qo'yilgan maqsadning nechog'liq to'g'ri xal etilishi tajribani rejalahshtirishdagi dala tajribasiga mos ratsional sxemasini ishchi gepotezasida qanchalik to'g'ri turganligiga bog'liqdir. Masalan bir omilli dala tajribasi ishchi gepotezasida ikki asosiy holatini yodda tutish darkor: birinchidan tajriba variantlari bir biridan sifati bilan farqlanadi (tajribani o'rganish, ekinlar va navlarni taqqoslash) agrotexnik chora tadbirlar, o'g'itlar, ximikatlar va ikkinchidan tajriba variantlari o'rganilayotgan omillar bilan miqdoriy gradatsiyalariga ham ega bo'lishi mumkin. (o'g'it me'yori, sug'orish me'yori, er haydash chuqurligi chigit ekish sarfi).

Bir omilli tajribanining ishchi gepotezasida unga kerakli tizim tuzilishini osonlashtirish ham mumkin. Masalan: agarda tadqiqotchi beshta kuzgi bo'g'doy navini o'rganishni rejalahshtirgan bo'lsa, yoki beshta nav o'rniga besh xil tuproq ishlovi bo'lsa tadqiqotchi tajriba tuzishni besh variantli deb: variantlarni A,B,S,D,E. holatida oladi.

Tadqiqotchi gepotezasida tajriba tizimining yaratilishi bir omilli tajribalaridan ularning variantlari bir biridan farqi o'rganilmaydigan, lekin doimiy unga yo'ldosh agrotexnik sharoitlar (har xil fon) ta'sirini aniqlashi ham muhimdir. Bir omilli tajribada ularning variantlari bir biridan miqdor jihatidan farqlanganida yuqoridagi tajribalardan tashqari o'rganilayotgan omillarning ma'lum bir variatsiyasi bo'lgan va bo'laklar soniga (gradatsiyaning soni) ham to'g'ri aniqlik kiritilishi kerak. Xullas tajriba tuzilishining tadqiqot gipotezasidan olingan ma'lumotlar asosida ma'lum bir variantlar ta'sir nuqtalarini (sonlarni) kesishtirib egri bog'liq yoyni hosil qila olish kerak. Bu kesishmalar umumiy holda, masalan, hosildorlikning o'rganilayotgan omillar gradatsiyasi

o'zgarishiga bog`liqligini xam ko'rsatib bera olsin. Odatda, tajribadan olingan hosil natijasi va o'rganilayotgan omilning o'sib boruvchi dozasi orasidagi bog`liqlik egri, yoysimon shaklni egallaydi. SHuning uchun bu omillning kengroq dozali soni gepotezani tanlanishi kerak. Hatto xayolan ko'proq gradatsiya sonlarini olib ularni yoy bo'ylab teng bo'laklarga bo'lib tashlash kerak. Bu holat yuqoridagi ikki ko'rsatkichlar bog`liqlik to'laroq tarqalishida yordami to'laroq tegadi.

Umuman o'rganilayotgan omilning 5-8 miqdori etarli deb qaraladi, lekin bu erda eng muhim bog`liqlikning asosiy me`yori yoki egri yoydagi markaziy nuqtaning aniqlay olinishi va yoy bo'ylab chetga (ekstremalga) harakatlanishida tajriba natijasi yoy bo'ylab limit, statsionar va ingibiratsiya qismlarini o'z ichisha olgan bo'lishi kerak.



Bir omilli tajribada uning bog`liqlik omilli shakli. Bu erda AV -limit qismi VD - statsionar qismi va DE- ingibiratsiya qismi.

SHunday qilib, tajribani rejalashtirish va tashkil etish davomida ishchi gipotezadagi tajriba tuzilishini tuzishda tadqiqotchi oldida turgan asosiy vazifani talab darajasida hal qilish uchun markaziy me`yorda (tajriba natijasi markazi) va o'rganilayotgan omil ko'rsatkichi (qadami) variatsiyasini ustalik bilan tanlashga bog`liqdir, aks holda agar tajriba natijasi markaziy gradatsional sonlari ahamiyatsiz holda tanlangan bo'lsa, tajriba egrilik yoyi, nuqtalari qisman limit yoki statsionar qismla-rigina o'z ichiga olib o'rganilayotgan omil samarasini (ta`sirini) optimal me`yorini aniqlab bo'lmaydi. Tajribada olingan ma`lumot-lar aniqligi keskin kamayadi, haqiqiy ta`riflanishga yaramaydi.

### 3.3. Uchastka tarixi, relefi, tuproq holati.

Tajriba uchun tanlangan er maydoni olingan natijalar ttabiq etiladigan er sharoitiga mos kelishi kerak. Bunda er xossasi, hosildorligi, relefi asosiy belgilari bo'lib tanlangan arning tipikligini yoki reprezentligini ko'rsatadi. Notipik er maydonida tashkil qilingan dala tajribasidan olingan ma`lumotlar natijalarini amaliyatga joriy qilib bo'lmaydi. Agrotexnika oziqlantirish sharoiti bundan mustasno, chunki olingan ma`lumotlar xar doim yuqori agrotexnik holatdagina tasdiqlangan bo'lib, amaliyotchidan yuqori agrotexnika sharoiti yaratish talab etiladi. Er maydoniga bo'lgan ikkinchi talab - er qatlami bir xilliliqi, lekin tabiatda hech qachon absolyut bir xil tuproq qatlami xususiyatini topib bo'lmaydi, ba`zi bir omillar tomonidan har xil xususiyatli tuproq sharoitida tajribadan voz kechish talablari nisbiydir. CHunki mutlaq bir xususiyatli tuproqni topib bo'lmaydi. Faqat, iloji boricha tajriba uchun tanlanayotgan tuproq atrofga nisbatan, tajriba uchun er maydoni tanlash talablarga to'laroq javob berishga erishish kerak. Buning uchun tanlanayotgan er tarixi, tuproq- laboratoriya tahlili, relefi, begona o'tlar bilan ifloslanganligi va boshqa, tajriba natijalariga salbiy ta`siri bor omillar batafsil o'rganilishi shart.

Tajriba uchun tanlangan er maydonining tarixi aniq bo'lmasa tajriba o'tkazish taqiqlanadi. CHunki tajriba eriga bo'lgan talabga tajriba uchun tanlangan er oldingi 3-4 yil mobaynida faqat bir xil ekin ekinlib, bir xillik o'g'itlash sistemasida erga ishlov berish agrotexnikasi amalga oshirilishi shart. Bu erda oraliq ekinlar, ba`zi bundan mustasno, ko'pgina adabiyotlarda ta`kidanishicha eksperimental o'z bo'lajak tajriba maydoniga uch- to'rt yil e`tibor berib (yaqin olib), uning qismi bo'laklari tartibsiz o'g'itlash, agrotexnik ishlari bajarilishiga yo'l qo'yilmay erni tajribaga tayyorlash ayni muddao bo'ladi. Agarda, bunday imkoniyat tadqiqotchida bo'lsa 3-4 yilga doir er maydoni tarixiy hujjatlarni o'rganilishi va bu erda tajriba o'tkazish uchun uslubiy yaroqliligiga ishonishi zarur. Bunday er maydonida tuproq xususiyatiga bo'lgan talab qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sharoitidagi tajribalar uchun o'ta muhimdir. Aksincha, er maydoni tarixi nomalum

bo'lган tuproq sharoiti tajri-basidan olingan natijalar mutlaq yaroqsiz bo'lib qoladi, chunki uni qanday tuproq sharoitiga joriy qilinish taklifi ochiq qoladi.

Tajriba uchun er maydoni tanlashda bazi bir kutilmaganda uchrab turadigan tasir omillaridan uylar, fermalar, o'rmon va boshqa obektlar malum bir uzoqlikda bo'lishiga ham etish zarur. Masalan, uylardan tajriba dalalarini uzoqligi 50-100 m bo'lishi kerak. Ferma va o'rmon yoki aloxida daraxtzorlar uchraydigan xolda 25-30m, va yo'llardan xam 10-20m uzoqlikda bo'lishi kerak.

Tajriba uchun ajratilgan er maydoni tarixi va tashqi kutilmagan omillar tasiri o'rganilib bo'lганligidan so'ng uning tuproq kartogrammasi yaratilishi kerak. Buning uchun er maydonining har 10-15 metrida qazish ishlari orqali tuproq osti suv qatlamlari ham o'rganiladi. Qazish natijasida 1sm ga 10-50m masshtabida tuproq xaritasi yaratiladi. Tuproq xaritasini yaratishni asosiy maqsadi kelgusida tajriba uslubiyatiga asosiy elementlar bo'lган variant, yaruslar, takrorlar, paykallar va ularning shaklini, yo'nalishini to'g'ri tanlab tajribani namunali bajarishdir.

Bu ishlardan tashqari tajriba erida bir necha yil mobaynida tabiiy o'tlar o'sishi kuzatiladi. Bu chora, tajriba uchastkasi (yoki qismlari) qanchalik begona, tajriba natijasiga tasiri bor ajriq, g`umay va boshqa o'ta xavfli o'simliklar ko'p joyini aniqlab ularni yo'qotishga imkon beradi.

Tajriba uchun tanlangan er maydoni relefi ham tajribada tadqiqot uchun olingan o'simlik (nav) turlari va tajriba maqsadiga mos bo'lishi shart. O'simlikning malum bir turi tajriba uchun tanlanganda ham o'simlik va er bir biriga tipik bo'lishi uchun odatda o'simlik qanday relefli erda o'sadigan bo'lsa tajriba maydoni ham shunday bo'lishi kerak.

Ko'pchilik qishloq xo'jaligi ekinlari uchun er uchastkasi relefi tajribada 1-1.2m 100m ga yotiq bo'lishi talab etiladi. Poliz mahsulotlari etishtirishga oid tajribalarda poliz o'simliklari agrotexnikasiga ko'ra ularni sug`orishda er tekislik relefi 0.005 dan 0.01 ni talab etadi.

Agarda tajribada noto'g'ri relef tasirini o'rganish yani, uni o'simlikka bo'lган tasiri o'rganilsa, albatta tajriba variantlari uchun bir xil relefli nuqtalar tanlanib sochma holatda takrorlar uchastka kengligiga joylashtiriladi. Talab doirasida tajriba uchun bir xil relefli joyni egallah uchun variantlar sonini tajribada kamaytirish xam mumkin.

Ilmiy izlanish masallalari tajriba uchkastkalarida bunday tajribalarni amalga oshirish uchun er invillirda tekshiriladi. Natijada, tajriba er maydoni uchun 0.1-0.2m gorizontli er tajribaga ajratiladi.

Ishlab chiqarish sharotilarida bu maqsad uchun er tanlashda maxalliy sharoitdan kelib chiqqan xolda qo'polroq, yani qiyaligi 1m. gacha bo'lган notejislik xam ruxsat etilmaydi. Tanlangan uchastkaning xo'jalik tarixi, relefi va mikro xolati o'rganish natijalari asosida tajriba maydoni haqida tadqiqotchi etarlicha malumotga ega bo'ladi. Bundan ham ko'proq, tuproq uchastkasi malumotlari talab etiladigan tajribalar uchun tenglashtiruv yoki rekonstruktsiya ekinlari tashkil etiladi. Ishlab chiqarish sharotidagi tajriba usullarda erni o'rganish ko'pincha 1 yoki 2ta tenglashtiruv ekinidan iborat bo'ladi.

Ilmiy muassalarda bo'lsa, bu maqsad uchun tenglashtiruv ekinlari drobli yoki alohida kichik paykallarida amalga oshiriladi. Bu usul ularda rekonstruktsiya ekinlari deb ataladi.

Tenglashtiruv ekinlari katta paykallarda bir o'simlikning yoppasiga ekilishi bo'lib, er uchastkasining unumdorligini bir xil holatga etkazilishini ko'zda tutilgan bo'ladi. Bu ekin usulining boshqa ekinlardan farqi kelgusi tajriba erini yuqori holatda tayyorlash uchun bir xil agrotexnik muhitda olib borilib, oziqlantirish va ishlov berish butun er maydonida o'ta yuqori holatda olib borilishini taminlaydi.

### **3.4. Tajriba uchun ajratilgan er uchastkasini bo'lish.**


O'rganilayotgan variantlarni joylashuvi dala tajribasida uslubiyatining hamma talablariga itoat qilingan holdagina o'tkazilsa to'g'ri baho beriladi. Dala tajribasida yo'l qo'yilgan har qanday texnik buzilish (uchastkani bo'lishda, erga ishlov berishda, o'g'itlashda, ekish, parvarishlashda, xosilni yig`ib olishda) o'simlik rivojining qaysi davrida bo'lmasin variantlarning bir biriga tenglashtirish statistik xususiyatlarini yo'qotadi. Ularning haqiqiy rivojlanish potentsiyasini ko'rishga imkon bermaydi. Bunday tashkiliy buzilish oqibatida o'zgartirib bo'lmas (matematik ishlov bilan ham) holatga tushib tajriba butunligicha taftish qilinib, yig'ilgan malumotlar o'z qiymatini yo'qotadi. SHuning uchun ham dala tajribasini qo'yish jami uslubiy talablarga javob

berib o'tkazilsa aniq malumotlar olinib tajriba natijasi obektiv baholanadi. YUqoridagi talablardan biri tajriba maydoniga takrorlar, paykallar va ularning tartibini to'g'ri belgilab haqiqiy chegaralarini belgilab ko'rsatish, hujjatlardagi tajriba tuzilishini (chizmasini) dalada aniq (notural) konturda joylashtirishdir. Dalaga chiqishdan oldin kerakli (tajriba uchastkasini bo'lishda) anjomlarini: to'g'ri burchak olish uchun teodolit yoki ekker, po'lat tasma yoki 20m lik ruletka, uzun ip, 1.5-2m li 5,10ta reykalar va 3-4ta, 25sm lik ishchi va paykallar chegarasini qayd qilish uchun qoziqchalar, bir necha oddiy qalamlar tayyorlash kerak.

Dalani bo'lish tajriba maydonining umumiyligi konturini va alohida takrorlar kontrolini ayirishdan boshlanadi. Tajribani uchastkada shunday joylashtirish kerakki, uning va takrorlarning tashqi tomonidan kami bilan 5m himoya kengligi qolsin. Tajribanining umumiyligi va takrorlar konturi bir-biri bilan shunday bog`lansinki, oradagi bog`lanmaslik xatosi 100m ga 5-10sm bo'lsin. Tajriba konturini belgilashda quyidagicha harakat qilinadi: dalning uzun bir tomonidan reykalar bilan belgilab to'g'ri chiziq A,D tortiladi.

A1 ni birinchi dala chegarasi deb undan 5-10m ichkariga kirilib, A haqiqiy tajriba maydoni chegarasini belgilab qoziqcha qoqiladi. Keyin A va D chizig`i bo'ylab tajriba uchun kerakli A va D nuqtalaridan perpendikulyar chiziqlar tortilib, A va D dan kerakli o'lchamlarda chiziq tortib V va S qoziqchalarni mahkamlanadi. Agar to'g'ri burchaklar ekker yordamida to'g'ri olingan bo'lsa: AD teng VS ga va AV teng SD ga bo'ladi. Aks holda, chiziqlar nuqtalari bir-biri bilan kesishmaydi, yani etishmaslik (bog`lanmaslik) xatosi keragidan ortiq bo'lsa, qilingan ishlar yana takrorlanadi.

Dala tajribasining chizmasi.



Umumiyligi tajriba konturi ajratilib bo'linganidan so'ng ip va po'lat tasma orqali uchastkani takror va paykallarga bo'lish boshlanadi. Har bir takror chegarasiga ikkitadan qoziqcha qoqiladi. Qoziqlardan biriga takror raqamli va qator raqami yoziladi. YOzuv oddiy qalam yordamida amalga oshiriladi. Har qanday dala tajribasi maydonini chegaralashda kami bilan 5m lik himoya maydoni qoldirilishi kerak. Bundan tashqari har bir yaruslar orasida 1-1.5 metrlik himoya yo'laklari ham qoldiriladi. (YAruslar orasidagi himoya yo'laklari ko'chatlar to'liq olingandan so'ng ikkinchi bor olinadi). Qatorlar, yani paykallar orasiga himoya qatorlari qo'yilmaydi. Bu bir turga oid navlar orasidagi bir biriga ko'rsatadigan ta'siri (tajriba xatosiga) tashqi omillar ta'siri singari katta ta'sirga ega emas deb qaraladi. Tajriba maydoni butunlay taqsimlab bo'lingandan so'ng eng kami bilan 4 chegaraviy nuqtalar (har qanday holatda) topib olinib bu nuqtalar (A1B1S1D1) tomonlarni tiklash uchun qoziqlar er tagiga 30-40sm yoki erdan ozroq chiqarib qoqiladi. Bu nuqtalardan tajribanining asosiy chegara qozig`iga bo'lgan yo'nalishi va masofasi o'ta aniqliqda haritaga tushirilib vegetatsiya davri mobaynida saqlanadi va har qanday tasodifda tajriba chegaralarini topishda imkon berishi kerak.

#### Nazorat savollari:

1. Tajribanining aniqligini oshiruvchi omillar
2. Dala tajribasi necha etapda bajariladi va farqlari
3. Bir omilli tajriba deb qanday tajribaga aytildi
4. Tajriba usullarini aytинг va ular o'rtaqidagi farqlari?
5. Dala tajribasini o'tkazish uchun qanday asboblardan foydalilanildi?
6. Dala tajribalarida variantlar nechta bo'lishi kerak?
7. Variant bilan takrorlanishning farqi?

#### **4-MA`RUZA**

### **MAVZU: DALA TAJRIBALARIDA FENOLOGIK KUZATUVLAR VA TURLI HISOB-KITOBLAR**

**Reja:**

**4.1. Tajribalarda fenologik kuzatuvlarni rejalashtirish.**

**4.2. Kuzatuv aniqligiga erishish yo'llari.**

**4.3. Fenologik kuzatuvlar.**

**Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,8,9**

**Tayanch iboralar:** vegetatsiya davri, tajriba xatosi, fenologik kuzatuvlar, namuna maydonchalar, egatlar, uyalar, polosa yoki alohida o'simliklar, dala daftari

#### **4.1. Tajribalarda fenologik kuzatuvlarni rejalashtirish.**

Dala tajribalari o'simliklar rivojini kuzatish uchun vegetatsiya davrida bir va undan ko'p marotaba bulardan tashqari sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun kuzatuv ishlari olib borishni taqozo etadi.

Bundan tashqari tajribada nafaqat o'simlik rivojini balki tashqi muhit omillari va boshqa kutilmagan ta'sirlarni o'rganish ham bo'lishi mumkin. Bu tajriba o'z maqsadidan kelib chiqqan holda o'simlikning tashqi omillar ta'sirida rivojini o'rganish laboratoriya, dala yoki boshqa sharoitlarda (gidropnika) olib borilishi mumkin. Kuzatuv qaysi sharoitda bo'lislidan qat'iy nazar tadqiqotchi o'z oldiga (ishonchli tajriba natijalari olish uchun) quyidagi muamolarni echishni rejalashtirishi zarur:

- Qanday kuzatuvlar, tadqiqotlar, hisob-kitoblarni dasturga kiritishni.
- Kuzatuv va o'lchamlarni qaysi muddatlarda o'tkazishni.
- Tanlovlarning optimal miqdorini aniqlashni.
- Tanlov o'simliklarini doimo namunaviy rivojini ta'minlashni.

Tajriba o'tkazish amaliyotida tez-tez uchrab turadigan xatolardan biri, yani yosh tadqiqotchilar tomonidan tajriba uchun muhokamasiz, o'z imkoniyatini hisobga olmay va maqsadsiz tajriba kuzatuvi va hisob kitoblarning ortiqcha tadbirlarining kiritilishidir.

To'g'ri, imkoniyat bo'lsa kuzatadigan va o'lchanadigan ko'rsatkichlar o'simliklarda ko'proq bo'lgani yaxshi, lekin, asosiysi kengroq o'rganish kerak bo'lgan belgilarnigina tajriba kuzatuv rejasiga kiritilganligi va ular o'lhash belgilangan o'z muddatlarida amalga oshirilishi aniq natijalar garovidir. SHuning uchun ham dala tajribasi amaliyotida «maqsadli intilish» har qanday maqsadli va rejali kuzatuvning eng muhim talabidan biridir.

Kuzatuv va uni o'tkazish muddatlari o'simlik rivojlanish fazalarini hisobga olib va eng asosiysi, tajribada ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqqan vaqtida amalga oshiriladi. Agar o'simlik rivojini tajribada asosiy ko'rsatgich deb belgilangan bo'lsa, o'simlik rivojlanish davrini uning fazalarini hisobga olib ko'p yillik ma'lumotlardan kelib chiqqan holda uning kalender muddatlari belgilanadi. SHu tartibda tajriba variantlari orasidagi rivojlanish farqlarini aniqroq kuzatish mumkin. Bu albatta tadqiqotchining metodik yondashishini kuchaytirib, olingan natijalarga logik baho berish imkoniyatini ham oshiradi.

Ba'zi bir poliz ekinlari kuzatuvida kuzatuv ishlari ekin xususiyatiga bog'liq holda 1-2 hafta orasida o'tkazilishi ham rejalashtiriladi. Tajribada o'simlik turi o'zgarishi bilan kuzatuv 3 va 4 hafta oralig'iga o'zgarib borishi mumkin. Bu har bir o'simlik turi rivojlanish biologiyasi bilan bog'lanib vegetatsiya davrida kami bilan 4-5 kuzatuvni tashkil etishi shart. Bu erda, necha bor kuzatuv o'tkazilishidan katiy nazar o'rganilayotgan asosiy belgining vegetatsion o'zgarishlari, u vaqt (davrda) o'tishi bilan rivojlanish egrini funktsiyasini ifoda eta olsin. Kuzatuv va hisob-kitoblarni rejalashtirishda eng qiyin masalalardan biri tanlamlarning eng qulay (optimal) miqdorini o'rganishdir.

Statistik kuzatuv nuqtai nazaridan dala tajribalarida ikki stadiyali va uch stadiyali tanlamlar tavsiya etiladi. (Dospexov B.A.,1985)

#### **4.2. Kuzatuv aniqligiga erishish yo'llari.**

Dala tajribasi tanlamlar ajratishda o'ziga xos yo'lga ega. Paykal tajriba elementlari orasida dala tajribasining asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Har bir tajriba varianti uchun

takrorlanishlarda paykal ( $n_1$ ) malum bir aniq sonda takrorlanishlarga ega bo'ladi. O'rganilayotgan o'simlikning bir belgisini yoppasiga bir paykalda hisobini olishda masalan, hosildorligini belgilashda bu hisob-kitoblar malum bir xatoga ega bo'ladi. Bu xatolar standart chekhanishi  $S_1$  (otklonenie) deb tavsiflanadi. Bu kattalik albatta paykal xatosi bo'ladi. Paykallardagi o'rtacha xatosi bo'lsa, quyidagi tenglama bilan aniqlanadi.

Tashkil etilgan dala tajribalarida umumiy paykallarda hisob-kitobini bajarishda o'rta xato ko'rsatkichini kamaytirish uchun yolg`iz uslub-parallel paykallar sonini oshirish va ularning hammasida hisob olishni amalga oshirishdir. Ba`zi bir tajribalarda qo'llaniladigan paykal ichida drop olish usulida, takrorni ko'paytma  $n_1$ -ning ahamiyatini ortirolmaydi, oqibatda kuzatuv aniqligi kamayadi.

Agar bu paykallarda dala kuzatuvidan hisob olish uchun maydonchalar ajratilib o'simlik namunalari ajratilsa (yoki tuproqshunoslik tajribalarida tuproq namunalari olinsa) bu maydonchalar 2 chi darajali bo'laklarni hosil qilib, o'zlarini namuna olish xatosini  $S^2$  2 tashkil etadi. Bu erda o'rtacha xatoni hisoblash tenglamasi:

$$S_x = \sqrt{\frac{S_1^2}{n_1} + \frac{S_1}{n_1 n_2}}$$

Ikkinci darajali bo'lakchalardan, o'z navbatida o'simliklardan (yoki tuproqdan) tahlil uchun namunaviy o'simliklar (yoki tuproq namunasi) olinsa bular 3 chi darajali bo'lib, o'zlarining tahlili xatosiga  $S^2$  3 ega bo'ladilar. Uchinchi tanlovlardan o'rtacha xatosi:

$$S_x = \sqrt{\frac{S_1^2}{n_1} + \frac{S_1}{n_1 n_2} + \frac{S^3}{n_1 n_2 n_3}}$$

tenglama bilan aniqlanadi.

YUqoridagi statistika me`yorlarida o'tkaziladigan dala tajribalari tahlillarida  $S^2$  3 parallel tahlillar xatosi  $S^2$  1 va  $S^2$  2 paykallar o'rtacha xatosiga nisbatan odatda o'ta kam bo'ladi. SHuning uchun ham kuzatuvda namuna olish xatosini kamaytirish uchun Temiryazev nomli qishloq xo'jaligi akademiyasi olimlari tomonidan yuqorida tahlil qilingan uch stadiyali tanlam olish uslubiyati joriy etilgan. Bu usulga binoan paykallarda parallel paykallar sonini oshirish bilan namunaviy o'simliklar sonini oshirishga erishilib kuzatuv xatosini ancha kamaytirish imkonibor (albatta tajriba uslubiyati bunga yo'l qo'ysa) boshqa so'z bilan aytganda, rejada kuzatuv namunalarini ortishi, yani kuzatuv namunalarini sonini ( $n_1$ ) ikkinchi ( $n_2$ ) uchinchi ( $n_3$ ) ortishi bilan o'rtacha xatoni kamaytirish yo'li ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Agar dala tajribasidan olinayotgan biron-bir belgi natijasi muhim bo'lib u statistik baho berilishi shart bo'lsa, u holda hisob olishi hamma takrorlarda alohida namuna olish bilan rejalahtirilgani maqul. YUqoridagi parallel paykallardan olingan ashyolar alohida ishlov beriladi.

Bu erda izlanishlar faqat umumiy o'simliklar tavsifi uchun bo'lib, statistik natijalar bahosi kerak bo'lmasa, namunalar ko'paytirilib 1ta aralash o'simliklar namunasi hosil qilinadi. Namuna olish bo'lsa yangidan ikki uch takrorda amalga oshiriladi.

Ko'p omilli va ko'p sonli gradatsiyalarga ega bo'lsa rejalahtirilgan tajribalarda statistika tuzimi tahlili bir takrorning bir necha maydonchalaridan (bo'lakchalaridan) olingan kuzatuv hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha aytganda hamma variantlarning bir takrordan olingan tanlovlardan ko'rsatkich kattaliklari statistik tahlil asosi bo'lib xizmat qiladi. Tajriba kuzatuvini paykallashtirishda tajriba paykalining to'la tavsifini berish uchun tajribada o'simliklar namunasini olish optimal miqdorini o'rganilayotgan belgining tajriba joyidagi variatsiyalaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Temiryazev nomli qishloq xo'jalik akademiyasi malumotlariga asosan paykal maydoni 100-200m<sup>2</sup> ni tashkil etsa, namuna olish ham 6-8 tacha qisqartirish mumkin.

#### **4.3. Fenologik kuzatuvlar.**

Dehqonchilik sohasidagi hamma agrotexnik tadbirlar shunga qaratilgan bo'lishi zarurki, u ham bo'lsa o'simliklarni yaxshi rivojlantirib o'stirish, buning natijasida muayyan ekinlar o'stiriladigan hamma mintaqalarda hosilni turli xil ob-havo hamda tuproq shoroitida erta muddatlarda etishtirib, mo'l va sifatli hosil olishni ta`minlashdir. YA`ni agrotexnika usullari va

tadbirlarining mo'l hosil etishtirishiga ko'rsatadigan ta'sirlarinigina emas, balki o'simliklar hayotining turli davrlarida ularning avj olib usishiga beradigan ta'sirini ham bilish juda muhimdir.

O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi ustida kuzatish hamda hisobga olib borish ishlarini uyushtirish, hisobga olib borish uchun qanchalik o'simlik ko'prok olinsa, u yoki bu davrdagi o'sish fazasini yoki kuzatish sohasidagi boshqa elementlarini xarakterlovchi ma'lumotlar shunchalik aniq olinadi. Ammo, ko'pchilik hollarda paykallardagi hisobga olinadigan o'simlik miqdori ba'zi tashkiliy sabablarga ko'ra kam miqdorda olinadi. SHuning uchun hisobot va kuzatish ishlarining murakkabligi hamda shu bilan birga bu ishni o'tkazish uchun talab qilinadigan vaqtning kattakichikligiga qarab kuzatishda har turdag'i elementlar uchun o'simlik turli miqdorda olinadi.

Mana shu munosabat bilan har qaysi variantning hamma takrorlanishida o'simlik kamida quyidagi miqdorda olinishi kerak. Qator oralari ishlanadigan o'simliklarda.

a) SHonalashni, gullah, etilish sur'atini, konus bo'yicha meva hosil qilishini to'la ravishda hisobga olib borish uchun - 25 ta o'simlik.

b) Meva hosil qilishni umumiy hisoblash uchun - 50 ta o'simlik.

v) O'simlikni bo'yini o'lhash, barglar, shoxlarini hisobga olish, gullahni, etilganligini foizlarda hisoblash va boshqa kuzatishlar o'tkazish uchun kamida 100 ta o'simlik.

Hisobga olinadigan paykallarda hisobot va kuzatish ishlarini olib borish uchun uning 3-4 joyidan maxsus maydonchalar olinadi. Mana shu maydonchalar paykalning ko'ndalangiga hamma qatorlaridan yoki hech bo'limganda seyalkaning bir marta kirib-chiqish qatorlaridan ajratiladi. Har qaysi variant yuzasidan kuzatish hamda hisobot o'tkazgan vaqtda bu ishni bir vaqtning o'zida, bir kun ichida o'tkazmoq kerak. Ba'zi vaqlardagina kuzatuv ishini ikki kunga cho'zish uchun ruxsat beriladi. Ammo bunday holda shu talabga qat'iy rioya qilish kerakki, kuzatish o'tkazadigan birinchi kunda barcha variantlar bo'yicha bitta-ikkita takroriy kuzatish ishlari o'tkazish zarur. O'tkazilgan hamma kuzatashlar natijalari belgilangan formadagi *dala daftarlari* ga bir tekis qilib yozib borilishi kerak.

*O'simliklarni unib chiqishini hisobga olish.* Unib chiqishni aniqlash uch xil muddatda, ya`ni dastlabki unganda, ko'plab unib chiqqanda, batamom unib chiqqanda hisobga olish yaxshi natija beradi. Biroq maxsus tajriba o'tkazilganda bu kabi kuzatishlarini tez-tez o'tkazib turish ham mumkin.

*SHonalashni hisobga olish.* Olib boriladigan kuzatish natijalari tajribada o'r ganilayotgan variantda qancha o'simlik (foiz hisobida) shonalashga qaysi davrda kirganligani ko'rsatib berish zarur.

O'simlikning shonalashini kuzatish mahalida o'simlikdagi shonalash miqdorini emas, balki shu tekshirilgan kunda shonasi bo'lgan (shonasi bitta yoki ko'pligidan qatiy nazar) o'simlik tupi hisobga olinadi. YAqindan qaralganda shonasi ko'rinsa, shonasi bor deb hisobga olinadi. Ushbu kuzatuv tupida nuqsoni borligi ochiqdan-ochiq ko'riniib to'rgandan tashqari hamma o'simliklar hisobga olinadi.

*O'simliklar tupining bo'yini o'lhash.* Agrotexnik tajribalarda o'simlikning asosiy tupi qancha balandlikda ekanligi o'lhash tez-tez, ma'lum fursatlarda o'tkazib to'rilsa yaxshi natija beradi.

*O'simlikning gullahini hisobga olish.* O'tkazilgan kuzatish natijalari tajribadagi variantnivg ma'lum vaqt (kun) ga qadar necha foiz gullaganini (gullab bo'lgan o'simlik sonini) ko'rsatib borishi zarur. Ba'zi tajribalar uchun kuzatuv ishi 50-75% gullahgacha o'tkaziladi. O'simlikning gullahi ustida kuzatish olib borilgan vaqt (xuddi shonalash singari) gullagan o'simlik sonini emas, balki gullah davriga kirgan o'simliklar qayd etiladi.

*Hosil etilishini hisobga olish.* O'tkaziladigan tajribaning xususiyatiga qarab hosil etilishi 2-4 martagacha hisobga olinadi. G'o'zada bu jarayon ko'saklarning 10-15% ochilganda boshlanib, navbatdagi kuzatish har 3-5 kunda o'tkazilib boriladi.

*G'o'zaning gullah va etilshi sur'atini kuzatish.* G'o'zaning qanchalik tez etilishini xarakterlash uchun o'r ganilayotgan omillarga qarab gullah va etilish sur'ati kuzatilganda yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'linadi. Bu kabi ko'rsatkich g'o'zaning gullahidan boshlab to paxtani etilishiga qadar har qaysi davr orasida bosib o'tilgan qisqa vaqtdan iborat bo'ladi. Mana shu

ma`lumotni olish uchun gullah no`qtasining qanchalik balandda to`rganligi ma`lum muddat orasida, yaxshisi 20-25 kundan keyin ikki marta aniqlab chiqiladi: birinchi marta bilan ikkinchi marta aniqlash o`rtasidagi farq gullah sur`atini ko`rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Masalan: birinchi marta aniqlash vaqtida gullah nuqtasining balandligi 2-shoxda bo`ldi, 25 kundan keyin esa balandligi 10-hosil shoxiga etdi. SHunday qilib bular orasidagi tafovut 8 intervalga baravar bo`lib, gullahning 25 kunida 8 interval o`tganligini ko`rsatadi.

*O`simlik qalinligini hisobga olish.* O`simlikning qalinligini (bir gektar erdag'i o`simlik soni) hisobga olish ishi tajriba variantlarining hamma sohasida o`tkaziladi. Bu kabi ishlar ikki muddatda, dastlab vegetatsiya boshida, ikkinchi marta hosilni yig`ib terib olishdan oldin.

YUqoridagi kuzatuvlar va hisoblashlar paykalning hisobga olinadigan qismidagi qatorlarda bo`lgan o`simliklardan olinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Fenologik kuzatuv deganda nimani tushinasiz?
2. Ko`p omilli tajriba deb qanday tajribaga aytildi?
3. Tajriba variantlarining joylashtirish klassifikatsiyasi necha usulda bo`ladi?
4. Fenologik kuzatuvlarda nimalar aniqlanadi?
5. Qanday qilib tajriba aniqligiga erishish mumkin?

## **5-MA`RUZA**

### **MAVZU: DALA TAJRIBASINI JOYLASHTIRISH VA UNI AMALGA OSHIRISH.**

**Reja:**

- 5.1. Tajriba er uchastkasiga ishlov berish**
- 5.2. Tajriba er uchasikasiga o`g`it berish**
- 5.3. Tajriba variantlarini taftish qilish**
- 5.4. Tajriba variantlarini tiklash usullari**

**Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,8,9**

**Tayanch iboralar:** vegetatsiya davri, tajriba xatosi, fenologik kuzatuvlar, namuna maydonchalar, egatlar, uyalar, polosa yoki alohida o`simliklar, dala daftari

#### **5.1. Tajriba er uchastkasiga ishlov berish va ekish.**

Tajriba uchun ajratilgan uchastkada tuproqqa ishlov berish tajribada o`rganilishi kerak bo`lgan asosiy omillardan biri bo`lmasa u butun maydon bo`yicha bir xil, bir vaqtli va yuqori sifatli bo`lishi shart. Tajriba qo`yilgunga qadar kuzgi er ag`darish va ekin ekilguncha bo`lgan boshqa haydovlar har doim (har yili) tajribada qatnashadigan variantlarning takrorlari, bo`laklari (delyanka) uzunasiga ko`ndalang (yani perpendikulyar) yo`nalishda amalga oshirilishi shart. CHunki, dala tajribasi asoslari nazariyasida ishlov berish davridagi har qanday o`zgarish faqat bir variant yoki bo`lak uzunasi (yo`nalishida) chegarasiga tegishli bo`lishi tajribadan olingan natijalar xatosini oshiradi.

Bunday yuz berishi mumkin bo`lgan salbiy tasir hamma variantlar uchun ham bir xil kattalikda bo`lishi kerak. Bundan tashqari, tajriba erini ag`darish sifati bir yil mobaynida olinadigan miqdoriy ashyolar sifatiga o`zgartirib bo`lmas tasiri borligidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Er haydashni amalga oshirish chog`ida razval va svalning almashinushi hech qachon tajriba uchastkasida qilmaslik kerak. SHu bilan birga borona tozalash, iloji yo`q holatda, himoya yoki yo`laklarda bajarilishiga ruxsat etiladi.

Agarda tajriba uchun ajratilgan er uchastkasi juda kichik erda bo`lsa (maxsus tajribalar) tajriba dasturiga er haydash aylanma plug yordamida amalga oshirilishi kiritilishi kerak. Iloji bo`limgan holatda traktor faqat bir tomonga haydash va orqaga plugni ko`tarib yurib kelishni nazorat qilib turishi zarur.

Tajriba ashyosi bilan amalga oshiriladigan birinchi dala ishi o`simlik urug`ini erga (tajriba uchastkasiga) ekishdir. U tajriba dasturida ko`rsatilgan talablarda amalga oshirilishi tajribadan ko`zda utilayotgan miqdoriy ashyolar natijalari ishonchligini oshiradi.

SHuning uchun ham dasturda qayd qilib o'tilgan uyalar soni va o'simlik soni amalda chigit to'qligi va unuvchanlik malumotlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilib, dastur talabidagi ko'chat qalinligiga erishish kerak.

Eng asosiy va masuliyatlidagi davr, ekishning bir vaqtida qisqa muddatda amalga oshirilishi. CHunki, kunlar farqi emas, hatto soatlar farqi xam ekishda tajriba xatosini oshirib yuboradi. Masalan, tajribadan bahorgi don ekinlari ekishi bir variantdan boshqa bir variantga o'tish farqi 4-6 soat bo'lganda tajribadagi olingan hosil farqini variantlarda 4-6ts ga oshirgan (Dik, 1974).

Ekish chuhurligi bir xil bo'lisci qat'yan nazorat ostida bo'lisci shart. Ekish malum bir texnik vositasida amalga oshirilsa, har bir qatori uchun bir kishi javobgar etilib, har bir bo'lak tugashi bilan seyalka qutisi chigit (urug') lardan tozalanib yangi chigit bilan to'ldirilishi shart. Traktorda ekishni boshlash va uni tugatish har doim himoya yoki yo'lak maydoni hisobiga amalga oshirilishi kerak.

### **5.2. Tajriba er uchastkasiga o'g'it berish.**

Tajribada o'simliklarni o'g'itlash o'z vaqtida olingan malumotlar ishonchligiga katta tasiri bor. Uning amalga oshirilishi ham dastur talabi asosida bajarilishi lozim. Organik va mineral o'g'itlar tajribaga ikki muddatda: o'tish omillaridan bireni sifatida yoki umumiyligida agrotexnik fon yaratish uchun belgilanadi. O'g'itlarni erga solishda qaysi uslubiyatdan foydalanishidan qatiy nazar o'tish uchastkasining har bir uzoq nuqtalariga bir xil qalinlikda tushishini taminlash lozim. Nazorat ashyolarining ko'rsatishicha, organik o'g'itlardan go'ng, torf, kompostlar umumiyligida miqdorida bir xil namlik, bir xil tarqalish va bir xil tartibda bo'lisci kerak. Aks holda malumotlarning ishonchsizligini oshiradi.

O'g'itlarni, odatda hektariga tonnalarda, variantlar bo'laklari va traktorlarga kg, o'simliklarga grammada to'g'ri taqsimlanishini taminlashga harakat qilinadi.

Ko'p hollarda yuz beradigan, go'ngni qishda transportlarda olib kelib dalaga to'kib ketilishi paykallarda ishlov berish traktorlar chegarasini hisoblab 16(4x4), 25(5x5), va 36(6x6)m<sup>2</sup> larda maydonchalarga qoziqlar bilan belgilanib bir burchagiga to'kiladi. Bir kun ichida tajribaning hamma maydonlaridagi go'ng hamma joyga bir xilda taqsimlanib sochilib chiqiladi. Go'ng va boshqa turli o'g'it xillarini dalada bir kundan ko'p muxlatga qoldirmaslik kerak. Texnika yordamida amalga oshiriladigan o'g'itlash usuli 1000m<sup>2</sup> va undan kattaroq maydon uchun mo'ljallangan. Kichik tajribalar uchun (200m<sup>2</sup>) esa bu usul to'g'ri kelmaydi. Bu holatda o'g'it egatlarga to'kilib kichik tarozilaridan ham foydalanib taqsimlanishi katta uslubiy ahamiyatga ega. Bu usulning optimalligi shundan iboratki, o'g'it sepilishidan oldin elaklanadi. Tosh va boshqa aralashmalardan bir yo'la tozalanib sepilish tengligini oshiradi.

### **5.3.Tajriba variantlarini taftish qilish.**

Dala tajribasi quyidagi holatlardan birontasi sodir bo'lganda taftish qilinadi:

- *tabiiy-fizik hodisalar sodir bo'lib, stixiyali voqealarda o'simliklar nobud bo'lsa, qolgan o'simliklardan olingan sonlar boshqa takrorlardan kuchli farqlansa, tajribaning asosiy variantlari va ularning bo'lakchalarini taftish qilinadi,*
- *hayvonlar tomonidan o'simlik o'suv nuqtalari eb qo'yilsa, qushlar tomonidan boshoqlar zarari meyoridan ortib ketsa, yoki kemiruvchilar tasirida o'simliklar soni kamayib ketsa,*
- *tajriba variantlari ekilish vaqtida bo'lakchalar adashtirib yuborilsa taxmin qilinayotgan bo'laklar butunlay taftish qilinadi.*

O'simlik sonining kamayishi natijasida bo'laklar maydonining qisqarishi 50% gacha ruxsat etiladi. Agarda bu kattalik ortib ketsa, bu bo'lak ham taftish qilinadi. SHunday holatlarga qaramay bo'laklarni taftish qilish yo'li qo'yib bo'lmaydigan xatolardan biri. CHunki, bir bo'lakchani taftish qilish variantlar bo'laklar takrori orasidagi tenglashtirish balansini buzib yuboradi. SHu sababdan xam tajriba maydonida bazi bir taftish qilingan bo'lakchalar maxsus statistik usullar yordamida tiklanadi.

Har qanday xolatda taftish qilinishdan qaytishga harakat qilish kerak. Ayniqsa hosil yig'ib olingandan so'ng. CHunki, bu holatda hosil kam chiqishi yoki ortib ketishi boshqa bazi bir yordamchi uslublar yordamida to'g'rilanishi mumkin, ammo uni taftish qilinsa, tiklash logik fikr doirasida olingan hosil tafsilotini to'liq bermaydi.

### **5.4.Tajriba variantlarini tiklash usullari.**

Tajriba o'tkazish amaliyotida bazi bir malumotlar (har qaysi kuzatuv davrida), va bo'laklardagi o'simliklar soni etishmay qolgan hollarda va butun bir takror bo'lak taftish qilinganda uni tiklash muammolari paydo bo'ladi.

G'o'za ekini bilan bog`liq bo'lган tajribalarda tez-tez o'simliklar sonining (tajriba yoki himoya variantlarida) etishmay qolgan holati yuz beradi. Bunday paytlarda bo'sh qolgan erlarning qo'shni o'simliklar rivojiga tasirini o'rganish katta metodologik ahamiyatga ega. G'o'zadan boshqa o'simliklar, kartoshka va qand lavlagi o'rganilganda shu narsa malum bo'ldiki, pishish fazasidan ancha oldingi fiziologik davrida yo'qolgan o'simliklar joyi ham qo'shni o'simliklarga katta tasir qilar ekan. Bu tasir yuqoridagi o'simlik turlarida qo'shni o'simliklar hosildorligini 20-50% gacha oshirgan. SHuning uchun ham bu tasirini qo'shni o'simliklardan izolyatsiya qilish uchun maxsus statistik ishlovdan foydalaniladi. Bunday amaldan tajriba yakunida foydalanish uchun birinchidan, o'simliklarning yo'qolishi o'rganilayotgan tajriba omili tasiri oqibatida bo'lmasligi kerak. Ikkinchidan, har bir bo'lakchalardagi yo'qolgan o'simliklar soni bo'lakchadagi umumiyoq o'simliklar sonining 20% dan oshmasligi kerak. Bundan ko'p, yani yo'qolgan o'simliklar soni bo'lakcha umumiyoq sonining 20% dan ko'p sonini tashkil etsa, u holda bo'lakcha butunlay taftish kilib tashlanadi. Agarda o'simlikka ta`siri butunlay o'rganilmaydi. Bunday uslubiyatlardan bir nechta ishlab chiqilgan bo'lib, har bir tajriba uchun tajribada o'rganilayotgan o'simlik turiga qarab eng qo'l kelgani ishlatiladi.

Ulardan birida hosil oldidan bo'sh qolgan joylar u erda bo'lishi kerak bo'lган uyalar soniga ko'paytirib hisoblanadi va bu erga qo'shni o'simliklar bo'lib tashlanadi. Agarda hosil pishishi fazasining o'zidayoq o'simlik yo'qolgan bo'lsa, o'simlik yulib tashalanadi, chunki bu bo'sh erlar etilgan o'simlikka ta`sir ko'rsatib ulgurmagan bo'ladi.

Bu usulda haqiqiy bo'sh qolgan er quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:  $S = (P - H)\ddot{I}$ ,  $\ddot{I} = \frac{A}{R}$ . D - áó åðääà ð - áúëæåäæ uñëiliklar soni, N - etishmagan(yo'qolgan) o'simliklar soni, P -bir o'simlikning oziq maydoni, m<sup>2</sup>. Bo'laklarda bir xil holatda o'simliklar yo'qolgan bo'lsa, ulardan qolgan bo'sh erlar qo'shni o'simliklar tomonidan teng holatda foydalaniladi deb katta e'tibor berilmaydi. Bu ta`sir yuqori hosil bilan kompensatsiyalanadi, bunday holda yo'qolgan o'simliklar sonini ta`siri teng e'tiborga olinadi. Tenglashtirish uchun olingan hosil ashyolari, o'rtacha tajriba ko'rsatkichi va ko'chat qalinligi kuyidagi tenglama bilan hisoblanadi:

$$A P$$

$$Y = \frac{A P}{P - \frac{1}{2}H}$$

Bu erda A -bo'lakchadan olingan haqiqiy hosil;

R -bo'lakchadagi hisoblangan o'simlik soni;

N -yo'qolgan o'simliklar soni.

Boshqa bir yordamchi tenglama yordamida haqiqiy hosil hisobdagagi o'simlik soniga quyidagicha keltiriladi:

$$A + R_x$$

$$Y = \frac{A + R_x}{2}$$

Bu erda A -bo'lakchadan olingan haqiqiy hosil;

R -bo'lakchadagi o'simliklar soni;

X -bitta o'simlikning haqiqiy o'rtacha massasi.

Umuman olganda tajribaning ishonchli yakunini tiklash yoki to'g'rakash yo'li bilan emas, balki normada o'tkazilgan tajribadan olingan hosil ashyolari beradi. SHuning uchun ham bu misolda eksperimentator (tadqiqotchi) o'rganilayotgan omil ta`siri natijasi bo'limgan holda o'simlik yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak edi.

### **Nazorat savollari:**

1. Qanday qilib tajriba aniqligiga erishish mumkin?
2. Qanday holatlarda tajribalar taftish qilinadi?

## 6-MA`RUZA

### MAVZU: SHO'RLANGAN ERLARDA DALA TAJRIBALARI VA TADQIQOTLAR O'TKAZISH XUSUSIYATLARI

SHo'rlangan erlar bir-birlaridan tuzlangan er osti suvlar sathi, sizob yuza yoki chuqur joylashganligi, tuproqlarning sho'rlanganlik darajasi bo'yicha xilma-xilligi, kollektor yig'ma zabur shaxobchasi mavjudligiga ko'ra farklanadi. SHu bois bunday erlarda dala tajribalari o'tkazish uslubiga qatiy rionda qilinishi talab etiladi.

SHo'rlangan erlarda o'tkaziladigan dala tajribalaridan qiyosiy natijalar olishga erishish uchun barcha variantlar dastlabki sho'rlanish bo'yicha bir-biriga yaqin, bir xil zaxob sathi va shurlanganligi, kollektor - zakbur va sug`orish tarmoqlarining bir xil ta'sir doirasida bo'lishi zarur.

Tajriba uchun paykal tanlash albatta, kuzda (sentyabr-oktyabr oylarida) amalga oshiriladi, chunki zirotlar holati (agar tajribalar o'zlashtirilgan erlarda qo'yilayotgan bo'lsa) yoki tabiiy usimliklar tarkibi va holati bo'yicha (agar tajriba yangi uzlashtirilgan erlarda o'tkazilishi mo'ljallansa) tuproq sho'rlanish darajasi va bir tekisligi to'g'risida xulosa-tahlillar asos kilib olinishi kerak.

Agroteknik tajribalarga barcha variantlar bo'yicha tuzlar tarkibi bir xil bo'lган er tanlanib, kuzda bu joyda usimliklar holati va sho'rlanish domari bo'yicha sho'rlanish xaritanomasi tuzilishi zarur/ :

Xaritanoma asosida tuproq va sizob namunalari olinadi, turli darajadagi sho'rlanish anikdanadi va usimliklar . holatiga qarab, sho'r yuvish me`yorlari belgilanadi. Bu paykaldagi tuproq shurlanganligi taxminan birdek bo'lismiga imkon beradi.

Kuzda tajriba dalasida zaxob satxini o'lchash kuduqlari va suv sarfini o'lchash uchun o'lchagichlar o'rnatiladi.

Variantlarni shunday joylashtirish kerakki, yigma-eakbur-kollektor-zakbur va suv tarmoqlarining ularga tasiri baravar va barchasida er osti suvi—sizob satxi taxminan birdek bo'lsin.

Tajriba dalasi zakbur yoki kollektor bilan cheklangan va bu zakbur yoki kollektordan ma'lum masofada parallel ariq o'tgan bo'lsa, u holda variantlar uzun tomoni bilan perpendikulyar yo'nalishda joylashtirilishi va variantlar boshi-oxirining zovur yoki arikdan uzokligi yozib qo'yilishi hamda ularga doimiy qoziqlar qoqilgan bo'lishi lozim.

Tajriba variantlari o'lchami o'rganilayotgan omillarga bog`liq.

Tajriba dasturi bo'yicha amal. va noamal davrlarida sugarish tartibi barcha variantlarda bir xil bo'lsa, variantlar o'lchami xuddi sizob satxi chukur, sho'rlanmagan tuproklardagidek bo'ladi.

Sugarish tartibi, sho'r yuvish muddati va me`yorlari urganiladigan tajribalarda har bir variantga berilgan suv tajriba paykalida sizob satxini ko'taradi. SHuning uchun sho'r yuvish muddatlari uchun 0,5 ga, • sugarish tartibi va sho'r yuvish me`yori urganiladigan variantlar maydoni 0,25 ga bo'lishi kerak. Varnantnint hisobli qismi markaziy qismning 0,1 ga maydonidan kam bo'lmasligi zarur.

Tajriba variantlari takrorlanishi 4 marta.

Sizob satxi chuqurroq (2-Zm) bo'lganda variant maydoni 0,1 gacha kamaytirilishi mumkin. SHo'rlanish har- xil bo'lganda tajriba variantlari takrorlanishi 6 va 8 martani tashkil etadi, ba`zi hollarda juftlangan nazorat variantlari kiritiladi.

Kuzatuv va hisob-kitoblar tajribada dastur asosida kuyilgan vazifalarga bog`liq x.olda bo'lishi kerak. Ammo sho'rlangan erlarda o'tkazilishi shart bo'lган barcha dala tajribalarida kanday meliorativ fonda o'tkazilishidan qatiy nazar tadkiqotlar tarkibi aniq, ular shuningdek, o'rnatilayotgan omillarning erlar meliorativ, holati va zirotlar hosildorligiga ta`sirini belgilash imkonini beradi.

SHo'rlangan erlarda sho'r yuvish va sug`orishga ketgan suv sarfi hisoblanishi shart. SHo'r yuvish, shudgorlash muddatlari, chukurligi va texnologiyasi, qator oralariga ishlov berish, unumidorligi turlicha fonlarni haydash, shuningdek, o'gitlarning turli meyorlari bilan o'tkaeiladigan tajribalarda suv hisobi variantlar bo'yicha alohida olib boriladi.

Tajriba paykalini tavsiflash uchun tuproq tip i ko'rsatiladi, aeratsiya qatlami, mexanik va mikroagregat tarkibi, cheklangan dala nam sigami, zaxob yuza va chuqur bulganda, tuproqning xajm va solishtirma og'irligi, suv o'tkazuvchanligi va g'ovakligi aniklanadi.

Tajriba o'tkazish dasturlariga zaxob- sathi, tuproqning sho'rланish tartibi va namlipshi kuzatish kabilar kiritilishi shart. Kuzatishlar hajmi qo'yilgan vazifalarga bog`liqdir.

Sizov sathi tartibiyi o'rganish bo'yicha kuzatishlar sizob eng chuqur bo'lganidan yana 1 m. chuqurroq kavlangan kuzatuv quduqpari orqali amalga oshiriladi.

Agrotexnik tajribalarda uning markaziga o'rnatilgan bitta kuzatuv qudug'i bo'iicha sugarish davrida xar 5, sug`orilmaydigan davrda xar 10 kunda zaxob sathi o'lchanishi lozim.

SHur yuvish va amal davri sug`orishlari tartibini o'rganishda zaxob sathi kontrast variantlarida o'lchangani ma`qul. Kuzatuvlar sug`orishdan avval, suvdan keyin 10 kun davomida xar kuni, suv qo'yish tuga ganda, so'ngra har 5 kunda, sug`orilmaydigan davrda xar 10 kunda olib boriladi. Namlid uchun tuproq namunalari olinib, berilgan suv meyorlari tuproq qatlaming kaysi gorizontigacha namliqgirgani kuzatilada.

Melioratsiya yo'nalishida utkazilgan tajribalarda sizob sathidan tuproq kalillyarlaridan namlikning kutarilish balandligi anikdanishi zarur.

Tuproh sho'ranganligi va namligi doimiy belgilab qo'yilgan nuqqalar bo'yicha aniklanadi, nuktalar joylashish tarxi (plan) ga tushiriladi. Tuproq namunalari xar gal avvalgisidan. 1-2 m. uzoqdikda olinishi kerak, burg`ulangan chukur atrofidagi o'simliklar bir xil rivojlangan bo'lgani ma`qul. Quduqni bir gal maromida rivojlangan o'simliklar orasida, boshkasida nochor rivojlanganlari orasida joylashtirish nojoiz.

Namunalar har variantda 3 ta nuktadan olinadi. Tuproq sho'rланishini ziroatlar o'sishi, rivojlanishi va hosili bilan boglanishini belgilash maqsadida shunday qilinadi. YAngi o'zlashtirilgan, sho'rланishi turlicha bo'lgan erlarda namunalar olnish takrorlanishi xar variantda S martadan bo'lishi kerak.

Har bir namuna olinadigan nuktaga qoqilgan qozikdarga rakam qo'yilib, bu dala tajribasi tizimining sxematik rejasida belgilanadi va tajriba oxirigacha saklanishi zarur.

SHo'rланish xilma-xilligi mavjud bo'lganda o'simliklar rivojlanishi xar fon (maromida, kam sho'rangan, o'rtacha xamda kuchli sho'rangan maydonlardagi tasir o'rganiladi) nazoratida alohida quduq bilan belgilanadi.

Tuproq namunalari g'o'za va chopiktalab boshka ziroatlar egati ichidan olinadi. Turli sugarish usullari (egatlab va yomgirlatib) qiyoslanayotganda sho'rланish va namlik uchun tuproq namunalari xam pushtadan, xam egatdan olinadi, chunki namlikning turlicha taqsimlanishi sho'rланish pushtada va egat orasida xar xil bo'lishiga olib keladi.

Mexanik tarkibi bir xil bo'lgakda yoki chuhurlashgan sari sekin-asta o'zgarib bor ganda namunalar xar 10 sm. dan 40 sm. chuqurlikkacha, so'ngra xar 20 sm. dan, tuproq keskin qatlamlı bo'lganda xar 10 sm. dan olinadi. Ikki holatda xam tuproq zaxob satxigacha olinadi.

Burg`ulanib olingan tuproq stakanda qog`oz ustiga tushirilib, unga tajriba nomi, variant, takrorlanish, nukta rakami, qatlam chuqurligi va sana yozilgan yorliq solinadi, namuna qog`ozga o'ralib, ustiga xam yorlikdagi yozuvlar odtsiy qora kdlam bilan yoziladi.

Tuproknинг pastki katlamlaridan olingan namunalar namligi yuqori bo'lганligi uchun quduq enida biroz nami qochguncha qoldirilib, so'ngra o'rab qo'yiladi.

SHo'rланish darajasi bir xil bo'lgan va sho'rsizlantirilgan fonlarda joylashgai agrotexnik tajribalarda namunalar nihollar ko'ringanda bahorda va kuzda (aprel va oktyabr) olinadi. SHo'rланish bir te kis bo'lmaganda uning darajasi aniklanadi va sho'rланishning o'simliklarga ta'siri ko'zga tashlanganda, ya`ni birinchi suvdan oldin xam namunalar olinadi.

Tuz tarkibi va namlik:

sho'r yuvish bo'yicha tajribalarda har bir sho'r yuvishdan avval va keyin, nihollar ko'ringanda, birinchi amal suvidan oldin va oxirgi suvdan keyin va kuzda;

turli muddatlarda sho'r yuviladigan tajribalarda barcha variantlarda bir vaktda,

- sug`orishning tuproq, suv va tuzlanish tartibiga ta`siri o'rganiladigan tajribalarda nihollar ko'ringanda, har bir amal suvidan avval, so'ng va amal davri oxirida aniqlanadi.

Namunalar bahorda birinchi suvdan avval va oxirgi suvdan keyin, kuzda zaxob sathigacha, boshqa muddatlarda I0O sm. chuqurlikkacha olinadi.

Tuproq va zaxobning bahor va kuzda olingen namunalarida tulroq eritmasi to'liqtaxlil qdoinadi. Meliorativ tajribalarda ham to'liqtahlit amalgalashiriladi.

Tuproq namunalari uchun burg`ulangan quduqchalardan zaxob namunasi olinadi, suv olish qiyin bo'lganda kuduqqqa quvur tushurilib, namuna olinadi.

Zaxob sho'ranganligi sho'r yuvish o'rganiladigan tajribalarda yuvishdan avval va keyin, sutorishning meliorativ ahamiyati o'rganiladigan tajribada amal suvigacha va

undan keyin aniqlanadi. Bunda quruq qoldiq NSO3, CL, SO4 , M#, Sa, va Na, K alangali fotometrda taHlil qilinadi, sho'r yuvishlarda nitratlar va harakatchan fosfor mikdori aniklanadi.

Sug`orishda turli darajada sho'rangan suv ishlatilganda uning tarkibida kuruq

qoldiq, NSO3, CL, S04, Sa, M# va Na, K alangali fotometrda, nitratlar, xarakatchan fosfor qar suvda yoki sho'r yuvishda taxlil etiladi.

SHo'r yuvish bo'yicha, shuningdek, o'zlashtiruvchi ziroatlarning melioratsiyalashtiruvchiligi va amal davri suvlari o'ganilayotganda dare suvining sho'ranganligi taxdil etiladi.

Fenologii kuzatuvlarni tuproq sho'rланishi bilan bog`lash zarur. SHuning uchun tuproq namunalari olinadigan quduqchalarga yaqik joyda kuzatuv maydonchalari bo'lishi kerak.

SHo'rланish har xil, g'o'za siyrak bo'lgan hollarda kuzatuv maydonchalari fondagi o'simliklar holatini to'liq tavsiflay olishi zarur ( maromida o'sgan, g'o'zaga sho'rланish oz, o'rtacha va kuchli ta`sir qilgan).

Fondagi kuzatuv maydonchalari soni variantdagi har bir sho'rланish foni maydoniga mutanosib bo'lishi kerak. Masalan, agar maromida o'sgan g'o'za hamma maydonning 60%ini tashkil etsa, unda 10 maydondan b tasi maromida o'egan g'o'za fonida, 3 tasi sho'rланish kuchsiz va 1 tasi kuchli ta`sir qilgan fonda joylashtiriladi. Bunda sho'rланish bo'yicha har bir fon alohida namuna olish nuktasiga ega bo'lishi kerak.

Hosil yig`imi qar bir fon bo'yicha 20-50 m<sup>2</sup> li maydonchalarda boshlanib, so'ng variantning jami hisobli maydoniga o'tiladi. Bunda o'simiksiz maydonchalar hisobdan chiqariladi.

Meliorativ tajribalarda etishtirilgan o'simliklarda tuzlar tarkibi va chigit sifati, donli va em-xashak ziroatlari mahsuloti sifati aniklanadi.

## 7-MA`RUZA

### MAVZU: O`G`ITLAR BILAN BAJARILADIGAN TAJRIBALAR

Dala tajribalarini joylashtirish m yuritish. Variantlar soni g`o`zani o`g`itlash bo`yicha ko`yiladigan tajribalarda 8—10 tadan, ishlab-chiqarish sharoitida (xo`jaliklarda)gi tajribalarda 3 tadan oshmasligi kerak. Kichik maydonli (delyankali) va majmuuy (ko`p omilli) tajribalarda variantlar soni 15—20 tagacha etkazilishi mumkin, ammo bunda tajriba paykali barcha agrotexnik ishlarni birdaniga bajarish imkonini berishi kerak.

Ko`p variantli tajribada nazorat varianti soni oshirilishi darkor: xar 8 variantdan so`ng nazorat varianti bo`lishi kerax.

4 takrorlanishdagi 5 tadan 8 tagacha varianti bo`lgan tajribada variaktlar maydoni 100 dan 500 m<sup>2</sup> gacha bo`lishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoitda o`tkaziladigan tajribalar variantlari kattaligi 0,1 gektardan I gektargacha bo`lib, umumiyl maydoni 5-6 ga dan oshmasligi kerak.

Kichik maydonli va ayniqsa, majmuuy tajribalarda variantlar o`lchami 60-100 m<sup>2</sup> bo`lishi, ularda barcha agrotexnik tadbirlarni mexanizmlar yordamida bajarish ko`zda tutilishi zarur. Variantlar kengligi traktor seyalkasining ikki kirishi mumkin bo`lgan kengliqdan kam bo`lmasligi kerak. Kichik maydonli majmuuy tajribalarda ularning takrorlanishi 6 ta va undan ham ko`proq bulishi, aksincha, ishlab chikarish tajribalarida 3 tagacha kamaytirilgani ma`qul.

Ishlab chikarish tajribalaridan tashkari hamma tajribalarda mutlaq nazorat, ya`ni o`g`it solinmagan variant va shuningdek, o`rganilayotgan omil uchun ham nazorat ko`zda tutilishi zarur. Ba`zi hollarda ishlab chiqarish maydonarida ham o`g`itlanmagan nazorat bo`lgani ma`qul.

Tajriba qo`yishdan avval, tajriba paykalining 15-20 nuktasidagi haydov va ostki katlamdan tuproq namunalari barcha takrorlanishlar bo`yicha olinadi. Buning uchun paykal tajriba takrorlanishlariga ajratilib, har biridan diagonal bo`yicha chapdan o`ngta qarab namunalar aniq masofalar oralatib, shunday olinadiki, ularning soni variantlar soniga to`g`ri keladigan bo`lsin. Ushbu namunalarda chirindi, asosiy ozika unsurlarining (N, R, K) yalpi mikdori, ularning harakatchan shakllari -nitratlar, ammiak, xarakatchan PjOf va almashinuvchi KgO taxlil etiladi. Bu tahlillar paykal tuprog`ining xilma-xilligini belgilaydi, keskin xilma-xillik kuzatilsa, tajribani joylashtirib bo`lmaydi. Unsurlar tarkibi kuyidagicha bo`lganda tajriba dalasini tanlash mumkin: chirindi 0,95 dan 1,05% gacha, hyarakatchan fosfor 20 dan 25 mg/kg gacha, almashinuvchi kaliy 200 dan 250 mg/kg orasida bo`lganda fosforning 70, kaliy o`g`itining 50 %i asosiy haydov oldidan, sho`ri yuvelmaydigan ba`zi erlarda azotning 20-25 %i shu paytda, qrlgani esa go`za 3-4 chinbang chiqarganda, shonalash paytida, fosfor va kaliy gullash boshlaganda solinadi.

Dala tajribalarida va variantlar tartibi ustidan kuzatuvlar yo`lga qo`yilib, namunalar o`simpliklar o`sishi va rivojtanishi davrlariga moslashtirilishi zarur: ekish, 2-4 chinbarglar, shonalash, gullahning boshlanishi, gullah - meva tugish, ko`sak ochila boshlashida.

Harakatchan oziqa unsurlari tartibi tajriba maksadiga kura, turli chukurlikda aniklanadi. Ko`pchilik tadqiqotlarda u xaydov va xaydov osti qatlamida taxlil qilish bilan chegaralanishi, tuproq namunalarini olish uslubi turlicha bo`lishi mumkin. Bunda «Metodы agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnyx xlopkovyx rayonax» (1963 y.) va «Metodы agroximicheskix analizov pochvy i rasteniy v Sredney Azii» (1977 y.) qo`llanmalaridan foydalanish kerak. Ko`p yillik tajribalarda dastlabki tuproq namunalari ikki takrorlanishning barcha variantlaridan olinadi.

Barcha tajribalarda (o`g`it turlarining samaradorligini o`rganishga bagishlangan tajribalardan tashkari) tegishli tuman va xo`jaliklarni ta`minlash uchun keltirilgan o`g`itlar ishlatiladi.

O`g`itlarni solish muddatlari va usullari o`rganiladigan tajribalardan boshkasida o`g`itlar chigit ekish paytida urugdan 5—7 sm. yon tomonga va 12-15 sm. chuqurlikka, g`o`zaning 3-4 chin bargli davrida o`simplikdan 15-18 sm. yonga va 12-14 sm. chukurlikka, shonalashda 20—22 sm. yonga va 12-14 sm chuqurlikka hamda gullah boshlanganda 60 sm. li kator oralig`ining o`rtasiga egat tubidan 4-5 sm. chukurlikka va 90 sm. egat oraliqlarida 30-35 sm. yonga, egat tubidan 4-5 sm. chukurlikka solinadi.

O'g`itlarni qo'llash me`yorlari o'rganilayotgan tajribalardan boshkasida yillik me`yorlari N-200, R2O5-NO, K2O-IOO kg/ga (o'rta tolali g'o'zalarda) va N-250, P2O5-I75, KjO-125 kg/ga (ingichka tolali g'o'zalarda) qilib belgilanadi.

Kundalik daftarlari, dala jurnallari va ilmiy xjobotlarda o'g`itlarning turi va markalari ko'rsatiladi: ammiakli selitra (N-34%); ammoniy sulfati (N-20-21%); mochevina (N-46%); oddiy superfosfat (R2O5 19-20%); ikkilamchi superfosfat (R2O5 23-28%); ammoniy superfosfat (R2O5 14 15%, N 1,5-2,0%); fosforit (65%), kumir (30%) va ammoniy sulfat (5%) aralashmasidan taysrlangan organo-minsral o'git

(3,15%, umumiy fosfor, 1,47% N); kaliy xlorid (K2O 54-60%), kaliy tu>i (K2O-40%), ammofos (N 12%, R2O5-46%), nitrofos (N 23,5-24,0%, RgO, 14-17%) va boshkalar.

Tajribalarda o'g`itlar ma'lum me`yorga sozlangan mexanizmlar - kultivator -o'g`itlagichlar yordamida solinadi. SHu maqsadda bunkerlar zarur uigitlar bilan to'ldiriladi. Quyidagi ma'lumotlardan o'g`itlagichlarni ma'lum me`yorga sozlash uchun g'o'zani ama.1 davrida foydalanish mumkin.

«KXU-2,4» to'rt qatorli o'g`itlagich 60x30-2, 60x15-1, 60x24-1, 60x20-2, 60x10-1 ekish tizimida o'g`it sepishining sozlash ko'rsatkichlari qo'yidagicha: agregat kamrov kengligi 2,4 m/ga, agregat yo'linint uzunligi 4,166 m/ga, po'lat g`iddirakning aylanish doirasi 3,6 m, pnevmatik g`ildirakniki - 3,93 m, po'lat gildirakning 1/100 ga dagi aylanish soni - 11,5. pnevmatikniki - 10,6, o'g`itlagich to'kuvchi apparat po'lat g`ildiragining 1/100 ga dagi aylanish soni — 15,5, pnevmatikniki — 14,3.

O'g`itlagichni ma'lum me`yorga sozlash traktor gildiragiii aylantirish bilan amalgalashiriladi. Buning uchun traktorning o'ng tomoni domkrat bilan ko'tariladi. Sozlashda yumshoq er tanlab olinib, traktor yurgiziladi. SHunda soshnikka qopcha (xaltacha)lar boglab, tuko'tkazgichdan tushayotgan o'g`it yig`ib olinadi. So'ngra traktor g`ildiragi ma'lum tezlikda aylantiriladi. Buning uchun gildirakka belgi qo'yiladi.

Har bir qopchadagi uigit alohida tortilib, og`irligiga qarab, xar qaysi soshnikning to'kuvchi apparati sozlanadi. Eng chetdagi bir egatdan ikki marta o'tadigan chap yoki o'ng soshnik apparati yarim me`yorga sozlanadi.

Sepish me`yorini hisoblash uchun g`ildirak chambaragining aylanish sonini bilish zarur. Odatta, har bir soshnikning sepish rovonligini aniklash uchun g`ildirak chambaragi 10 marta aylangani etarlidir.

To'kish apparatini sozlash uchun traktorni yurgizish yoki g`ildiragini ko'tarib aylantirish bir necha marta takrorlanadi. Bunda har gal qopchalardagi o'g`itlar tortiladi Agar xar bir soshnik bo'yicha o'lchanan o'g`itlar o'rtacha mikdori va chetki soshnikniki yarim me`yordan 5% farq qilsa, to'kish apparati sozlangan xisoblanadi

O'g`itlagichni to'kish me`yoriga qo'yish uchun sepish apparati valigini aylantirishning o'zi etarli. Buning uchun traktorni yurgizishda ishlatiladigan dastakka o'xshash moslama tayyorlash va apparatning valigiga shtift o'rnatish zarur.

O'git sepish. apparati ekish me`yoriga sozlangandan keyin kultivator va egat olgichning barcha ishchi organlarini zarur chukurlikka moslashga to'g'ri keladi.

O'g`ig ms`yorlarini tuklarda hisoblashda 13.1-jadval ma'lumotlaridan foydalansa bo'ladi.  
13.1-jadval

Oziq moddalar me`yorlarini fizik tuklarga o'tkazish uchun koeffitsientlar  
Tarkibida ikki yoki undan ortiq. oziqa unsurlari bo'lgan murakkab o'g`itlarni tajribalarda qo'llashda tuk holatda avvalo asosiy element mikdori xisoblanadi, so'ngra u bilan birga tushadigan qo'shimcha unsurlar mikdori ham hisobga olinadi

Masalan: 1 ga erga 150 kg. fosfor ammofos hisobida solinish kerak, bunda tuka holatda:

$150 \times 2,17 = 325,5 \text{ kg/ga}$  mikdorida solinsa, uning tarkibida  $325 - x \text{ kg} / 100-12 \times = = = 39,0\text{kg}$ . azot bo'ladi. Bu miqdordagylazot tajribada qo'llanilayotgan yillik

100

azot miqoridan cheklab qoldirilishi kerak.'

Misol tarikasida o'shtlar solishning zarur me`yorini hisoblashni keltiramiz: 1 gekgarga 50 kg azot solish kerak. Xo'jalikda sulfat ammoniyning tukida 20% azot buLgan o'g`it mavjud. Demak, 1 ga erga = 250»" yoki  $50 \times 5,0$  (koef.) ■ 250 kg sulfat ammoniy sepish zarur.

Aytailik, 250 kg. sulfat ammoniyni o'simliklar 60x15 tizimda joylashtirilgan tajribaga solish kerak. Buning uchun traktor xar gektarda 16667 m. masofani bosib utishi lozim. O'g`it me`yorini (tukda) yo'lning umumiy uzunligiga bo'lib, 1 metrga tushadigan o'g`it mikdorini topamiz, u taxminan 15 grammga teng bo'ladi.

Traktor g`ildiragi chambaragi 3,6 m ligini xisobga olganda, g`ildirak har to'liq aylanganda 15 g x 3,60 = 54 g, 10 aylanishda xar soshnikdan 540, chetkisidan esa 270 g, ya`ni yarim me`yor o'git to'kiladi.

Ug`it amal davrida kdtorning yon tomonidan berilganda chetki o'ng soshnik o'g`it o'tkazuvchi quvur bilan ulanmagani uchun o'git to'kmaydi.

Kichik maydonli tajribalarda, ayniksa, kam me`yorlari solinganda (mikroelementlar, yuqori foizli kali ili o'gitlar) maxsus sepish apparatlari bo'lмагanligi tufayli o'g`itlar kulda sochiladi. Bunda xar bir tajriba varianti uchun xisoblangan o'gitlar tortilib, alohida xaltachada sakdanadi. Agar bir variantga bir necha xil o'g`it soliisa, ular alohida tortilib, xaltachalarga joylanadi va yorliq (etiketka)lanadi.

O'g`itli xaltachalar tajriba tizimi bo'yicha variantlarga taqsimlanadi. Bu, o'gitlarning o'rni almashib qolishini bartaraf ztadi.

Ko'lda o'g`it sochil ganda ob-xavo sharoiti va o'g`it sifati hisobga olinadi. SHamal esib turganda o'tit sochilmaydi, chunki bunda o'g`itni bir te kis sochish imkonи bo'lmaydi, undan tashqari o'g`itlar shamol bilan variant o'rtasiga uchirib ketklishi mumkin.

Kam mikdordagi o'g`itlarni bir tekis taqsimlash uchun ular tuproq bilan aralashtirilib sspilgani durust.

O'g`itlarning me`yorlariga va egat kengligi ga bog`liq holda sarflanishi 13.2-jadvalda keltirilgan.

### 13.2-jadval

Ma`dan o'g`itlar me`yorlariga qarab, g'o'za va boshka chopiktalab ekinlarni ozikdantirishda to'rt qatorli o'g`it sepuvchi apparataing sozlanishi

Sepish me`yordan qatiy nazar, tuproq changsimon va quruq o'g`itlarga aralashtirilishi juda muhim. Tuproq o'g`it sepilayotgan variantdan olinadi. O'g`itlar me`yori egatlar soniga bo'linib, so'ng sepiladi.

G'o'zani bedapoya haYaoalgan dalada o'g`itlash bo'yicha o'tkaziladigan tajribalar vaqt va zamonda davom ettiriladi. YA`ni bu tajribalar bir yo'la Zta dalada olib boriladi va bedapoya haydalgandan so'ng birinchi yil (plast), ikkinchi va uchinchi yilgi ma`lumotlar (oborot plasta) birlashtiriladi. Tajriba dalalaridan olingan tuproqning dastlabki agrokimyoviy xususiyatlari haqidagi ma`lumotlar yillar bo'yicha 3 yillik jamlanma ilmiy hisobotda alohida-alohida keltiriladi.

G'o'za makkajo'xoridan va bug`doydan so'ng parvarishlanadigan dalalardagi tajribalar har yili alohida dalada olib borilgani uchun avvalo dalalar tuprog`ining unumdotlik darajasi bir-biriga yaqin bo'lmog'i kerak. Jamlanma ilmiy hisobotda esa bu ma`lumotlar yillar va dalalar bo'yicha ko'rsatiladi.

Bug`doyni, makkajo'xorini o'g`itlash bo'yicha o'tkaziladigan tajribalar 3 yil davomida yangi dalada olib boriladi. SHuning uchun bu dalalar tuprog`ining unumdotligi ham bir-biriga yaqin bo'lishi kerak. Ilmiy hisobotda dalalar tuprog`ining dastlabki agrokimyoviy xususiyatlari xaqidagi ma`lumotlar alohida ko'rsatilib, boshqa ma`lumotlar jamlangan holda ksltirilishi mumkin. Bu tajribalarda izlanish uchun olinadigan tuproq va o'simlik namunalari shu ekinlarning asosiy rivojlanish davrlariga va tajriba maqsadiga moe holda olinadi.

Beda o'simligini o'g`iglash bo'yicha o'tkaziladigan tajribalar ham vaqt va zamonda olib boriladi. Bu tajribalar bir yo'la 3 ta dalada davom etdiriladi va olingan ilmiy ma`lumotlar bedapoya haydalgandan so'ng o'stiriladigan g'o'zalardagi kabi jamlanib ko'rsatiladi.

G'o'zani polietilan pylonka ostida o'stirishda o'g`itlash bo'yicha o'tkaziladigan tajribalar xuddi ochiq maydonlardagidek olib boriladi.

## **8-MA`RUZA**

### **MAVZU:Sug`oriladigan tuproq sharoitida o'tkaziladigan dala tajribalarining xususiyatlari.**

Sug`oriladigan tuproq sharoitida o'tkaziladigan tajribalarda katta uslubiy yondashishni talab etib, yolg`iz farqlilik omiliga dialektik to'g`ri tushunchaga ega bo'lisch kerak.

O'rganilayotgan omilning hamma variantlari uchun bir xil bo'lischni tashkil etish, bu mexanik ravishda tenglashtirish deb qaralmay, balki tadqiqot uchun ko'zda tutilgan aniq fandir. Bu fanda tadqiqotchi haqiqatda ma'lum bir variantning (navning) qolgan variantlarga nisbatan yuqori samarali ekanligini ajrata olish masalan, texnik o'simliklar tajribasida sug`oriladigan variant qatorlari o't bosmagan va qotib qolmagan bo'lsa, yonidagi sug`orib eri qota boshlagan variant qatorini chopganda birga qo'shib chopib yubormaslik kerak. Bu erda, birinchi variant tajriba maqsadi qurg`oqchilikka chidamlilagini va ishlov berilmaganda o'simlik o'zini qanday tutishini o'rganishdan iborat. Ikkinchi tajriba maqsadi sug`orish va uning ketidan chopiq qilishni o'rganish.

Undan tashqari sodir bo'lishi mumkin holatlardan biri yuqoridagi ikki variantda bir xil ko'chat soni qatorlarda qoldirilishi. Bu erda ham mexanik tenglik yaratilib tajribada optimallik va maqsadga muvofiqlik printsiplari qo'pol holda buziladi. Natijada o'rganilayotgan uslubning effekti haqidagi olinayotgan informatsiya yolg`on, xulosa ishonchhsiz, chunki yuqori hosil sug`oriladigan er uchastkasida ko'proq ko'chat soni hisobiga olinishi mumkin, sug`orilmaydigan erda siyrak ko'chatlar soni ko'p bo'lishi bu erda namlik etishmasligi bilan hosildorlikning juda kamayib ketishiga olib keladi. SHuning uchun ham yuqoridagi kabi misollarda, hech qachon sug`oriladigan va sug`orilmaydigan er uchastka variantlarida bir xil ko'chat soni olishga harakat qilinmaydi. Ular har xil bo'lib, har bir sharoit uchun optimal bo'lischini ta'minlanishi metodik jihatdan to'g`ri bo'ladi.

Sug`oriladigan er uchastkasida dala tajribasi o'tkazishning xususiyatlaridan eng asosiysi o'rganilayotgan variantlar o'simliklarini sug`orishdir. Sug`orish tadbirlarini amalga oshirishda o'ziga xos muammolar ham mavjuddir. Bu muammolar, variantlar qatorlariga suvning to'g`ri bir xilda taqsimplanishi va regulyator barpo etish bilan bog`liq.

Sug`orish normasining variantlarda ozgina o'zgarib ketishi ham tuproq namligining tajriba uchastkasida har xil bo'lischiga olib keladi. Hosildorlik variantlar orasida o'zgarib, o'rganilayotgan omil effektini mavhumlikka olib keladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun tajriba uchastkasini tajribaga tayyorlash vaqtida izchil kapital tekislanadi.

Tajriba uchun ajratilgan maydonda 10-15 sm lik egrilik sezilsa, u kapital plantirovka qilinadi. Agar tajribada o'rganilayotgan omil suv rejimini o'rganish bo'lsa, bu tadbirning ahamiyati yanada oshadi. Tajriba uchastkasida qatorlar uzunasiga qarab ma'lum bir nishablikka ega bo'lisch kerak. Bu nishablik 100 metr uzunlikka 0.01-0.02 yoki 0.001-0.008 (0.1-0.8m) bo'lisch kerak.

8. Tajriba usullarini aytинг va ular o'rtasidagi farqlari?
9. Dala tajribasini o'tkazish uchun qanday asboblardan foydalilanadi?
10. Dala tajribalarida variantlar nechta bo'lisch kerak?
11. Variant bilan takrorlanishning farqi?
12. Takrorlanishlarning soni tajribalarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
13. Paykallarning maydani va shakli qanday bo'lisch kerak?
14. Paykallar qanday joylashtiriladi?
15. Dala tajribalarida ishlarni rejorashtirishni tushuntiring?
16. Tajriba uchun dalani tanlash va tayyorlash tartibi?
17. Sug`oriladigan maydonlardagi tajribalarning xususiyatlarini aytинг?
18. Ishlab chiqarish sharoitidagi tajribalarning xususiyatlarini aytинг?

## 10-MA`RUZA

### MAVZU: Hosilni hisobga olish usullari.

Hosilni yig`ib terib olish har qanday dala va laboratoriya dala tajriba ishlarining yakunlovchi davri hisoblanadi. Mana shu eng ma`suliyatli davrda tajriba ishlarini bajaruvchi kishining diqqati tajriba uchastkasini, paykalni yig`im terimga yaxshilab tayyorlash va hosilni uz vaqtida yig`ib terib olishga qaratilgan bo`lishi lozim. Bundagi shoshqaloqlik, palapartishlik qo`pol xatoga olib kelishi, ba`zan tajriba yakunini yo`qqa chiqarishi mumkin.

**Tajriba dalasini yig`im-terimga tayyorlash.** Bu ish paykalning hammasini tekshirib chiqish va qoziqlar yo`q joyga qoziq qoqishdan boshlanadi. SHundan keyin himoya polosalari ajratib chiqiladi. Uchastkaning yuqori va quyi qismlarida himoya polosalari ajratib bo`lingan paykallar o`rtasida himoya qatorlari ajratishga kirishiladi. Har qaysi paykal himoya va hisobdagagi qatorlarga ajratilib, ularning soni tekshirishdan utkazilib, hisobdagagi va himoya qatorlar har qaysi paykalning yuqori hamda quyi chegarasiga tug`ri kelganligini tekshirib bo`lgandan keyin paykalning ahvolini ko`zdan kechirishga to`g`ri keladi.

Hisobga olinadigan maydondagi hosil maxsus tayyorlangan kishilar yordamida terib olinadi, hamda alohida xaltachalarga solib qo`yiladi. Xaltachalarga quyidagi qaydlar bo`lishi shart:

1. Tajribaning nomi.
2. Paykalning nomi.
3. Takrorlanish nomeri.
4. Hosil elementi miqdori (ko`sak, so`ta va h.k.)
5. Terilgan vaqt.
6. Hosilning konditsion vazni.
7. Terib olgan shaxsnинг familiyasi va imzosi.

Ishlab chiqarish sharoitidagi tajribalarda hosil paykallar bo`yicha har bir takrorlanishdan alohida terib olinib, vazni aniqlanib tayyorlov punktlariga topshiriladi. Konditsion og`irlik uchun esa namunalar olinadi.

Hosil mexanizmlar yordamida teriladigan, yig`ishtiriladigan bo`lsa ham xuddi shu ishlar amalga oshiriladi. Faqtgina mashinalar qayiriladigan polosalari ajratib, hosili aloxida yig`ishtirib olinadi.

Hosilni hisobga olishning 2 usuli: yoppasiga va namuna bog`larga ko`ra hisobga olish usuli qo`llaniladi. Hosilni yoppasiga hisobga olish usuli eng aniq usul bo`lib, ko`p dala tajribalarida qo`llaniladi. Har bir paykaldagi barcha hosil alohida-alohida yig`ib olinadi va alohida tortiladi.

Hosilni namuna bog`larga ko`ra hisobga olish yoppasiga eqiladigan ekinlar (g`alla, zig`ir, o`tlar)da qo`llaniladi. Bunda hosili hisobga olinadigan paykaldagi o`simliklar o`riladi yoki yulib olinadi va barcha hosil darhol tortiladi. Paykalning har 50-100 joyidan ikki bog` (har biri 5-7 kg dan) o`simlik olinadi. Bog`lar juda aniq tarozilarda tortilib, ularga etiketka (yorliq) osiladi. So`ngra ehtiyyotlik bilan (nobud qilmay) daladan olib ketilib, yaxshi shamollatiladigan binolarda quritiladi. Qurigandan so`ng bog`lar yana tortiladi, yanchiladi va donining vazni aniqlanadi. Keyin quyidagi tenglamaga muvofiq, har qaysi paykaldan olingan donning vazni hisoblab topiladi (kg hisobida):

V

X=A-----

B

bu erda: A - har qaysi paykaldagi umumiy hosilning vazni (namuna bog`lar hosili ham kiradi); B - yangi o`rib olingan namuna bog`larning vazni; V - namuna bog`dan olingan donning vazni.

Ob-havo sharoitiga ko`ra, barcha hosilni quritib, tortish imkoniyati bo`lmagan hollarda hosilni namuna bog`larga qarab hisobga olish usuli qo`llaniladi. Juda aniq tajribalar uchun bu usul qo`llanilmaydi, chunki bunda yoppasiga hisobga olish usuliga qaraganda g`alla o`simliklarida 5-7% farq bo`ladi. Hisob yanada aniq bo`lishi uchun paykaldan 5-8 ta namuna bog` olish zarur. Biroq bunda ham hisoblash engillashmaydi, agar imkon bo`lsa yoppasiga hisobga olish usulini qo`llash maqsadga muvofiqdir.

Hosilni namuna maydonchalarga ko`ra hisobga olish. Bu usul aniq dala tajribalari uchun qo`llanilmaydi. Bunda hosil paykalning bir necha joyida uncha katta bo`lmagan maydonchada hisobga olinadi. Bu usulda yo`l qo`yiladigan xato yoppasiga hisobga olish usulidan 1,5 marta ko`p bo`ladi.

SHunday qilib, hosilni namuna bog`lar va namuna maydonchalarga ko`ra hisobga olish usuli barcha hosilni yig`ib, tortish imkonи bo`lмаган taqdirda qo`llaniladi. Barcha dala tajribalarini hosilni yoppasiga hisobga olish mumkin bo`ladigan qilib o`tkazish kerak. 2-3 ga keladigan paykallarda tajriba o`tkazish asossizdir. 100-200 m<sup>2</sup> kattalikdagi 2-3 ta maydonchadagi hosilni hisobga olishni planlashtirish kerak. Bunda hosili hisobga olinadigan maydonchalar bir-biridan ancha narida bo`lib, ularni taqqoslash qiyinlashadi, tajribaning aniqligi kamayadi va o`rganiladigan usul yoki tuproq unumdorligiga ko`ra variantlar o`rtasidagi farqqa qarab yakun chiqarib bo`lmaydi.

**G`alla ekinlari.** Kattaligi 100 m<sup>2</sup> gacha bo`lgan paykallardagi hosil qo`lda yoppasiga o`rib olinadi. 100 m<sup>2</sup> va undan katta paykallardagi hosilni kombaynda o`rib olish mumkin. Agar hosil kam bo`lsa, paykal qanday kattalikda bo`lishidan qat`i nazar hosilni kombaynda o`rish mumkin emas. CHunki don vaznidagi kichik farq ham katta protsentni tashkil etib, hisobning aniqligiga ta`sir qiladi. Har bir paykaldagi hosilni o`rib olishdan oldin kombayn 3-5 minut salt ishlashi kerak. Agar paykallarning joylashishi va shakli hosilni kombaynda o`rish uchun noqulay bo`lsa, hosil oddiy mashinalarda yoki qo`lda o`rilib, kombaynda yanchiladi. Har bir paykaldagi hosil o`rib olingandan so`ng, donni qoplarga joylab, oddiy qalam bilan yozilgan yorliq osib qo`yiladi. Don tortilayotganda namligi, iflosligini aniqlash uchun 1-2 kg dan namuna olib, shisha idishga solinadi va surguchlab qo`yiladi.

Hosilni hisobga olishda standart namlikka aylantirib hisoblash shart. Namlik donga belgilangan standartga muvofiq usullardan biri bilan aniqlanadi va protsentlarda ifodalanadi. Har bir paykaldan olingen hosil maxsus jadval yoki quyidagi tenglamadan foydalanib, standart namlikka keltiriladi:

$$X = \frac{A \cdot (100 - V_{tab})}{100 - V_{st}}$$

bu erda X - standart namligidagi don hosili; A - tabiiy namlikdagi don hosili; V<sub>tab</sub> - hosilning olinadigan vaqtidagi tabiiy namligi; V<sub>st</sub> - donning standart namligi.

G`alla ekinlari hosilini namuna bog`larga qarab aniqlashda hisoblanadigan har qaysi paykaldan vazni 5-7 kg li namuna bog` olish tavsiya etiladi.

**Tolali ekinlar.** Zig`ir va nasha hosilini hisobga olish usullari g`alla ekinlarinikiga o`xshaydi. Dala tajribalarida urug` va somon hosilidan tashqari, tola chiqishi va uning sifatini aniqlash ham maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kamida 30 kg dan bo`lgan (nam holatdagi) o`rtacha namuna olinib, har biri 5-10 kg keladigan bog` qilib bog`lanadi. Bog`lar texnologik analizga, ya`ni yoyish, issiq suvda ivitish, poyasi bilan quritish, yumshatish, po`stlog`ini shilish, tolasining sifati va miqdorini aniqlash uchun yuboriladi.

**O`tlar.** O`tlar hosili yoppasiga ham, namuna bog`lar bo`yicha ham hisobga olinadi. Birinchi usulda o`rilgan massa paykalda quritilib, pichani shu joyda tortiladi. Ikkinci usulda o`rilgan qatorlarning 30-50 joyidan 5-7 kg keladigan kamida 2 bog` o`t olinib, namligida tortiladi, so`ngra paykaldagi barcha ko`k massa hosili tortiladi. Namuna bog`lar quriguncha o`tlarning botanik tarkibi va komponentlarning o`zaro nisbati aniqlanadi. Namuna bog`lar erda yoki maxsus so`kchaklarda quritiladi. So`ngra quruq massa miqdori aniqlanib, pichan hosili 16% standart namlikda hisoblab chiqiladi.

**CHopiq qilinadigan ekinlar.** Bu ekinlar hosili har bir paykaldagi hosilni alohida-alohida tortib, yoppasiga hisobga olinadi. Agar tuproq juda nam bo`lsa, tugunak yoki ildizlar bir necha soat davomida quritiladi, so`ngra qo`l g`alvirida elab, keyin tortiladi. YOpishib qolgan loy miqdorini aniqlash uchun kartoshkadan 15-20 kg dan, ildizmevalardan 40-50 kg dan namuna olinadi. Namunalar oldin yopishib qolgan loyi bilan, ikkinchi marta yuvib quritilgandan so`ng tortiladi. Bu namunalardan mahsulot sifatini aniqlashda ham foydalanish mumkin. Masalan, ildizmevalarning o`rtacha vaznni, tarkibidagi shakar va quruq moddalar miqdorini, kasallik va zararkunandalar bilan zararlangan zararlanmaganligini; kartoshka hosilining tovarlik sifatini, ya`ni yirik, o`rtacha va mayda tunganaklarning protsent miqdorini, tarkibidagi kraxmal miqdorini, kasalliklar bilan zararlangan zararlanmaganligini va ta`m sifatlarini aniqlash zarur.

Makkajo'xori hosilining sifatiga baho berishda har xil variantlarda so'talarning pishib etilish darajasini, so'talar vaznini, 1000 ta donining vaznini, poya, so'ta va barglarining nisbatini aniqlash zarur.

CHopiq qilinadigan ekinlar hosilini bilvosita hisobga olish usullari (namuna maydonchalar, egatlar, uyalar, polosa yoki alohida o'simliklar usuli) juda noaniq bo'lganligidan qo'llanmasligi kerak.

**3.7. Hujjatlar va hisobotlar.** Ilmiy izlanishlar natijalarining ilmiy asoslangan tahlili, yig'ilgan ilmiy ma'lumotlarning ob`ektivligi ko'p jihatdan kerakli tartibda ilmiy hujjatlar tutish, va ularni ishonchli joyda saqlanishiga ham bog'liq. Tajriba uchun kerakli bo'lgan hujjatlar: birlamchi va asosiy hujjatlar turiga bo'linadi.

Birlamchi hujjatlarga: izlanish kundaligi (dala daftari) va tajriba jurnali kiradi. Bu hujjatlarga qo'shimcha bo'lib ishchi daftarlar (unda hamma kuzatuvlarning hisob-kitobi amalga oshiriladi), laboratoriya jurnallari, kuzatuv vedomosti, o'zi yozadigan priborlar lentasi va boshqalar.

Asosiy hujjatlarga: ilmiy hisobotlar, referatlar, bosmaga berilgan maqolalar, bitishuv ishi, diplom ishi va dissertatsiyalar kiradi. Tajriba maydonida har bir kuzatuv uchun o'ziga xos va ilmiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu hujjatlar turlari boshqacha bo'lishi mumkin, lekin har qanday holatda ham birlamchi va asosiy hujjatlar turkumi (guruhi) saqlanib qoladi.

Izlanish kundaligi daftar yoki kitobcha holida bo'lib muqovasi qattiq bo'lishi kerak, chunki u cho'ntakda va dala sumkalarida olib yurilganda lattasi chiqib ketmasligi kerak. Uning hajmi shunday bo'lishi kerakki, butun tajriba variantlari qatorida kuzatuv natijalar butun vegetatsiya davrida bir daftarga sig'sin. Tajriba o'tkazish yillarda navbatma-navbat bu daftar yangisiga almashtirilib boriladi. SHuning uchun ham har bir kundalik daftar muqovasiga yil, tartib soni, kuzatuv boshlanish vaqtiga va tugashi yozilishi shart. Bundan tashqari yo'qolish holini ham nazarda tutgan holda tadqiqotchi o'z manzili va ishchi telefon nomerini daftara muqovasining ichki tomoniga yozishi foydadan holi emas.

Izlanish kundaligida instrumental, vizual kuzatuvlar natijalari, dalada va laboratoriyalarda, issiqxonalarda amalga oshirilgan hisobotlar va taxminlar talab shakllarida (formalarda) xronologik tartibda yoziladi. SHunday tartibda ekish, ishlov berish (agar tajriba idishlar yordamida amalga oshiriladigan bo'lsa) idishlar tuproq bilan to'dirilish, ozuqalar miqdori, sug'orish, ish tartibi, idishga ekilgan o'simliklar soni va agrotexnikasi qayd qilinib boriladi. Bu erda daftardagi yozuvlar ichida qilingan ishlar soni, turi, sifati, ishlatilgan asbob-uskunalar, texnikalar o'z o'rinnarida qayd qilingan bo'ladi. Kundalik daftarida bundan tashqari tabiiy-fizik hodisalar (yomg'ir, do'l, sel, qurg'oqchilik va muzlash) kabi ekstremal ob-havolar va hashorat, begona o'tlar va dala kesaklik bulib ketish hollari ham alohida yirma-yil ko'rsatilgani yaxshi. Agar yuqoridagilardan birontasi sodir bo'lgan holda uning o'simliklar rivojiga bo'lgan ta'siri kuzatib ma'lumotlar qatoriga kiritilsa, yana ham foydaliroq bo'ladi. Bundan tashqari, iloji bo'lsa, yuqoridagi hodisalar ta'sirini sodir bo'lgan paytda suratga olinsa, bu ham o'z o'rnida qimmatli ilmiy ashyo hisoblanadi. CHunki ilmiy izlanishlar asosida, ashylar orasida mayda e'tiborli ma'lumotlar degan ibora yo'q, har qanday faktik hujjat o'z o'rnida beqiyos, birinchi darajali ashyo bo'lib, tajriba natijasini tahlil qilishda xizmat qilishi mumkin. YOKi bu ma'lumotlar boshqa bir izlanishning g'oyasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tajriba jurnali tajriba haqida birlamchi ma'lumot va uning uslubiyati: mavzu va izlanish bo'limlari, tajriba yili, tajriba dasturi qaerda va qachon tasdiqlangan, tajribaning tuzilish va rejasini o'zida jamlagan bo'ladi.

Dala kundaligi yoki ish daftariga hamma ezuv va qaydlar qatiy ravishda oddiy qora qalam bilan yoziladi.

Siyohli ruchkalar ishlatish qat'yan man etiladi. Ish daftarida sharikli ruchkadan foydalanish mumkin.

Tajriba o'tkazish paytida ish dasturi, tajriba sharoiti, agrotexnik tadbirlarning qaydnomasni, olingen ma'lumotlar, hosildorlik, xulosalar, takliflar, amaliy tadbiqlar, dala jurnali va boshqa ma'lumot beruvchi hujjatlar hisoblanib bular o'z vaqtida dastlabki ma'lumotlar asosida qora siyohli ruchkalar yordamida qayta yoziladi va maxsus binoda saqlash uchun yuboriladi. Jurnalda hamma qaydlar tushunarli, tekst yoki jadvallar shaklida yozib boriladi

Tajriba jurnalida tadqiqot natijalari ma`lum shaklda qayd etib boriladi.

Qaydlarni namunaviy shakllari:

1. Tajribaning nomlanishi, maqsadi, vazifasi.
2. Tajribaning joylashish sxemasi, rejasi.
3. Tuproqning agrofizik, agroximik va boshqa tavsifi.
4. Dala tarixi va tavsifi.
5. Tadqiqot dasturi va usuli.
- b. Oldingi ekin hosilidan tajriba ekini hosilgacha bo'lgan ishlarning tafsiloti.
7. Hamma analizlar, kuzatishlar va boshqalarinng ma'lumotlari, tablitsalar, chizmalar.
8. Hosildorlik natijalari: a) paykalar bo'yicha, b) hektar hisobida, v) standart namlik holatiga keltirib.
9. Olingan natijalarning statistik ishlovlari.
10. Dastlabki xulosalar va takliflar.

#### **Nazorat savollari:**

3. Fenologik kuzatuvlarda nimalar aniqlanadi?
4. Qanday qilib tajriba aniqligiga erishish mumkin?
5. Qanday holatlarda tajribalar taftish qilinadi?
6. Tajriba variantlarini tiklash usullarni ayting?
7. Hosilni hisobga olishni usullarini ayting?
8. Tajriba dalasi yig'im-terimga qanday tayyorlanadi?
9. G`alla ekinlarini hosili qanday hisobga olinadi?
10. Tolali ekinlar hosilini hisobga olishni tushuntiring?
11. O'tlar hosilini hisobga olishni tushuntiring?
12. CHopiq qilinadigan ekinlar hosilini hisobga olishni tushuntiring?
13. Dala tajribasi olib borishda hujjatlar va hisobot ishlarini tushuntiring?

**11-MA`RUZA**  
**MAVZU: TADQIQOT NATIJALARIGA ISHLOV BERISH VA ULARNI STATISTIK**  
**TAHLILI**

**Reja:**

- 1. Eksperimentlarni rejajashtirish fanining ahamiyati.**
- 2. Fanning predmeti.**
- 3. Fanning maqsadi va vazifalari.**
- 4. Fanning boshqa fanlar bilan munosabati.**
- 5. Fanning rivojlanish tarixi.**

**Fanning ahamiyati.** Halq xo`jaligining barcha tarmoqlarida shu jumladan qishloq xo`jaligida ham matematik amallardan keng foydalaniadi. Agronomiyada matematik amallar o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'rganishda, ko'chat qalinligini hisoblashda, fenologik kuzatuvlar va hisoblar olib borishda, hosildorlik bo'yicha aprobatsiya o'tkazishda, biologik hosilni va fotosintez mahsuldarlikni aniqlashda qo'llaniladi. Agronomiyada har bir jarayonda ma'lum bir darajada matematik amallar qo'llaniladi. Ko'pincha bugungi kunda agroteknik tajribalarda yangi udumga aylana boshlagan hosildorlikni keskin oshiruvchi yangi preparatlar, texnologiyalarda tafovutlar mavjud.

**Fanning predmeti.** Bu fan-ilmiy tadqiqotlarda tajriba natijalariga matematik ishlov berish va statistik tahlil qilish uslubiyatlari va asosiy qonun - qoidalarini o'rganishdan iborat. Tanlash usulining asosiy maqsadi kichik tanlamalarni (o'rtacha ma'lumotlar) statistik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rganish ilmiy ishlamaning butun mohiyatini to'g'ri tavsiflash imkonini beradi, qaysiki statistikada bu genial majmua deb yuritiladi. SHunga o'xshash vaziyatlar dala tajribalari qo'yilishida ham qo'llaniladi, bunda kamdan kam hollarda 6-8 dan ortiq bir xil delyankalar bo'ladi (takrorlanishlar) va ularning hosildorligi va boshqa ko'rsatkichlari, ya`ni tajriba dalasining umumiyyatini kichik tanlama asosida etarlicha aniq xulosa olishga xarakat qilinadi. Bu erda yashirin holda diyarli tugallanmas statistik guruhlavr mavjud, genial majmua, qaysiki kichik tanlamalar asosida imkonli boricha sodda usullarda ilmiy ishni statistik tavsiflab berish lozim.

Statistika usuli bilan ishlash tajriba xulosalarini miqdoriy baholash imkonini beradi. Keyingi yillarda ilmiy tekshirish ishlarining xulosalarini hisoblashda bu usul keng qo'llanilmoqda. Matematik-variations statistika usuli asosidagi xulosalar bir-muncha aniq, bo'ladi.

Matematik analiz usullari juda ko'p, lekin quyida keng tarqagan, qo'llash juda oson, oddiy va sodda bo'lganlari qisqa qilib ifodalanadi.

**3. Matematik statistikaning vazifalari.** Matematik statistika – matematikaning muxim bo'limlaridan biri. Bu fan aloxida tanlab olingen o'simlik na'munalarida o'tkazilgan kuzatishlar asosida biron bir hodisa to'g'risida eng to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.

Barcha statistik usullarda fanda extimollar nazariyasiga asoslanib ish yuritiladi. Fanda tadqiqot va tekshirishlarni dasturlash bilan bog'liq turli tabiat hodisalarini o'rganuvchi gipotezalarni tekshirish va baholashda, turli murakkab tizimlarni o'rganishda muhim echimlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan barcha statistik uslublar eng avvalo ehtimollar nazariyasiga asoslanib ish yuritadi.

Matematik statistikada tasodifiy so'zi hodisalarning natijalarini oldindan aytish mutlaq mumkin emasligini anglatuvchi ma'noni bildiradi. Demak, tajriba natijalariga o'rganilayotgan omillardan tashqari har doim u yoki boshqa hodisalar ta'sir ko'rsatadi. Natijada har qanday elemental xatolikning o'lchami bilan belgilanadigan biron bir elementini o'zida saqlaydi.

Statistik tahlilning zamonaviy usullarini bilish fenologik kuzatuvlari va tajriba natijalarini miqdor o'zgaruvchanligini va tavsiflashdagina emas, balki tadqiqotning barcha bosqichlarida ya`ni, erni tayyorlashdan tajriba oxirigacha zarur.

Har qanday yoppa, ko'pgina ko'rinishlar masalan daladagi o'simliklar guruhlari yoki fermadagi xayvonlar o'zida o'ziga xos xususiyatlarni saqlaydi, hodisalar, dalillar, predmetlar, ya`ni ba'zibir o'lchov birliklari, ulardan har biri aloxida qaralganda o'ziga hos xususiyatlarga ega va bir-biridan balantligi, vazni, maxsulot miqdori va h.k singari belgilari bilan farq qiladi. Har bir belgi,

har xil o'simlik va navlarda har xil darajada ifodalanishi mumkin, shuning uchun belgilar o'zgarib turadi deb yuritiladi.

**Fanning boshqa fanlar bilan munosibati.** Xech qaysi fan aloxida holda rivojiana olmaydi. Har qaysi fanning rivojlanishida boshqa fanlar qonuniyatlaridan ma'lum darajada foydalaniladi.

Agronomiya ilmiy izlanish asoslari fani-matematika, informatika singari aniq fanlar, biologiya, fizika, kimyo singari tabiiy fanlar va dexqonchilik, paxtachilik, o'simlikshunoslik, agrokimyo, selektsiya, meva -sabzavodchilik singari maxsus fanlar bilan o'zaro aloqada rivojlanadi va mazkur fanlarning qonuniyatlaridan foydalanadi. Masalan: ekinlar hosildorligini hisoblashda va dispersion statistik tahlil qilishda matematik amallardan foydalanilsa, tuproqning g`ovakligi, zschligi, hajm og`irligi va suv hossalarini aniqlashda fizika qonuniyatlaridan, tuproq va o'simlik tarkibidagi makro va mikro elementlarni o'rganishda kimyo qonuniyatlariga asoslanish ish yuritadi.

Ekinlarda fenologik kuzatuvlar olib borishda o'simliklarning morfologik tuzilishlarini bilishlari zarur, bunda botanika fanini puxta bilishlari lozim, zaravrunkunda xashoratlar bilan zararlanish darajasini bilishda zoologiya va entomologiyani bilishlari, o'simliklarning o'sish va rivojlanish jarayonini o'rganishda o'simlikshunoslik fanidan, forosinteze mahsuldarlikni o'rganishda o'simliklar fiziologiyasi qonuniyatlaridan, tuproqning tipikligi aniqlashda tuproqshunoslik, agrakimyo, dehqonchilik va melioratsiya qonuniyatlaridan, variantlarni joylashtirishda geodeziya va geometriya qonuniyatlaridan, o'rganilayotgan nav va duragaylarning tipikligini aniqlashda selektsiya va urug`chilik qonuniyatlariga asoslanadi.

Ilmiy tadqiqot asoslari fani garchi mustaqil fan bo'lsada, bu fanning rivojlanishi va fan sifatida shakllanishi qishloq xo'jalik fanlari rivojlanishiga uzviy bog`liq.

## 12-MA`RUZA

### MAVZU: EMPIRIK VA NAZARIY TAQSIMLINISH

#### 2.1. Takrorlanishlarning taqsimlanishi va grafik kurinishida ifodalanishi.

Har qanday tajriba juda ko'p sonli ma'lumotlar yig`ish bilan boshlanadi. Bu yig`ilgan ma'lumotlar o'simliklarning bir qancha belgilari bo'yicha bir qancha variantlarni o'z ichiga olib, ular har bir belgi va variantlarda alohida jadval va grafiklarda sistemalashtirilsa ko'rsatkich mohiyatini tushunish yoki tushuntirish shunchalik osonlashadi.

Kuzatishlar davomida matemasik ma'lumotlar to'plash ma'lum bir tartibda, ya`ni har bir variantning hisobli maydonidagi maxsus yorliqlar bilan ajratilgan o'simliklarida olib boriladi. Odatda o'rganiladigan o'simliklar soni 50-100 donani tashkil etadi.

Misol uchun 100 dona g`o'zaning o'simlik bo'yisi o'rganilganda quyidagi ma'lumotlar to'plandi (sm):

90	109	99	100	115	68	70	72	73	70
76	82	80	68	69	74	72	69	80	79
79	84	84	108	83	84	99	98	102	101
45	59	60	63	78	87	94	91	88	90
72	68	80	81	84	77	79	81	84	76
70	67	100	103	69	72	74	66	67	72
79	78	83	92	93	81	82	86	89	93
77	76	88	89	94	82	80	81	77	80
92	91	76	79	73	84	79	84	79	84
89	85	93	90	79	83	91	87	89	94

Bunday ko'rinishda n=100 hajmdagi qator o'lchamlar g`o'zaning asosiy poya balantligini tavsiflash uchun nokulay hisoblanadi. SHuning uchun  $k$  guruh tarkibida  $X_1, X_2, \dots, X_n$  ko'rsatkichlarni har birini  $i$  interval oralig`ida guruhlarga ajratilishi lozim. Guruhlar soni taxminan tanlamalar kvadratining ildiziga teng bo'ladi, biroq 5 dan kam, 20 dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Guruhlari intervali kattaligi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$i = \frac{X_{\max} - X_{\min}}{\text{зурхсону}} = \frac{R}{k}$$

Bizning misolimiz uchun 7 ta guruh ajratish maqsadga muvofiq. Bunda interval orasi butun songa teng bo'ladi.

$$i = \frac{R}{k} = \frac{115 - 45}{7} = \frac{70}{7} = 10 \text{ sm}$$

Guruhlarni tanlashda quyidagilarga aloxida e'tibor berish kerak, ya`ni guruhlarning yuqorigi chegarasi ko'shni guruhlardan ajratib turuvchi pastki chegarasidan kichik bo'lishi lozim, qaysiki bizning misoldai u 1 sm ga teng. Guruhlarga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O'lchov natijalarining variatsiyasi, ya`ni bir qator o'lchamlardagi eng yuqori va eng kichik ko'rsatkichlar orasidagi farq aniqlanadi.

$$R = X_{\max} - X_{\min}$$

2. Guruhlari soni  $k$  va guruhdagi inervallar o'lchami  $i = R / k$  belgilanadi.

3. O'lchov natijalari takrorlanishlariga ko'ra guruhlarga ajratilishining jadval ko'rinishidagi maketi tayyorlanadi (Jadval-1). Birinchi qatorda bo'lakchalar (guruhlar) intervali, ikkinchisiga esa – mavjud oraliqdagi o'lchov natijalari soni, ya`ni takrorlanish  $f$  yoziladi.

1-Jadval

100 ta g`o'za o'simligini poya balantligi ko'rsatkichlari takrorlanishiga ko'ra guruhlarga ajratilishi


Guruhlari (guruhlar intervali)	Takrorlanishlar	Guruhnинг о'ртача ко'rsatkichi
45- 54	1	50
55-64	3	60
65-74	21	70
75-84	40	80
85-90	23	90
95-104	9	100
105-115	3	110

4. Umumiylar sonlardan xar bir interval ichiga to'g'ri keladigan kattalik sonlari hisoblanadi va tegishli oraliq grafasi to'g'risidan takrorlanish ustuniga yoziladi.

Jadvalda ko'rsatilgan raqamlarning juftliklar qatori takrorlanishlarning empirik taksimlanishiga -  $f$  takrorlanishlarning  $X_1$  ga ko'ra. Takrorlanishlar yig`indisi yig`indilar ko'lamiga teng  $\sum f = n = 100$ .

Takrorlanishlar tarqoq joylashuvining vizual ko'rinishida yorqin nomoyon bo'lishiga ularni grafik holatida tasvirlanganda erishish mumkin.

Bu uslub oddiy bo'lib, kuzatuvdan olingan ko'rsatkichlar kattaliklarining tarqoqlik qonuniyatini butunlay qamrab oladi. O'simliklar belgilarini bunday o'zgarishi yoki variatsion qatorining grafik holatda tasvirlanishiga egri joylashish yoki variatsion egrilik deyiladi.



Rasm-1. 100 ta g`o'za o'simligini poya balantligini histogramma va egri taqsimlanishi.

Bunday grafik asosan tasvir uchun gorizontal o'qqa (abtsissa o'qi) guruqlar intervali joylashtirilib, vertikal o'qqa (ordinat) bu ko'rsatkichlar miqdori yoki takrorlanish f taqsimlanadi. Grafik masshtabi shunday tanlangan bo'lshi kerakki, butun grafik vertikalda gorizontalda keltirilgan ko'rsatkichlar bilan qog'ozga mos va tashqi ko'zga tushunarli bo'ladi.

O'z ahamiyatiga har bir guruh intervali bo'yicha ma`lumotlar hisoblab chiqiladi va tegishli jadval grafasiga yozib qo'yiladi.

## 2.2. Miqdor va sifat o'zgaruvchanlikning statistik tavsifi.

**O'zgaruvchanlik.** Dala tajribasida yonma yon joylashgan delyankalarda o'simliklavning hosildorligi, shartli belgilari, hossalari va h.k bir – biri bilan hatto bir xil muhitda ham og`ishi o'zgaruvchanlik yoki variatsiyalanish deb yuritiladi.

O'zgaruvchanlik – tabiatdagi har qanday predmetlar uchun hos xususiyat: ikkita mutloq o'xshash bo'lgan predmet mavjud emas, hatto oddiy ko'z bilan ilg`ash qiyin bo'lgan hollarda ham ayrim tafovutlar mavjud.

O'simliklarda faqlantiruvchi belgilarga ularning bo'yи, boshoqdagi don miqdori va vazni, protein miqdori va h.k kiradi. Bir navga tegishli bo'lgan o'simliklarda variatsiya hodisalarining yuzaga chiqishining sababi ular har doim irsiy xususiyatlariga ko'ra farqlanadi, bundan tashqari ularning shakllanishi ko'pincha har xil sharoitda kechadi.

Dala va vegetatsion tajribalarda xatto o'ta puxta olib borilgan tadqiqotlarda ham pavrallel delyankalar va sosudlarda har xil hosil etishtiriladi. Bu og`ish, o'zgaruvchanlik, variatsiya – har doim ham hisobga olinavermaydi va ko'pincha ko'zda tutilmagan hodisa deb qaraladigan tashqi hodisalarning ta`siri natijasi hisoblanadi. SHundan kelib chiqqan holda har qanday tadqiqotlarda tajriba ma`lumotlari har doim ma`lum darajada bir biridan farq qiladi.

O'zgaruvchanlik, belgilar variatsiyasi o'simliklar, hayvonlar, tuproq va h.k guruqlarining ayrim olingen belgilariga tafsif berishda yoki ikkita shunday belgilar taqqoslanganda ularning farqi aniqlangshanda qiyinchiliklar vujudga keladi. Ma`lumki, har doim ham u yoki bu belgilarni o'rganish imkoniyati bo'lmaydi. Bunday hollarda ularni xususiyatlari to'g'risida umumiyl xulosa chiqarish mumkin bo'lgan qismlar bo'yicha o'rganiladi. Bunday usul tanlash usuli deb yuritiladi va statistikada asosiy usul hisoblanadi. SHunday qilib o'rganilishi lozim bo'lgan barcha ob`ektlar guruhi – majmua yoki genial majmua deb, ob`ektning tadqiqot uchun tekshirishga tushgan qismi esa tanlab olingen majmua yoki tanlanma deb yuritiladi. Genial majmua va tanlamadagi elementlar miqdori ularning hajmi hisoblanadi.

Tanlash usulining asosiy maqsadi kichik tanlamalarni (o'rtacha na`munalar ) statistik ko'rsatkichlari bo'yicha o'rganish ilmiy ishning butun mohiyatini to'g'ri tavsiflash imkonini beradi, qaysiki statistikada bu genial majmua deb yuritiladi.

SHunga o'xshash vaziyatlarda dala tajribalari olib borishda ham qo'llaniladi, bunda kamdan kam hollarda 6-8 dan ortiq bir xol delyankalar bo'ladi (takrorlanishlar), ularning hosildorligi va boshqa ko'rsatkichlari, ya`ni tajriba dalasining umumiyl maydoni kichik tanlamalar asosida etarlicha aniq xulosa olishga xarakat qilinadi. Bu erda yashirin xolda diyarli tugallanmas statistik guruqlar mavjud. Genial majmua, qaysiki kichik tanlamalar asosida imkonli boricha sodda usullarda ilmiy ishning statistik tavsiflab berishi lozim.

SHundan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqotlarda tanlash usulining maqsadi – nisbatan chegaralangan vositalar yordamida cheksiz, ko'plab hodisalar orasidan kam sonli hodisalarni ajratib olish, ularning o'ziga xos xususiyatlari va konuniyatlarini o'rganish imkonini beradi.

Kuzatishlar natijasida biz har bir tanlangan to'plamda o'rganilayotgan belgilarning miqdor ko'rsatkichlari to'g'risida malumotga ega bo'lamiz.

O'simliklarda farqlantiruvchi belgilarga don miqdori va vazni, protein miqdori va x.k. Bir navga tegishli bo'lgan o'simliklarda variatsiya hodisasining yuzaga chiqishining sababi ular har doim irsiy xususiyatlariga ko'ra faprlanadi, bundan tashqari ularning shakllanishi ko'pincha har xil sharoitda kechadi.

**Miqdor o'zgaruvchanlik.** Miqdor o'zgaruvchanlikning asosiy tavsiflari - o'rtacha ariftetik  $\bar{x}$ , dispersiya ( $s^2$ ), standart chetlanish (s), o'rtacha arifmetik xato ( $S\bar{x}$ ), korrelyatsiya koeffitsienti (V) va o'rtacha tanlamaning nisbiy xatosi ( $S\bar{x} \%$ ) kiradi.

O'rtacha arifmetik ko'rsatkich  $\bar{x}$  deganda keng ma`nodagi barcha umumiylab abstrak tuo'unchalar tavsifi tushuniladi. Agar barcha variantlar yig`indisi ( $X_1 + X_2 + \dots + X_n$ ) ni  $\sum X_i$  orqali, barcha variantlar sonini  $n$  orqali ifodalasak oddiy o'rtacha arifmetik quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\bar{x} = \frac{\sum X}{n}$$

Tartibga keltirilgan o'rtacha arifmetik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$p \pm t_{0.05} s_p = 0,10 \pm 1,96 \times 0,013 = 0,10 \pm 0,025 \text{ (0,075- 0,125 yoki } 7,5-12,5\%)$$

SHunday qilib, o'rganilayotgan to'plamda vertitsilioz bilan kasallangan o'simliklarning 95 % ehtimollik ulushi 7,5-12,5 %, reprezentativlik xatolik  $s_p = 1,3\%$ , variatsiya koeffitsienti 60,0 % tashkil etadi.

## 15-MA`RUZA

### MAVZU: GIPOTEZALARНИ STATISTIK USULDA TEKSHIRISH.

#### 5.1. Gipotezalarni tekshirishning statistik uslublari.

Gipotezalarni statistik tekshirish – ilmiy tadqiqotlarda matematik statistika usullarining qo'llanishining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. O'rganilayotgan hodisalarning tasodifiy variatsiyasiga asoslangan xolda statistik uslublar yoki gipotezalarni tekshirish kriteriyalari – ayrim holarda ikkilanib turgan sharoitlarda u yoki bu ishlanmalar ichida eng to'g'risini tanlash va to'g'ri qarorlar chiqarish imkonini beradi. Ular xardoim: variantlarni taqsimlanishi to'g'risidagi masalalarda, variantlar o'rtachalari farqi masalasini aniqlashda, variantlarni maskur majmuaga tegishliligini aniqlashda, chastotalarni nazariy va xaqiqiy taqsimlanishi orasidagi mosligini aniqlashda qo'llaniladi.

Gipotezalarni amaliy tekshirish ko'pincha taqsimlanish qonunlari o'lchamlarini baholovchi, ya`ni ma'lum statistik gipotezalarni tekshiruvchi statistik tavsiflarni taqqoslashga tayanadi.

Xullas, *statistik gipoteza* deb-tanlamalar asosida tekshirilishi mumkin bo'lgan, tasodifiy o'lchamlar o'rganilganda u yoki bu taqsimlanish qonunlari to'g'risidagi ilmiy tasovvurga aytildi. Ko'p hollarda kuzatishlarda xaqiqiy va nazariy ma'lumotlar o'rtasida aniq farq bo'lmasan sharoitlarda gipotezani tekshirish uslublariga tayanib ish yuritiladi. Bu gipoteza *nulinchi gipoteza* deb ataladi va  $N_0$  bilan ifodalanadi.

Agar  $N_0$  ni tekshirish natijasida xaqiqiy va gipoteza qilingan ko'rsatkichlar nulga yaqinlashgan bo'lsa yoki ishonchlilik darajasida bo'lsa u holda nulinchi gipoteza rad etilmaydi, agar ma'lumotlar belgilangan kriteriya chegarasidan yuqori bo'lsa, ular bizning gipoteza uchun mumkin

emas, bunday hollarda  $N_0$  rad etiladi. Nulinchi gipotezani qabul qilinishi mazkur kuzatishlar xaqiqiy va faraz qilingan yoki ikkita qator xaqiqiy taqsimlanish o'rtasida farq yo'qligini bildiradi, biroq bunday farqlar yo'qligini isbotlamaydi. Gipotezalarning tashlanishi empirik ma'lumotlar  $N_0$  ga to'g'ri kelmasligini, biroq boshqa alternativ gipoteza to'g'riliqini anglatadi.

Nulinchi gipotezaning xaqqoniyligi ma'lum bir ahamiyatlilik darajasi uchun statistik kriteriyalar tekshiruvini hisoblash yo'li bilan tekshiriladi.

Ahamiyatlilik darajasi tadqiqotlardaga aniq vazifalar bilan aniqlanadi; u nulinchi gipotezani inkor etib biz kay darajada xato qilishga tavakkal qilayotganimizni ko'rsatadi. Tajriba to'g'ri bo'lsa yoki I -toifadagi xatoliklarga yo'l qo'yilganda ahamiyatlilik darajasi past,  $N_0$  ni rad qilish extimoli shunchalik kam bo'ladi, biroq haqiqatda xato bo'lgan sharoitda  $N_0$  inkor qilinmasa II-toifadagi xatoliklarni qilish extimoli ortib boradi. Ahamiyatlilik (muximlik) darajasi noto'g'ri gipotezalar (II-toifadagi xatolar) qabul qilish bilan bog'liq tavakkal qilish darajasini o'lchamaydi, balki I-darajadagi xatoliklarni idora qiladi.

$N_0$  statistik gipotezalarni tekshirish uchun ikki xildagi: *parametrik* va *parametrik bo'lмаган* kriteriyalar ishlataladi.

*Parametrik* kriteriya deb to'plamda belgilarning taqsimlanishi ayrim ma'lum bo'lgan qonunlarga, masalan oddiy taqsimlanish qonuniga bo'y sungan tasavvurlarga asoslanadi. Bunday kriteriyalarga jumladan  $t$  va  $F$  kriteriyalari kiradi, kaysiki ularning qo'llanishi taqsimlanish parametrlerini baholashni hisoblashni ta'lab etadi.

*Parametrik bo'lмаган* kriteriyalar deb- ularni qo'llanishida nomalum parametrlerni taqsimlanishini baholashda va xatto belgilarning taqsimlanishi qonuniga ahamiyatiga ko'ra yaqinlashganda oldindan hisoblash ta'lab etilmaydi. Ular xatto taqsimlanish odatdagidan keskin farq qilgan hollarda xam qo'llaniladi. Boshqa tarafdan parametrik bo'lмаган kriteriyalar parametrik kriteriyalarga nisbatan samaradorligi past hisoblanadi va shuning uchun ularni faqat dastlabki tadqiqotlarda qo'llash mumkin.

## 5.2. t- kriteriyasi bo'yicha o'rtacha tanlashda xaqiqiy farqlarni baholash.

Tajriba natijalari tahlil qilinganda variantlar o'rtacha ko'rsatkichlari bir biri bilan taqqoslanadi. Taqqoslashda ikkita holat ko'zda tutilishi kerak:

1) ikkita mustaqil tanlamaning o'rtacha ko'rsatkichlari taqqoslanganda birinchi tanlama kuzatish natijalari ikkinchi tanlama kuzatish natijalari bilan xech qanday umumiy sharoitda bog'liq bo'lmasligi kerak;

2) ikkita tanlamaning kuzatish natijalari bir biri bilan makoniy va sharoitda bog'liq bo'ladi. Birinchi holatda Styudent kriteriyasi ( $t$ ) o'rtachalar farqlarining ahamiyati ( $d=x_1-x_2$ ) ikkinchi holatda o'rtacha farq ahamiyati ( $d=\sum d : n$ ) baholanadi g'o'za ekinlari tajribalardan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ikkinchi holat ya'ni o'rtacha farq ahamiyatini o'rganish muximdir. CHunki vegetatsiya davomida o'simlik belgilari rivojlanishi protsenti tamonlama bir biriga bog'liq bo'ladilar. Bir biri bilan bog'langan tanlamlarda o'rtacha farqlik holati, farqlik uslubida hisoblanadi. Bu uslubning mohiyati o'rtachalar farqi  $d= x_1 - x_2$  emas balki o'rtachaning farq ahamiyati  $\sum d^2$  bilan baholanadi. Arifmetik nazariyasiga bu ikki ko'rsatkichlar umumin bitta ahamiyatlidir.

O'rtacha farqning holatini  $S_d$  farqli uslubida toshtsh uchunjuft kuzatuvlari orasidagi farq  $d$  hisoblanadi, o'rtacha farq ahamiyati  $d=\sum d : n$  aniqlanadi:

$$S_d = \sqrt{\frac{\sum(d-\bar{d})}{n(n-1)}} \text{ yoki } S_d = \sqrt{\frac{\sum d - (\sum d)^2 : n}{n(n-1)}}$$

Ahamiyatlik kriteriyasi quyidagi tenglama bilan hisoblanadi:

$$t = \frac{\bar{d}}{S_d}$$

Ozodlik darajasi  $v=n-1$

Bu erda  $n$ - juft kuzatuvlar soni.

*Misol:* ikki bug'doy navining (A va V) har xil variantlari urug'ligining oqsil miqdori ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Bu partiyalar etishtirilgan joyi surushtirilganda ular 4 ta xo'jalikda

yonma yon ko'shni dalalarda ekilgan. Tabiiyki, navlar juft kuzatuvlar deyilib natijaning tahlil qilish juft tenglashtiruv bo'lib farqlik usulida olib boriladi.

#### Juftlik kuzatuv natijalarini ishlash

Nav ekilgan xo'jaliklar	Oqsil miqdori, %		Farq d	Farq kvadrati d <sup>2</sup>
	Nav A	Nav V		
1	18,6	17,8	+0,8	0,64
2	16,8	15,4	+0,8	0,64
3	17,4	16,5	+0,9	0,81
4	20,2	19,5	+0,7	0,49
Summasi	72,4	69,2	3,2	2,58
O'rtacha	18,1	17,3	0,8	-

$$S \bar{d} = \sqrt{\frac{\sum d^2 - (\sum d)^2 : n}{n(n-1)}} = \sqrt{\frac{2.68 - 3.2^2 : 4}{4(4-1)}} = 0.04 ;$$

$$t = \frac{\bar{d}}{sd} = \frac{0.80}{0.04} = 20.0$$

Uchta ozodlik darajasi uchun  $V=4$  -  $I=3$  uchun  $t_{05} = 3,18$ ,  $t_{01}=5,84$ . YUqoridagilardan ko'rinish turibdiki har ikkala navning oqsil miqdori farqini baholashda o'ta qat'iy ( $t_{01}$ )tekshirilganda ham ular orasida farq yuqori bo'ladi. Bu farq NSR bo'yicha N<sub>0</sub> tekshirilganda ham shunday xulosa takrorlanadi:

$$NSR_{05}=t_{05} S \bar{d} = 3,18 \times 0.04 = 0.13\%$$

$$NSR_{01}=t_{01} S \bar{d} = 5,84 \times 0.04 = 0.23\%$$

Amaliy va nazariy ko'rsatkichlarni taqqoslab quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:  $t_{amaliy} > t_{05} < t_{01}$ . Xullas farq 5% lik ahamiyatlikda mavjud. Bundan chiqurroq, ya'ni 1 % lik talabda tahlil qilsak farq ahamiyatga ega bo'lmasdi. YA`ni, tuproq namunalaridagi chirindi miqdori bir xil holatda uchraydigan farq ahamiyatsiz. YA`ni tekshiriladigan bo'lsa bir xillik takrorlanishi mumkin.

Xuddi shunday xulosaga nolinchi gipoteza eng kichik farqlik ahamiyati uslubida ko'rib chiqilishi mumkin.

0,05 va 0,01 % ahamiyatlikda t Styudent ko'rsatkichlari

Ozodlik darajasi	Ahamiyatlik kattaligi (extimollik)		Ozodlik darajasi	Ahamiyatlik kattaligi (extimollik)	
	0,05	0,01		0,05	0,01
1	12,71	63,66	18	2,10	2,88
2	4,30	9,93	19	2,09	2,86
3	3,18	5,84	20	2,09	2,85
4	2,78	4,60	21	2,08	2,84
5	2,57	4,03	22	2,07	2,83
6	2,45	3,71	23	2,07	2,82
7	2,37	3,50	24	2,06	2,81
8	2,31	3,36	25	2,06	2,80
9	2,26	3,25	26	2,06	2,79
10	2,23	3,17	27	2,05	2,78
11	2,20	3,11	28	2,05	2,77
12	2,18	3,06	29	2,05	2,76
13	2,16	3,01	30	2,04	2,75
14	2,15	2,98	50	2,01	2,68
15	2,13	2,95	100	1,98	2,63
16	2,12	2,92	$\infty$	1,96	2,58
17	2,11	2,90			

## 16-MA`RUZA

### MAVZU: DISPERSION TAHLIL

#### 6.1. Dispersion tahlil uslubining asoslari

Bugungi kunda tadqiqotlarni sifati va ishonchlik darajasi ularni uslubiy jixatdan to'g'ri bajarilishiga bog'liq. Tajribalarning to'g'ri bajarilishi, olingan ma'lumotlarning ishonchli yoki ishonchli emasligi bir qator statistik tahlillar bo'yicha aniqlanadi.

Statistik tahlilga oid ko'plab savollarga "dispersion tahlil" deb nomlangan usul yordamida aniqlik kiritiladi. "Dispersiya" - ajralish, yoyilish degan ma`noni bildiradi.

Dispersion tahlil usuli qishloq xo'jaligi va biologiya tadqiqotlari uchun birinchi bo'lib ingliz olimi R.A. Fisher tomonidan ishlab chiqildi va amaliyotda tadbiq etildi, qaysiki o'rtacha kvadratlar munosibatining taqsimlanish qonuni kashf qilindi:

$$\frac{s_1^2}{s_2^2} = F$$

$s_1^2$  - tanlamalar o'rtacha kvadrati,  $s_2^2$  - ob`ektning o'rtacha kvadrati.

Dispersion tahlil tadqiqotlarni rejalashtirish va uning ma'lumotlarini statistik ishlov berishda keng qo'llaniladi. Agar avval matematikaning xizmati tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish bilan chegaralangan bo'lsa, R.A. Fisherning ilmiy ishlari uning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi, va bugungi kunda tajribalarni matematik interpretatsiya va dispersion tahlil ta'lablariga ko'ra statistik rejalashtirish tadqiqotchini qiziqtiruvchi savollarga muvofaqiyatli javoblar olishning shartlari hisoblanadi. Tadqiqot rejasini statistik asoslanishi natijalarini matematik tahlil uslubini ham belgilaydi. SHuning uchun zamonaviy tadqiqotlarda dispersion tahlil asoslarini bilmay turib tajribalarni to'g'ri rejalashtirib bo'lmaydi.

Dispersion tahlilda bir vaqtning o'zida yagona statistik kompleksni tashkil qiluvchi, mahsus ishchi jadvalda rasmiylashtirilgan bir qancha tanlamalarning (variantlarning) ma'lumotlariga ishlov beriladi. Statistik kompleks strukturasi va uning keyingi tahlillari tadqiqot sxemasi va metodikasida aniqlanadi.

Dispersion tahlilning mohiyati og`ishlar (farqlar) kvadrati umumiylig`indisi va erkinlik darajasi umumiylig` soniga ko'ra bo'laklarga tadqiqot strukturasiga mos keluvchi komponentlarga ajratiladi va ta'sirlarning ahamiyatini baholash va  $F$  – kriteriyasiga ko'ra o'rganilayotgan omillarning o'zarlo ta'siri.

Agar bir omilli statistik komplekslar bir necha bir biriga bog'liq bo'lman, mustaqil tanlamalardan tashkil topadi, masalan vegetatsion tajribalarda  $l$  – variantlar bo'lganda, u holda yakuniy belgilar umumiylig` o'zgaruvchanligi, o'lchanayotgan kvadratlar umumiylig`indisi  $S_Y$ , ikki komponentga ajraladi: tanlamalar bo'yicha  $C_V$  va tanlapma ichida  $C_Z$  variatsiya. SHundan kelib chiqqan holda belgilar o'zgaruvchanligining umumiylig` shakliga ko'ra quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$S_Y = C_V + C_Z$$

Bu erda tanlamalar orasidagi variatsiya o'rganilayotgan omillar harakatiga asos bo'lishini ko'rsatadi, tanlama ichidagi dispersiya esa o'rganilayotgan tanlamalardagi tasodifiy variatsiyalarni, ya`ni tadqiqot xatosini xaraeterlaydi.

SHuningdek erkinlik darajasining umumiylig` soni ( $N-l$ ) ikki qismga ajratiladi: -variantlar uchun erkinlik darajasi ( $l-1$ ) va tasodifiy variatsiya ( $N-l$ ).

$$N-l = (l-1) + (N-l)$$

Dala tajribasi ma'lumotlariga ko'ra og`ishlar kvadrati umumiylig`indisi – statistik kompleksda  $l$  – variantlar va  $n$  – takrorlashlar bilan – odapda quyidagicha tartibda joylashadi. Dastlabki jadvalda takrorlanishlar  $P_l$  va variantlar  $V$  bo'yicha umumiylig`indisi va barcha kuzatishlarning umumiylig`indisi  $\sum X$  aniqlanadi. So'ngra quyidagilar hisoblanadi:

- 1) kuzatishlarning umumiylig` soni  $V=ln$  ;
- 2) korrektirlovchi omil (tuzatish)  $C=(\sum X)^2/N$  ;

- 3) kvadratlar umumiy yig`indisi  $C_Y = \sum X^2 - C$  ;
- 4) takrorlashlar kvadrati yig`indisi  $C_P = \sum P^2 : l - C$  ;
- 5) variantlar kvadrati yig`indisi  $S_V = \sum V^2 : n - C$  ;
- 6) xatolik (qoldiq) uchun kvadratlar yig`indisi  $S_X = C_Y - C_P - S_V$ .

Ikkita ohirgi kvadratlar yig`indisini  $S_V$  va  $C_Z$  ularga mos erkinlik darajasiga bo`linadi., ya`ni – variatsiyaning bir erkinlik tenglashtiriladigan holatga keltiriladi.

Baholash variantlar dispersiyasi  $s_V^2$  ni xatolar dispersiyasi  $s^2$  bilan  $F = \frac{s_V^2}{s^2}$  kriteriyasi bo'yicha taqqoslash yo'li bilan olib boriladi. SHunday qilib taqqoslash birligida baza sifatida tadqiqotning tasodifiy xatoligini aniqlash imkonini beruvchi tasodifiy dispersiyalar o'rtacha kvadrati qabul qilinadi.

SHu bilan birga tasavvurlar tekshiruvchi nulinchi gipoteza sifatida xizmat qiladi: barcha o'rtacha tanlamalar yagona genial o'rtachaning baholari hisoblanadi, va shunga ko'ra ular orasidagi farq ahamiyatsiz. Agar  $F_{haq} = \frac{s_V^2}{s^2} < F_{naz}$  bo'lsa u holda nulinchi giroteza №:  $d = 0$  inqor etilmaydi, barcha o'rtacha tanlamalar o'rtasida sezilarli farq yo'q, va bu bilan tekshiruv yakunlanadi.  $F_{haq} = \frac{s_V^2}{s^2} \geq F_{naz}$  bo'lganda nulinchi gipoteza inqor qilinadi. Bu holatda NSR bo'yicha ko'shimcha ravishda ayrim og'ishlarning ishonchliliga baho beriladi va qaysi o'rtachalar orasida sezilarli farq borligi aniqlanadi. Tajribada qabul qilingan ahamiyatlilik ko'lami uchun F kriteriyasining nazariy ahamiyati variantlar dispersiyasi va tasodifiy dispersiyalar uchun erkinlik darajasini hisobga olgan holda ilovaning 2-3 jadvallaridan topiladi. Ko'pchilik hollarda 5 % tanlanadi, jiddiy yondashilganda esa 1,0% yoki xatto 0,1 % ahamiyatlilik ko'rsatkichidan foydalilanadi.

Umumiylar mavjud bo'lganda har xil modellar yoki tadqiqot olib borish metodikasi va sharoiti mukum sxemalar bo'lishi mumkin. Bir omilli tadqiqotlar uchun dispersion tahlilning umumiy sxemasi 25 – jadvalda keltirilgan.

Bu erda  $N$ - kuzatishlarning umumiy soni,  $l$ - variantlar soni.  $n$  – takrorlashlar, qatorlar va ustunlar soni. Variantlar kvadrati yig`indisi  $C_V$  va qoldiqlar kvadrati yig`indisi  $C_Z$  kerakli erkinlik darjasiga soniga bo'linishi o'rtacha kvadratlar F kriteriyasini hisoblashda zarur bo'lgan  $s_V^2$  va  $s^2$  olinadi.

Bu erda barcha kvadratlar yig`indisi musbat sonlar bo'lishiga aloxida e'tibor berilishi lozim. Yig`indilarda manfiy ko'rsatkichlar bo'lishi xatolikka yo'l qo'yilganini ko'zrsatadi va bunday holatlarda xatolik topilishi va tuzatilishi lozim.

YUqorida keltirilgan 25- jadvaldan ko'rinish turibdiki har bir tadqiqot turi uchun aloxida matematik model yoki dispersion tahlil sxemalari mavjud. SHunday qilib dala tajribalarida moydon birligidagi, vegetatsion tajribalarda har bir sasuddagi hosil tartibsiz terrorlashlar uslubi bilan olib boridganda ikkita komponentdan iborat deb qaralishi mumkin: variantlar bilan bog`liq va xatolik bilan bog`liq tasodifiy komponent.

25 – jadval

Bir omilli tadqiqotlarda dispersion tahlilning umumiy sxemasi

Tadqiqot turi	Kvadratlar yig`indisi (maxrajda ) va erkinlik darjasasi (suratda)				
	umumiy	Takrorlashlar (qatorlar)	ustunchalar	variantlar	Qoldiq (xatolar)
Tartibsiz takrorlashlar usuli bo'yicha olib borilgan vegetatsion va dala tajribalari	$\frac{C_V}{N-1}$	-	-	$\frac{C_V}{l-1}$	$\frac{C_Z}{N-1}$

(to'liq rendamizatsiya).					
Tartibli takrorlashlar usuli bo'yicha olib borilgan dala va vegetatsion tajribalari	$\frac{C_Y}{N-1}$	$\frac{C_P}{n-1}$	-	$\frac{C_V}{n-1}$	$\frac{C_Z}{(n-1)(l-1)}$
Lotin kvadrati	$\frac{C_Y}{N-1}$	$\frac{C_P}{n-1}$	$\frac{C_C}{n-1}$	$\frac{C_V}{n-1}$	$\frac{C_Z}{(n-1)(l-1)}$
Lotin to'g'riburchagi	$\frac{C_Y}{N-1}$	$\frac{C_P}{n-1}$	$\frac{C_C}{n-1}$	$\frac{C_V}{n-1}$	$\frac{C_Z}{(n-1)(l-1)}$

SHunday qilib tartibsiz takrorlashlar metodi bo'yicha olib borilganda dala tajribasidagi delyankalarning maydon birligidan yoki vegetatsion tajribalardagi sosuddan olingan hosil ikki komponentdan tashkil topgan ko'rilihi mumkin: variant va tasodify komponent bilan bog`langan, xato bilan bog`langan. Tartibli takrorlashlpr metodi bilan olib borilgan dala tajribalarida hosilning variatsiyasida komponentlar xatto uchta bo'ladi: takrorlashlar, variant va xato; lotin kvadratida va to'g'ri burchakli tajribalarda –to'rtta: qator, ustuncha, variant va xato.

Dispersion tahlilning matematik tahlili to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish zarur hisoblash operatsiyalarini, ayniqsa bir omilli tajribalarga nisbatan murakkab bo'lgan, ko'plab noaniq variatsiyalar mavjud bo'lgan ko'zp omilli tajribalarda ishni ancha osonlashtiradi. Masalan oddiy takrorlanishlar usulida qo'yilgan ikki omilli tajribada Sv variantlari uchun kvadratlar yig`indisi uchga ajraladi, uch omilli tajribalarda esa etti tarkibiy qismga. Bu tajribalar uchun jami kvadratlar yig`indisi quyidagi ko'rinishda ifodalananadi:

$$S_Y = (C_A + C_B + C_{AB}) + C_P + C_Z;$$

$$C_Y = (C_A + C_B + C_C + C_{AB} + C_{AC} + C_{BC} + C_{ABC}) + C_P + C_Z$$

Keltirilgan komponentlarda asos ravishda belgilarning yakuniy variayiyalanishida jami erkinlik darajasi soni ham ajraladi. Ko'pincha ko'p omilli tajribalar murakkab va parchalangan delyankalarda ko'yidadi. Bunday hollarda hamma taqqoslashlarni ham bir xil anqlikda olib borish imkoniyati bo'lmaydi. Tarqoq delyankalarda variantlarni joylashishiga ko'ra turli taqqoslashlarni bir xil anqlikda bo'lmasligi uning komponentlarini tao'kil qilishiga mos ravishda: birinchi tartibdagi delankalarda C<sub>XI</sub> joylashgan variantlar uchun xatolik, ikkinchi tartibdagi delyankalarda C<sub>XII</sub> joylashgan variantlar uchun xatolik va xakazo. Bu xatoliklar keyinchalik omillarning tasiri va o'zaro munosabatini baholashda ishlatiladi. Masalan, ikki omilli va uch omilli o'tkazilgan dala tajribalar uchun delyankalarning ikki martaga va uch martalab parchalanishida kvadratlar umumiy yig`indisi quyidagiga teng bo'ladi:

$$S_Y = (C_A + C_B + C_{AB}) + C_P + C_{ZI} + C_{ZII}$$

$$S_Y = (C_A + C_B + C_C + C_{AB} + C_{AC} + C_{BC} + C_{ABC}) + C_P + C_{ZI} + C_{ZII} + C_{ZIII}$$

SHunday qilib parchalanuvchi delyankali tajribalarda farqlarning anqliligini baholash barcha oldingi misollardagi singari bitta qoldik kvalrati summasmga C<sub>Z</sub> ko'ra aniqlanmaydi, balki birlamchi, ikkilamchi va uchljamchi tartibli delyankalar kvadrati yig`indisiga qarab aniqlanadi.

Kvadratlar yig`indisini hisoblashni soddalashtirish uchun, ayniqsa hisoblash apparatlari bo'limganda tajriba bo'yicha  $\bar{x}$  o'rtacha hosilga yaqin bo'lgan A – nisbiy boshlanishi o'lchamlari natijalaridan hisoblash yo'li bilan boshlang'ich ma'lumotlarni o'zgartiradi. Sanoq boshlanishini o'zgarishi kvadratlar yig`indisi ta'sir qilmaydi va ahamiyati kam bo'lgan raqamlar bilan ishslash imkoniyatini beradi.

Dispersion tahlil daraja yoki u yoki boshqa omillarni belgilarni bir yoki 100 % deb qabul qilingan umumiy dispersiyasi to'g'risida ta'savvur imkoniyatini beradi, xususan:

$$\eta_V^2 = \frac{C_V}{C_Y} - \text{variantlarning ta'siri ;}$$

$$\eta_P^2 = \frac{C_P}{C_Y} - \text{takrorlashlar ta'siri ;}$$

$$\eta_Z^2 = \frac{C_Z}{C_Y} - \text{tasodifiy omillar ta'siri ;}$$

$$\eta_Y^2 = \eta_V^2 + \eta_P^2 + \eta_Z^2 = 1,0 \text{ (yoki 100%)- barcha omillarning ta'siri.}$$

## 6.2. O'rtachalar orasidagi muhim farqlarni baholash

F - kriteriyasi faqat o'rtachalar orasida farq mavjudligini belgilab beradi, ammo qaysi o'rtachalar orasida bu farq mavjudligini ko'rsatmaydi. SHuning uchun agar mavjud variantlar F kriteriyasi bo'yicha umumiy baho berilishi boshqalardan keskin farq qiluvchi ( $F_{haq} \geq F_{naz}$ ) variantlar mavjudligini ko'rsatadi va o'rganilayotgan to'plamda parametrlar tengligi to'g'risidagi no'linchi gipotezada inqor etiladi, u holda qaysi variantlarga muhim farqlar to'g'ri kelishi to'g'risida aniqlik kiritilib olinishi lozim. Qachonki  $F_{haq} < F_{naz}$  bo'lsa va shundan kelib chiqib nulinchi gipoteza rad etilganda xususiy farqlarni baholash olib borilmaydi. Bunday hollarda har qanday juftliklar orasidagi farqlar tajriba xatoligi atrofida bo'ladi.

Tajriba ishlari amaliyotida o'rtachalar orasidagi muhim farqlarni aniqlashni bir necha usullari qo'llaniladi. Ulardan nisbatan keng qo'llaniladiganlarini ko'rib chiqamiz.

1. *O'rtacha farqlar o'rtasidagi eng kichik muhim farqlanishni ahamiyatini baholash (NSR)*. Agar tajribada variantlar soni  $l$  ta bo'lsa, u holda o'rtachalar orasidagi farq quyidagi formulada aniqlanadi:

$$\frac{l(l-1)}{2}$$

Ular orasida muhim va muhim bo'lмаган farqlar bo'lishi mumkin. NSR =  $t_{sd}$  kriteriyasi ikkita tanlama farqidagi eng kichik xatolikni khrsatishi mumkin. Agar haqiqiy farq  $d \geq NSR$  bo'lsa, u holda muhim ahamiyatli, agar  $d < NSR$  bo'lsa muhim emas, ya'ni ahamitsiz.

$NSR$  ni aniqlash uchun dispersion tahlil natijalariga ko'ra hisoblash zarur:

$$\text{O'rtachalar umumlashtirilgan xatosini } S\bar{x} = \sqrt{\frac{s^2}{n}}$$

$$\text{O'rtachalar farqi xatosi } S_d = \sqrt{\frac{2s^2}{n}}$$

Tajriba ishlarida variantlar bo'yicha o'rtachalarni parallel taqqoslash amalga oshiriladi va farqlanishlar bo'yicha xatoliklar yuqorida keltirilgan formulalar bo'yicha aniqlanadi. Biroq ba'zan, masalan tajribada nazorat varianti bo'lмагандага variantlar bo'yicha o'rtacha hosilni tajribaning o'rtacha hosili bilan taqqoslashga zarurat vujudga keladi. Bu holda o'rtachalar farqi bo'yicha xatolikni quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_d = \sqrt{s^2 \frac{(l-1)}{l_n}} = S\bar{x} \sqrt{\frac{l-1}{l}}$$

Ba'zan bir xil o'lchamda bo'lмаган turli komplekslarni, qaysiki o'rtachalari aniq bo'lмаган guruhlarni taqqoslashga to'g'ri keladi. Bunday hollarda farqlar xatoligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$S_d = \sqrt{\frac{s^2}{n_1} + \frac{s^2}{n_2}} = \sqrt{s^2 \frac{n_1 + n_2}{n_1 \times n_2}}$$

bu erda  $s^2$  –dispersiya tahlili jadvalidan olinadigan o'rtacha kvadrat qoldig'i;

$n_1, n_2$  – taqqosdanayotgan guruhlardagi taqqoslanishlar soni ;

Agar  $n_1 = n_2$  bo'lганда formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$S_d = \sqrt{s^2 \frac{n_1 + n_2}{n_1 n_2}} = \sqrt{s^2 \frac{2n}{n^2}} = \sqrt{\frac{2s^2}{n}}$$

$S_d$  ahamiyatini  $NSR$  formulasiga ko'yib quyidagilar olinadi:

$$NSR_{05} = t_{05} s_d; NSR_{05\%} = \frac{t_{05} s_d}{\bar{x}} 100$$

Dispersiya qoldig'i uchun ahamiyatlik darajasi va erkinlik darajasi soni

$t$  -kriteriyasi ahamiyati ilovadagi 1-jadvaldan olinadi.  $NSR$  va  $t$  oldidagi indeks yozuvlari ahamiyatlilik darajasi ko'rsatkichlari (5 va 1%). Masalan 5% ahamiyatlik darajasiga 95% extimollik darajasi, 1% ahamiyatlik darajasiga 99% extimollik darajasi to'g'ri keladi.

$NSR_{05}$  dan yuqori bo'lgan o'rtachalar orasidagi 5% ahamiyatlik darajasi bilan muhim farq hisoblanadi va bitta yulduzcha bilan belgilanadi (\*),  $NSR_{01}$  dan yuqori bo'lgan o'rtachalar orasidagi farq 1% lik ahamiyatlik darajasi bilan muxim farq hisoblanadi va ikkita yulduzcha bilan belgilanadi (\*\*).

2.O'rtalarni uchlamchi xatoliklar o'lchami bo'yicha o'rtachalar orasidagi farq ahamiyatini baholash, ya`ni  $3s_{\bar{x}}$  yoki 3E (V.N.Peregudov).

Umumlashgan o'rtacha xato  $s_{\bar{x}}$  o'rtacha kvadrat qoldig'i asosida aniqlanadi  $s_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{s^2}{n}}$

Bu xatolikning uchlamchi kattaligi muximlik kriteriyasi sifatida qabul qilinadi. Agar xaqiqiy farq  $d \geq 3s_{\bar{x}}$  bo'lsa, u xolda ular 5% o'lchamda ahamiyatlidir, agar  $d \leq 3s_{\bar{x}}$  bo'lganda esa ahamiyatga ega emas.

Tajribada takrorlanishlar soni 4-6 bo'lib, variantlar soni ko'p bo'lsa, masalan nav sinash dalalarida  $3s_{\bar{x}}$  kriteriyasini qo'llanishi asosli. Biroq takrorlanishlar soni 3-4 tani, variantlar soni 2-6 ta bo'lган dala tajribalarida bunday baholash usulini qo'llanishi muhim farqlanishlar sonini ortib ketishiga olib keladi.

$3S_{\bar{x}}$  yoki 3E kriteriyalarini qanday vujudga kelganini ko'rib chiqsak yuqorida aytilgan fikrlar yanada tushunarli bo'ladi.

Dispersion tahlil barcha o'rtachalar xatosiga  $S_{\bar{x}} = 8\bar{x} = S_{\bar{x}_2} = \dots = S_{\bar{x}_n}$  yagona umumlashtirilgan va demak yagona o'rtacha farq xatosini aniqlab beradi:

$$S_d = \sqrt{S^2 \bar{x}_1 + S^2 \bar{x}_2} = \sqrt{2S^2 \bar{x}} = 1.41 S \bar{x}$$

Erkinlik darajasi soni qoldiq uchun  $V_2 \geq 16$ , qaysiki  $t_{05} = 2,12$ , eng kichik muxim farq 5% li ahamiyatli darajada quyidagiga teng:

$$NSR_{05} = t_{05} S_d = 2,12 \times 1,41 S \bar{x} = 2,99 S \bar{x} \text{ yoki yuxlit holda } 3 S \bar{x}$$

SHunday qilib, uchlamchi xato – bu  $NSR_{05} V_2 \geq 16$  tajribalar uchun. Qachonki  $V_2 < 16$  bo'lган hollarda  $S \bar{x}$  oldidagi koeffitsient ortib boradi va agar erkinlik darajasi qoldiq soni 2-7 gacha pasaygan hollarda ayniqsва kuchli pasayganda, qaysiki bu holat variantlar soni kam bo'lган tajribalarda kuzatiladi. Bunday hollarda xatoning kattaligining o'zi  $S \bar{x}$  xatolik uchun ishonchli bo'lмаган база bo'lib qoladi va shuning uchun muhim kriteriyalar olish uchun oldin 5% o'lchamda  $S \bar{x}$  oldidan V.N.Peregudov quyidagi koeffitsientlarni ko'yishni tavsiya etadi.

Erkinlik darjasining qoldiq soni	2	3	4	5	6-7	8-9	10-12	13-15	16 dan yuqori
$S \bar{x}$ koeffitsient	6,08	4,57	3,93	3,64	3,40	3,23	3,11	3,04	3,00

SHunday qilib  $3 S \bar{x}$  va  $3E$  kriteriyasini ayniqsa  $3 S \bar{x} = HCP_{05}, V=16$  bo'lganda qoldiq dispersyaning erkinlik darjasining soni uchun qo'llanishi asosli. Agar  $V_2 < 16$  bo'lsa, u holda o'rtachalar orasidagi farqni aniqlash uchun tajribada variantlar soni ko'p bo'lмаган hollardagi

statistik tahlilda ko'p ishlatiladigan uchlamchi xatolarni qo'llanishi to'g'ri emas, o'rtachalar orasidagi farqni bunday baholash farqlar orasidagi muhim tafovutni oshirib yuboradi. Bunday hollarda  $S\bar{x}$  yuqorida keltirilgan koeffitsient qo'yilishi kerak, ular boshlang`ich 3 sonidan 1,5-2 marta yuqori bo'lishi mumkin.

Dispersion tahlil amaliyotda qo'llanilgan eksperimental ishlarda o'rtachalar orasidagi muxim farqlanishlar ko'pincha  $HCP_{05}$  bo'yicha aniqlanadi. Bu kriteriy ayrim tafovutlarni baholash uchn qabul qilingan.

Tahminiy hisob ishlari uchun  $3 S\bar{x}$  va  $3E$  soddalashtirilgan kriteriylardan foydalanish mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlari davlat nav inash tizimida  $HCP_{05}$  va  $3E$  asosida barcha navlar uch guruhga bo'linadi:

1 guruh- o'rtacha hosilni standartga (nazaratga) nisbatan  $HCP_{05}$  bo'yicha musbat ko'rsatkichida farqlanishi.

11 guruh – farqlanish  $\pm HCP_{05}$  dan chetga chiqmaydi.

111 guruh – farqlanish  $HCP_{05}$  absolyut kattaligida manfiy ko'rsatkich bo'yicha katta.

Variantlarni muxim farqlari bo'yicha 3 guruhga ajratilishi agrotexnik tajribalarda ham qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Tajriba natijalarini baholashda eng kichik muhim farqlanishning mohiyatini aniqlashda quyidagi analoglardan foydalaniлади. Agar torozi 1 kg li bo'lingan bo'lsa, uni qo'llashda uni bu vazndan kam miqdorda o'zgartirish yoki xatolik  $\pm 10$  g ortishi mumkin emas. SHunga ko'ra agar tadqiqotda  $HCP_{05} = 3 ts/ga$  bo'lsa, u tanlama o'rtachalarining farqlanishini baholashda bu tajribalar imkoniyati echimini hal qiluvchi o'ziga xos bo'lган baho hisoblanadi. Agar variantlar o'rtasidagi farq  $3 ts/ga$  dan kam bo'lsa uni muhim farqlanish deb hisoblash yaramaydi. Bu tushunarli oddiy holat avsuski ba`zan unitiladi va ko'shimcha hosil bo'yicha statistik ahamiyatga ega bo'lмаган farqlar bo'lган hollarda ham iqtisodiy ahamiyatga ega deb qaralib ularni katta maydonlarda tarqalishiga yo'l qo'yiladi.

Ko'pincha "xato", "farqlar bo'yicha chegaraviy xato", "uchlamchi xato" singari terminlar tajribani endi boshlanayotgan yosh tadqiqotchilarini tushunmovchilikka, ya`ni adashishlarga sabab bo'ladi. Ularning nazarida tajribada "xato" bo'lishi mumkin emas va agar xato bo'lган bo'lsa – demak bunda o'lchashlarni yoki kuzatishlarni etarlicha mukammal olib borilmagan deb hisoblaydilar. Bu unday emas. Tadqiqot ishlarida statistik xatoliklar yoki variantlar tanlama xarakteriga xos bo'lган xatoliklar bo'lishi mukarrar.

### 6.3. Dispersion tahlilning oddiy usuli

Dispersion tahlilning mohiyatini tushunib etish uchun sun`iy tarzda tuzilgan bir omilli ikkita variant ( $l=2$ ) **nfssjckfyflbufy** vegetatsion tajriba na`munasidan foydalanamiz. Xar bir variant to'rttadan sosud idishlarda ( $n=4$ ). Tajribada kuzatishlar umumiy soni.  $N=ln = 2 \times 4 = 8$ . Vegetatsion tajribada boshqarilmaydigan sharoitlar rendamizatsiyasi va variantlar (tanlamalar) mustaqilligi sosndlarni vogonetkalarda vaqtı-vaqtı bilan o'zgartirib turish bilan amalga oshiriladi. Tajribada olingen hosil to'g'risidagi ma'lumot jadvalda keltirilgan.(g/sosud).

Variantlar	Hosil, X	Variantlar bo'yicha jami, V	Variantlar bo'yicha o'rtacha, $\bar{x}_V$
1	7 7 9 5	28	$7=\bar{x}_1$
2	3 1 5 3	12	$3=\bar{x}_2$
Umumiy yig`indi 40 = $\sum X$		$5=\bar{x}$	

Bu eksperimentda boshlang`ich ma'lumotlarni faqat bitta usulda variantlar bo'yicha grupirovka qilish mumkin. Variantlar bo'yicha yig`indi va o'rtacha, jami g`ig`indi va tajriba bo'yicha jami o'rtachani topamiz.

Hosildorlikni o'zgarib turishi, ya`ni uni umumiy o'rtachadan farqlanishi ( $X-\bar{x}$ ), bu erda ikki xil komponentlar bilan ifodalanadi-variantlar samarasi va tasodifiy variatsiya. Bir omilli vegetatsion

tajribalarda hosil variatsiyasining boshqa manbalari yo'q. SHundan kelib qiqqan holda umumiy o'zgarib turish  $C_Y$ , ya`ni variatsiya, umumiy o'rtachadan  $\sum(X - \bar{x})^2$  farqlanuvchi hosillar yig`indisining kvadrati bilan o'lchanadi hamda ikki xil qismdan: variantlar o'zgarib turishi  $C_V$  va tasodifiy  $C_Z$ . Mazkur dispersion tahlil modili:  $C_Y = C_V + C_Z$ .

Farqlanishlar (og`ishlar) kvadrati yig`indisini aniqlaymiz:

$$C_Y = \sum(X - \bar{x})^2 = (7-5)^2 + (7-5)^2 + \dots + (3-5)^2 = 48$$

Variantlar bo'yicha og`ishlar kvadrati yig`indisini hisoblash uchun jadvalda keltirilgan hosil bo'yicha har bir X soni o'rniga variantlar mos keluvchi o'rtacha sonlar qo'yiladi.

Variantlar	Hosil, X	Variantlar bo'yicha jami, V	Variantlar bo'yicha o'rtacha, $\bar{x}_V$
1	7 7 7 7	28	$7 = \bar{x}_1$
2	3 3 3 3	12	$3 = \bar{x}_2$
Umumiy yig`indi		$40 = \sum X$	$5 = \bar{x}$

Xaqiqiy X sonlar o'rnisha variantlar o'rtachasi bo'lgan  $\bar{x}_V$  qo'yilib, shu bilan variantlar ichidagi tasodifiy variatsiyalarini yo'qtamiz.

Variantlar uchun og`ishlar kvadrati yig`indisini quyidagi tenglama orqali aniqlaymiz:

$$C_V = \sum (\bar{x}_V - \bar{x})^2 = (7-5)^2 + (7-5)^2 + \dots + (3-5)^2 = 32$$

Umumiy variatsiyalanish va variantlar variatsiyalanishi o'rtasidagi tavovut xatolik uchun og`ishlar kvadrati yig`indisini keltirib chiqaradi:

$$C_Z = C_Y - C_V = 48 - 32 = 16$$

Erkinlik darajasining umumiy soni  $N - 1 = 8 - 1 = 7$ , shuningdek ularni ikki qismga: variantlar bo'yicha erkinlik darajasi  $l-1 = 2 - 1 = 1$  va qoldiq  $N - l = 8 - 2 = 6$ .

Xaqiqiy kriteriyani aniqlash uchun ikkita o'rtacha kvadratlarni hisoblaymiz:

$$\text{Variantlar uchun } s_V^2 = \frac{C_V}{l-1} = \frac{32}{2-1} = 32.00 \text{ va}$$

$$\text{Xatolik uchun } s^2 = \frac{C_Z}{N-l} = \frac{16}{8-2} = 2.66$$

Xaqiqiylik chegarasini aniqlaymiz:

$$F_f = \frac{s_V^2}{s^2} = \frac{32.00}{2.66} = 12.05$$

Uni jadvalning 2-ilovasi orqali variantlar erkinlik darajasi  $l$  va xatolik darajasi 6 ga teng bo'lgan holatdagi  $F_{0.05}=2.45$  bilan taqqoslasmiz. Statistik nulinchi gipoteza  $H_{0.05}$  bilan variantlar o'rtachasi orasida muxim farq yo'q, rad qilinadi ( $F_0 > F_{0.05}$ ). SHundan kelib chiqqan xolda tanlamalar o'rtachalari  $\bar{x}_1$  va  $\bar{x}_2$  xosildorlik 5% ahamiyatli darajasi bo'yicha bir biridan sezilarli farq qiladi.

Eng kichik muxim farqni aniqlaymiz:

$$NSR_{0.05} = t_{0.05} s_d = t_{0.05} \sqrt{\frac{2s^2}{n}} = 2.45 \sqrt{\frac{2 \cdot 2.66}{4}} = 2.8 \text{ g/sosud.}$$

$t_{0.05} = 2.45$  ning nazariy ahamiyati chegarasi ilovaning 1-jadvalidan erkinlik darajasi 6 uchun 5% ahamiyatli darajasi bo'yicha topiladi.

O'rtachalar orasidagi farq  $d = \bar{x}_1 - \bar{x}_2 = 7 - 3 = 4$  g/sosud og`ishlar farqi o'rtachasidan ( $d > HCP_{0.05}$ ), va shuningdek o'rtacha muxim farqlardan yuqori bo'ladi.

## 17-MA`RUZA

### MAVZU: VEGETATSION TAJRIBALAR MA`LUMOTLARINI DISPERSION TAHLIL QILISH

#### 7.1. Vegetatsion tajriba ma`lumotlarini dispersion tahlili

Vegetatsion tajribalar bir nechta mustaqil tanlama-variantlardan iborat statistik majmua sifatida taqdim etiladi. Taqdim etiladigan variantlarning mustaqilligi variantlarni muntazam ravishda joylarini olmashtirish bilan erishiladi. SHundan kelib chiqqan xolda, vegetatsion tajribalarda odatda xududiy tartibdagi takrorlanishlar bo`lmaydi. Bunday hollarda natijalarning dispersion tahlili bog`lanmagan variantlar uchun qabul qilingan usulda olib boriladi. Vegetatsion tajribada variantlar xu takrorlanishlar bo`yicha joylashtirilsa, u holda statistik tahlil dala tajribasidagi singari tartibli takrorlanishlar usulida amalga oshiriladi.

Vegetatsion tajribada dispersion tahlil oldidan  $N_0$  statistik gipotezani tekshirish vazifasi qo`yilib, u quyidagicha ifodalanadi: variantlar bo`yicha o`rtachalar orasida keskin farq yo`q, ya`ni  $\bar{x}_1 = \bar{x}_2 = \dots = \bar{x}_l$  yoki  $\bar{x}_1 - \bar{x}_2 = d = 0$ . Nulinchi gipoteza qisqacha  $N_0: d = 0$  tarzida yoziladi.

Quyida tartibsiz takrorlanishlar uslubida olib borilgan bir omilli va ko`p omilli vegetatsion tajribalar uchun dispersion tahlillar keltirilgan.

#### 7.2. Bir omilli vegetatsion tajribalar natijalarini dispersion tahlil qilish

Bir omilli vegetatsion tajribalarda belgilarning umumiyligi variatsion o`zgaruvchanligi ikki komponentga bo`linadi – variantlar variatsiyasi va tasodifiy variatsiya:  $C_Y = C_V + C_Z$ .

Tajriba natijalarini statistik tahlili uch bosqichda amalga oshiriladi.

1. Hisob jadvali tuzilib, unga boshlang`ich ma`lumotlar qatorlab va ustunchalar bo`yicha yozib boriladi, variantlar bo`yicha umumiyligi va o`rtacha ko`rsatkichlar hisoblanadi.

Ma`lumotlarni jadvalda joylashishi

Variantlar	Boshlang`ich ma`lumotlar, <b>X</b>	Kuzatishlar soni, <b>n</b>	Variantlar yig`indisi, <b>V</b>	Variantlar bo`yicha o`rtacha
1	$X_{11}, X_{12}, \dots, X_{1n}$	$n_1$	$V_1$	$\bar{x}_1$
2	$X_{21}, X_{22}, \dots, X_{2n}$	$n_2$	$V_2$	$\bar{x}_2$
•	•	•	•	•
•	•	•	•	•
•	•	•	•	•
$l$	$X_{l1}$	$n_l$	$V_l$	$\bar{x}_l$
	Umumiy yig`indisi	$N = \sum n$	$\sum X = \sum V$	$\bar{x} = \sum X / N$

2. Qabul qilingan formula bo`yicha farqlar (og`ishlar) kvadrati yig`indisi hisoblanadi va  $F_F$  kriteriyasining xaqiqiy ahamiyati aniqlanadi.

Farqlar kvadrati yig`indisini hisoblash formulasi, dispersiya va  $F_F$  kriteriyasi

Dispersiya	Kvadrailar yig`indisi	Erkinlik darajasi	O`rtacha kvadrat	$F_F$	$F_T$
Umumiy $S_Y$	$\sum X - C$	$N-1$	-	-	-
Variantlar $C_V$	$\sum V - C$	$l-1$	$s_V^2$	$s_V^2 = s^2$	Jadvalga ko`ra
Qoldiq $C_Z$	$C_Y - C_V$	$N-1$	$s^2$	-	2- ilova

$$C = (\sum X)^2 : N \text{ yoki } C = \bar{x} \sum X \text{ korrektorlovchi omil, to'g`irlovchi.}$$

3. Tajriba xatosi va va ayrib belgilarning mohiyati aniqlanadi.

Bir xil takrorlanishli tajriba variantlariga ishlov berishda hisoblash texnikasi 1-misolda, xar xil takrorlanishlar uchun esa 2-misolda keltirilgan.

**Misol 1.** Suv ekinlarida o'g'itlar N: P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>: K<sub>2</sub>O nisbati tomat ko'chatlarini oziqlantirishni veva hosiliga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq vegetatsion tajribalari ma'lumotlariga ishlov berish. Nulinchi gipoteza N<sub>0</sub>: d = O, varmantlar o'rtachasi bo'yicha farqlar katta emas.

**Echilishi.** 1. Hosildorlik jadvalida variantlar bo'yicha o'rtacha va umumiyligini ko'rsatkichlar hisoblanadi, tajribaning umumiyligini va o'rtacha hosildorligi aniqlanadi.

2. Kvadratlar yig`indisini hisoblash uchun boshlang`ich sonni X<sub>1</sub>=X-A nisbati bo'yicha yangilash maqsadga muvofiq, bunda boshlang`ich son sifatida tajribaning o'rtacha hosiliga yaqin bo'lган  $\bar{x} = 489,4$  nisbiy o'rtacha A = 500 qabul qilinadi (jadval...).

Ertaki mevalar hosili

Variant	Hosildorlik, <b>X</b>				Kuzatishlar soni, <b>p</b>	Umumiyligini <b>V</b>	O'rtacha
St	454	470	430	500	4	1654	463,5
2	502	550	480	507	4	2049	512,2
3	601	670	550	607	4	2428	607,0
4	407	412	475	402	4	1696	424,0
5	418	470	460	412	4	1760	440,0
Umumiyligini jami				20= $\sum n = N$	9787= $\sum X$	489,4= $\bar{x}$	

O'rtachadan farq

Variantlar	$X_1 = X - 500$				Umumiyligini <b>V</b>
1	-46	-30	-70	0	-146
2	2	50	-10	7	49
3	101	170	50	107	428
4	-93	-88	-25	-98	-304
5	-82	-30	-40	-88	-240
Jami yig`indi					-213= $\sum X_1$

Farqlar (og`ishlar) kvadrati yig`indisini hisoblash quyidagi uzviylikni keltirib chiqaradi.

Kuzatishlar umumiyligini  $N= \sum n = 20$

Korrektorlovchi omil  $C= (\sum X_1)^2 : N = (213)^2 : 20 = 2268$

Farqlar kvadrati umumiyligini yig`indisi

$$C_Y = \sum X_1^2 - C = (46^2 + 30^2 + \dots + 88^2) - 2268 = 10494$$

Variantlar uchun kvadratlar yig`indisi

$$S_V = \sum V^2 : n = (146^2 + 49^2 + \dots + 240^2) : 4 - 2268 = 86961$$

Kvadratlar yig`indisi qoldiq soni

$$C_Z = C_Y - C_V = 10494 - 86961 = 17980$$

$$C = (\sum X)^2 : N = (9787)^2 : 20 = 4789268$$

$$C_Y = \sum X^2 - C = (454^2 + 470^2 + \dots + 412^2) - 4789268 = 104941$$

$$C_V = \sum V^2 : n - C = (1854^2 + 2049^2 + \dots + 1760^2) : 4 - 4789268 = 86961$$

$$C_Z = C_Y - C_V = 10494 - 86961 = 17980$$

Dispersion tahlil natijalari

Dispersiya	Kvadratlar yig`indisi	Erkinlik soni	O'rtacha kvadrat	F <sub>F</sub>	F <sub>0,05</sub>
Umumiyligini	104941	19	-	-	-
Variantlar	86961	4	21740	18,13	1,06
Qoldiq	17980	15	1199	-	-

Variantlar dispersiyasi uchun erkinlik darajasi 4, qoldiq uchun erkinlik darajasi 15 bo'lgan holatlar uchun  $F_{05}$  nazariy ahamiyati ilovaning 2-jadvalidan topiladi.

3. Ayrim muxim tafovutlarning baholash uchun quyidagilar hisoblanadi:

a) tajriba xatosi

$$s \bar{x} = \sqrt{\frac{s^2}{n}} = \sqrt{\frac{1199}{4}} = 17.3 \text{ g}$$

b) o'rtachalar farqi xatosi

$$s_d = \sqrt{\frac{2s^2}{n}} = \sqrt{\frac{2 \times 1199}{4}} = 24.5 \text{ g}$$

v) 5% kichik farqliq (NSR) darajasida absolyut va nisbiy kattalik ko'rsatkichlari

$$NSR_{05} = t_{05} s_d = 2,13 \times 24.5 = 52.2 \text{ g}$$

$$NSR_{05} = \frac{t_{05} s_d}{\bar{x}} \times 100 = \frac{52.2}{489.4} \times 100 = 10.7\%$$

### Misol 2.

Suli hosili(g/sosud)

Variant lar	Hosildorlik, X							Kuzatish-lar soni	Jami V	O'rtacha
1	16,0	17,2	14,4	15,1	-	-	4	63,4	15,85	
2	29,4	30,4	30,3	28,1	-	-	4	118,2	29,55	
3	26,0	29,2	26,7	27,1	26,0	28,1	6	164,1	27,35	
4	25,3	24,8	26,1	28,2	25,7	24,0	6	154,1	25,68	
Umumiy yig`indi							$20 = \sum_{=N} n$	$499,8 = \sum X$	$24,9 = \bar{x}$	

### O'rtachadan farq

Variantlar	$X_1 - X - 25$						Jami V
1	-9,0	-7,8	-10,6	-9,2	-	-	-36,6
2	4,4	5,4	5,3	3,1	-	-	18,2
3	1,0	4,2	1,7	2,1	1,0	3,1	13,1
4	0,3	-0,2	3,1	1,2	0,7	-1,0	4,2

$$\text{Umumiy yig`indi } -1,2 = \sum X_1$$

Farqlar kvadrati yig`indisi

$$S_Y = C_1^2 - C = (9,0^2 + 7,8^2 + \dots + 1,0^2) - 0,07 = 474,2$$

$$C = \sum \left( \frac{V_1^2}{n_1} + \frac{V_2^2}{n_2} + \dots + \frac{V_l^2}{n_l} \right) - C = \left( \frac{36,6^2}{4} + \frac{18,2^2}{4} + \frac{13,1^2}{6} + \frac{4,1^2}{6} \right) - 0,07 = 449,03$$

$$C_Z = C_Y - C_V = 474,21 - 449,03 = 25,18$$

Dispersion tahlil natijalari

Dispersiya	Kvadratlar yig`indisi	Erkinlik darajasi	O'rtacha kvadrat	$F_F$	$F_{05}$
Umumiy	474,21	19	-	-	-
Variantlar	449,03	3	149,68	95,34	3,24
Qoldiq(xato)	25,18	16	1,57	-	-

$F_{05}$  ning ahamiyatini 2-ilova jadvalidan variantlar dispersiyasi uchun erkinlik darajasi 3 (suratda) va qoldiq erkinlik darajasi 16 (maxrajda) kesishgan joydag'i sonlar olinadi. Bu xolda variantlar orasida tahlil qilingan belgi bo'yicha katta ahamiyatli farqlar mavjud. CHunki, 5%

ahamiyatlik darajasida ( $F_{\text{amal}} > F_{\text{naz}}$ ) amaliy ko'rsatkich nazariy kuzatilishi mumkin bo'lган sondan yuqori bo'ladi.

3.Turli takrorlanishli tajribada ayrim farqlarning mohiyatini baholashda o'rtachalarini bir xil aniqlikda bo'lmasligiga e'tibor berilishi zarur. Dastlabki ikkita variantlar ( $\bar{x}_1 \text{ va } \bar{x}_2$ ) o'rtachalar xatosi kuzatishlarga  $n_1 = n_2 = 4$  kuzatishlar soniga, ikkita keyingilari esa  $n_1 = n_2 = 6$  kuzatishlar soniga tayanadi.SHuning uchun o'rtachalar orasidagi farqlar xatosi unda variantlar bo'yicha xar xil takrorlanishlar hisobga olingan xolda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S_d = \sqrt{\frac{s_1^2}{n_1} + \frac{s_2^2}{n_2}} = \sqrt{s^2 \frac{n_1 + n_2}{n_1 n_2}}$$

Hisoblanadi:

a) o'rtacha farqlar xatosi  $\bar{x}_1 \text{ va } \bar{x}_2$  ( $n_1 = n_2 = 4$ ) tenglik uchun.

$$s_d' = \sqrt{\frac{2s^2}{n}} = \sqrt{\frac{2 \times 1.57}{4}} = 0.88 g$$

$\bar{x}_1 \text{ va } \bar{x}_2$ ,  $\bar{x}_3$  va  $\bar{x}_4$  ( $n_1 = 4$  va  $n_2 = 6$ ) uchun taqqoslashda

$$s_d'' = \sqrt{s^2 \frac{n_1 + n_2}{n_1 n_2}} = \sqrt{1.57 \frac{4+6}{4 \times 6}} = 0.81 g$$

$\bar{x}_3, \bar{x}_4$  ( $n_3 = n_4 = 6$ ) uchun taqqoslashda

$$s_d''' = \sqrt{\frac{2s^2}{n}} = \sqrt{\frac{2 \times 1.57}{6}} = 0.72 g$$

b) 5% (yoki 1%) ahamiyatlik darajasi uchun eng kichik farqni baholash uchun:

$$NSR_{05}' = t_{05} s_d' = 2,12 \times 0.88 = 1.87 g$$

$$HCP_{05}'' = t_{05} s_d'' = 2,12 \times 0.81 = 1.72 g$$

$$HCP_{05}''' = t_{05} s_d''' = 2,12 \times 0.72 = 1.53 g$$

## 7.2. Ko'p omilli vegetatsion tajribalari natijalarini dispersion tahlil qilish

Ko'p omilli tajribalarni dispersion tahlil qilish ikki bosqichda amalgaga oshadi.

Birinchi bosqich-yakuniy belgilarning umumiy variatsiyasini variant va qoldiqqa variatsiyalanishi:  $C_Y = C_V + C_Z$ .

Ikkinchi bosqichda variantlar uchun farqlanishlar kvadrati variatsiyalarnish manbaiga mos keluvchi - o'rganilayotgan omilning asosiy samarasi va ularning o'zaro munosibati singari komponentlarga ajraladi. Ikki omilli tajribalarda  $C_V = C_A + C_B + C_{AB}$ ; uch omilli tajribalarda –  $C_V = C_A + C_B + C_C + C_{AB} + C_{AC} + C_{BC} + C_{ABC}$  ko'rinishda bo'ladi.

**Masala 3.** Arpa bilan o'tkazilgan ikki omilli  $2 \times 3$  tajribada azotli o'g'itlarning ikki xil me'yori va fosforli o'g'itlarning uch xil me'yori o'rganildi (jadval....). Tajriba natijalarini dispersion tahlil qilish lozim.

Ikki omilli  $2 \times 3$  tajribada arpa don xosili (gramm sosud)

Azot A	Fosfor V	Xosildorlik, X			Jami V	O'rtacha
	$v_0$	24,1	25,8	23,0	27,0	99,9
$A_0$	$v_1$	28,4	29,7	30,1	27,4	115,6
	$v_2$	28,7	30,4	32,0	17,0	118,1
	$v_0$	30,7	34,4	34,0	31,0	130,1
$A_2$	$v_1$	46,7	45,4	47,1	46,3	185,5
	$v_2$	59,4	50,7	64,5	60,1	234,7
Umumiy yig`indi					$883,9 = \sum X$	$36,8 = \bar{x}$

*Echish.* To'rtta qaytariqlarda ( $n=4$ ) o'tkazilgan ikki omilli A gradatsiya va uch omilli V gradatsiyani o'rganish bo'yicha ikki omilli tajribani dispersion tahlili quyidagi to'rtta boskichda amalga oshiriladi.

1. Variantlar bo'yicha jami va o'rtacha ko'rsatkichlar, tajribaning umumiy va o'rtacha xosildorligi aniqlanadi.

2. Farqlar (og`ishlar) kvadratining umuliy yig`indisi, variantlar va qoldiqlar uchun kvadratlar yig`indisi hisoblanadi:

